

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**



**“O'ZBEK FALSAFASI”
MODULI BO'YICHA**

O'QUV – USLUBIYMAJMUА

Toshkent – 2022

Modulning ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7-dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va dasturlar asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: O‘zMU, “Fuqarolik jamiyatni va huquq ta’limi” kafedrasи professori, f.f.d., To‘ychiyev B.T.

Taqrizchi: O‘zMU professori, f.f.d., Ro‘zimatova G.M.

O‘quv - uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2020 yil “30” dekabrdagi 5/4-sonli bayonnomasi)

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI.....	10
III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	13
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI	115
V. KEYSLAR BANKI.....	127
VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI.....	134
VII. GLOSSARIY.....	136
VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	168

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, 2019 yil 27 avgustdagi «Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida»gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi «Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyatga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyatga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarining mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: milliy falsafiy qadriyatlarimizning tarixiy ildizlari, jumladan O‘rta asrlar Ilk Uyg‘onish davri Markaziy Osiyo faylasuflarining qarashlari, falsafiy ta’limotlari hamda ularning jahon falsafasi rivojiga qo‘sishgan hissalarinitahlil qilish asosida oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini oshirish. **Modulning vazifalari:**

-
- Falsafa yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzlucksiz yangilash va rivojlantirish;
 - zamonaviy talablarga mos holda oliv ta’limning sifatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;
 - milliy falsafani yaratishning tarixiy-falsafiy asoslarini o‘rganishning sinergetik paradigmalarini shakllantirishni yo‘lga qo‘yish;
 - O‘zbek falsafasi rivojlanishining asosiy tendensiyalarini aniqlash;
 - O‘zbekistonni rivojlanish strategiyasining ijtimoiy-falsafiy masalalarini tahlil etish;
 - Falsafa yo‘nalishida o‘quv jarayonini fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta’minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

Modulni o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- O‘zbek falsafasi mazmuni, tarkibi va yangi tendensiyalari, turli madaniyatlar vakillarining va falsafiy maktablarning samarali hamkorligi, o‘zbek falsafasi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari hamda OTM tizimi rivojlanishiga doir konsepsiylar mazmuni va ularning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga ta’sirini ***bilishi*** kerak.
- Ilmiy tadqiqot ishlarida falsafaning zamonaviy masalalariga yondashish uslubiyatini to‘g‘ri tanlash;
- borliqni tizimli va tuzilmaviy tashkillashtirish;
- taraqqiyotning falsafiy modellarini tahlil qilishda falsafiy metodlarni qo‘llay olish;
- darsni samarali tashkil etish, o‘quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish;
- jamiyat ma’naviy hayoti hamda insonlararo munosabatlarda IXXIXasrlar Markaziy Osiyo mutaffakirlari falsafiy-tarixiy merosining o‘rni va rolini zamonaviy muammolar bilan bog‘liq holda o‘rganish, ularni tahlil qilishga ilmiy yondashish **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.
- Falsafa yo‘nalishidagi fanlardagi yangiliklar asosida o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy majmualarga o‘zgartirish kiritish;
- falsafiy bilimlarni o‘rganish orqali diskursiv (asoslangan) fikr yuritish;
- falsafaning zamonaviy yo‘nalishlarini ishlab chiqish va ommalashtirish;
- globallashuv jarayonidgi muammolarinianiqlash va tahlil qilish;

- fanning ilmiy, nazariy, tarixiy va pragmatik ahamiyatini hayotiy voqelik va ilmiy asosda tushuntirib berish;
- falsafiy manbalardan zarur va muhim bo‘lgan ma’lumotlarni ajratib olish, ularni izchil tizimga keltirib, talqin qilish ***malakalariga*** ega bo‘lishi lozim.
- falsafa fanining insoning jamiyatda tutgan o‘rni, yashashdan maqsad kabi masalalarni tahlil qilish va bugungi kun bilan taqqoslash;
- mazkur yo‘nalishda to‘plangan yangi ma’lumotlarni saralash va muayyan fanlar doirasida tizimlashtirish, aniq, lo‘nda, tushunarli ravishda bayon etish;
- modulli yondashuv asosida o‘quv jarayonini tashkil etish;
- texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonini boshqarish;
- falsafa fanida innovatsion o‘quv mashg‘ulotlarini loyihalash, amalga oshirish, baholash, takomillashtirish;
- kommunikativ vazifalarni hal etish texnologiyalari, kasbiy muloqot usullaridan foydalanish, hamkorlik ishlarini olib borish;
- O‘zbekistonda kalom va fiqhiy masalalar, insonning jamiyatda tutgan o‘rni, yashashdan maqsad kabi masalalarni tahlil qilish va bugungi kun bilan taqqoslash;
- O‘zbekfalsafasi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlariga oid yangi manbalardan foydalana olish ***kompetensiyalariga*** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

Modulni o‘qitish ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspresssso‘rovlari, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishslash, kolokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

«O‘zbek falsafasi» moduli o‘quv rejadagi birinchi blok va mutaxxislik fanlarining barcha sohalari bilan uzviy bog‘langan.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim jarayonini tashkil etishda texnologik yondashuv asoslarini va bu boradagi ilg‘or tajribani o‘rganadilar,

ularni tahlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy layoqatga ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Жами	Auditoriya o'quv yuklamasi		
			Назарий	Амайи машғулот	Кўчма машғулоти
1	Markaziy Osiyoda falsafiy fanlar va madaniyat rivojlanishining tarixiy ildizlari	6	2	4	
2	IX-XII asrlarda Uyg'onish davri falsafasi	4	2	2	
3	XX asr o'zbek falsafasi va uning rivojlanish strategiyasi	4	2	2	
4	O'zbekistonda mustaqillik yillarda falsafa fanining rivojlanishi istiqbollari	4	2	2	
Jami: 18 soat		18	8	10	

NAZARIY MASHG'ULOTLARMAZMUNI

1-mavzu. Markaziy Osiyoda falsafiy fanlar va madaniyat rivojlanishining tarixiy ildizlari (2 soat).

- 1.1. Zardo'shtiylik diniy-falsafiy ta'limotining vujudga kelishi.
- 1.2. Moniylik va Mazdak ta'limotining falsafiy jihatlari.
- 1.3. Islom falsafiy tafakkurining O'zbekiston ilm-fan ravnaqidagi ahamiyati.

2-mavzu. IX-XII asrlarda Uyg'onish davri falsafasi

(2 soat).

- 2.1. Markaziy Osiyoda tarixiy shart-sharoitlar va hozirgi O‘zbekiston hududida tabiiy-gumanitar fanlar taraqqiyoti.
- 2.2. Tasavvuf tariqatlarining ijtimoiy-falsafiy fikr rivojidagi o‘rni.

3-mavzu. XX asr o‘zbek falsafasi va uning rivojlanish strategiyasi.
(2 soat).

- 3.1. «Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» o‘zbek falsafasining zamonaviy konsepsiyasi.
- 3.2. Ma’naviy barkamol avlod – buyuk kelajak bunyodkori.
- 3.3. XX asr boshlari jadid ma’rifatparvarlik harakati va uning falsafiy mohiyati.
- 3.4. Mustabid sovet tuzumi davrida o‘zbek falsafasi. Totalitar mafkuraning falsafaga ta’siri.

4-mavzu. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida falsafa fanining rivojlanishi istiqbollari (2 soat).

- 4.1 Milliy g‘oya va mafkuraning ishlab chiqilishining ijtimoiyfalsafiy ahamiyati
- 4.2 Yangilanayotgan O‘zbekistonda ijtimoiy gumanitar fanlarning rivojlanish istiqbollari
- 4.3 SH.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati.
- 4.4 Mustaqillik yillarida o‘zbek falsafasining zamonaviy yo‘nalishlari

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot. Markaziy Osiyoda falsafiy fanlar va madaniyat rivojlanishining tarixiy ildizlari (4 soat).

2-amaliy mashg‘ulot. IX-XII asrlarda Uyg‘onish davri falsafasi (2 soat).

3-amaliy mashg‘ulot. XX asr o‘zbek falsafasi va uning rivojlanish strategiyasi (2 soat).

4-amaliy mashg‘ulot. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida falsafa fanining rivojlanishi istiqbollari (2 soat).

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI.

“O‘zbek falsafasi” modulini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning fan xususiyatidan kelib chiqqan holda deyarli barchasi tadbiq etilishi mumkin. Xususan, ma’ruza va seminarlar “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Bumerang”, “Menyu”, “B/B/B”, “Munozara”, “Rezyume” singari metodlar, slaydlar, multimedia namoyshlari bilan o’tkaziladi. Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini tulakonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan boglik ukish maksadlaridan kelib chikkap xolda yondoshilishni nazarda tutadi.

Shaxsga yunaltirilgan ta’lim. Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha buginlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini akllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o‘quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va o‘z-o‘zini ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgannatijalarini baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta’lim. Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilishorqali ta’lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo‘llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta’milanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo‘llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash.

O'qishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lif, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rghanishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birlgilidagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baxolash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs ohrida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

"O'zbek falsafasi" modulini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, "Excel" elektron jadvallar dasturlaridan foydalilanadi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. "Internet" tarmog'idagi rasmiy iqtisodiyko'rsatkichlaridan foydalilanadi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi

"O'zbek falsafasi" moduli darslari qiziqarli va tinglovchilarga boy axborot beradigan bo'lishiga yordam beradigan ulublar juda ko'p. Lekin ular orasida falsafaning eng sinalgan va eng qadimiy uslubi bo'lgan "suqrotcha baxs"ga hech qaysi uslub yeta olmaydi. Zero aynan shu uslub dialektik fikrlash uslubidir va aynan shu uslub dunyoga Suqrot, Platon, Aristotel, Forobi, Ibn Sino kabi ko'plab mutafakkirlarni yetishtirgan. Ayni shu uslub Platon dialoglarida aks etgan va hozirgacha insoniyat yetuk mutafakkirlarini kamolotga yetkazishda davom etmoqda. Bu uslubni yaxshi bilish uchun mazkur dialoglarni chuqur o'rghanish kerak. Bugungi kunda ularning o'zbek tilidagi tarjimasi amalga oshirilgani esa ishimizni yanada yengillashtirdi. Bu uslub seminarda emas, balki faqat ma'ruzalar vaqtida o'kaziladi. Bunda o'qituvchi Suqrotning, talabalar esa Suqrotning suhbatdoshi rollarini o'ynaydilar. Mazkur metodni mashq orqaligina

namoyish etish mumkin. Shuning uchun bu yerda ushubu uslubga boshqa to‘xtalmaymiz. Lekin metodikadan o‘tkazadigan seminarlarimizda bu metodni maxsus mashq qilib ko‘ra olamiz. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu uslubni falsafani chuqurroq biladiganlar o‘zlashtirishi mumkin va maqsadga muvofiqdir. Falsafa darslarining xajmi juda qisqa bo‘lgan nofalsafa mutaxassisliklari darslarida esa uni qo‘llash uchun yetarli vaqt topib bo‘lmaydi. Ammo bu uslub masalaning javobi baxs qatnashchilaridan biriga ayon bo‘ladigan platoncha (suqrotcha) dialog emas, albatta. Bu savollar va ularga javoblar to‘qnashuvi jarayonida kelib chiqadigan o‘z o‘zidan tashkillanishi kutiladigan nochiziqli kognitiv-kommunikativ muhitdir.

“O‘zbek falsafasi”ni o‘rganishga endigina kirishganlar esa avval osonroq uslublar asosida o‘z tafakkurlarini rivojlantiradigan uslublar asosida ishlashlari maqsadga muvofiq. Shunday ulublar qatoriga “insert” uslubi turadi.

III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-Mavzu. MARKAZIY OSIYODA FALSAFIY FANLAR VA MADANIYAT RIVOJLANISHINING TARIXIY ILDIZLARI.

Reja:

- 1.1. Zardushtiylik diniy-falsafiy ta’limotining vujudga kelishi.**
- 1.2. Moniylik va Mazdak ta’limotining falsafiy jihatlari.**
- 1.3. Islom falsafiy tafakkurining O‘zbekiston ilm-fan ravnaqidagi ahamiyati.**

1.1. Zardushtiylik diniy-falsafiy ta’limotining vujudga kelishi.

Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyasining eng qadimgi o‘choqlaridan biridir. Eradan oldin birinchi ming yillikda hozirgi Markaziy Osiyo xududlarida yunon tarixchilari skiflar, eron manbalarida saklar deb ataluvchi xalqlar yashagan. Kaspiy orti vodiylarini massagetlar egallagan. Markaziy Osyoning ana shu xududlarida sivilizatsiyaning ilk markazlari vujudga kelgan.

Eradan avvalgi VI asr oxiri va V asr boshlarida saklar fors davlati tarkibiga kirgan, eradan avvalgi IV asrda esa Markaziy Osyonni Aleksandr Makedonskiy zabit etadi. Yunon istilosiga qaramasdan Markaziy Osiyo xalqlari o‘zining madaniyatini saqlab qoladi.

Bu davrda xo‘jalik yuritish, madaniyat va sanoatning rang-barang shakllari rivoj topadi. Markaziy Osiyoga aramey alfaviti kirib keladi, uning asosida xorazmiy va so‘g‘d yozuvlari tarkib topadi. Markaziy Osiyo xalqlari og‘zaki ijodiyoti va adabiyotining boshlanishi ham xuddi shu davrga to‘g‘ri keladi. Shaharlar paydo bo‘ladi, hunarmandchilik taraqqiy etadi, temir asbob-uskunalardan foydalanish yaxshi yo‘lga qo‘yiladi. “Buyuk Ipak yo‘li”ning shu yerdan o‘tishi tufayli aholi Hindiston, Xitoy, Misr, Mesopatamiya, hatto Yunoniston va Rum kabi mamlakatlar bilan aloqalar o‘rnatadi.

Qadimgi Turon zaminda VIII asrgacha bo‘lgan falsafiy, ijtimoiy axloqiy qarashlarning umumbashariy ahamiyatga molik bo‘lganligi bizga qadar yetib kelgan tarixiy yodgorliklardan ma’lumdir. Turk mifologiyasi, Orxun-Enasoy yozuvlari, Kultagin yodgorligi, Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Narshaxiyning “Buxoro tarixi” kabi manbalar o‘sha davr ijtimoiy-falsafiy qarashlari to‘g‘risida muayyan tasavvur hosil qiladi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, qadimgi Hindistonda va Xitoyda keng tarqalgan 4-5 elementning substansiyaviyligi haqidagi g‘oyalar Markaziy Osiyo xalqlari falsafiy fikrlariga o‘ziga xos ta’sir etgan. O‘sha zamonning donishmandlari borliq va undagi barcha narsahodisalarni suv, havo, tuproq va olovdan tashkil topgan deb o‘ylaganlar, bu tasavvurlar keyinchalik ilohiylashtirilgan. Shu ma’noda havoni

bulg'ash eng katta gunoh hisoblangan. Olov mehr-muhabbat ramzi bo'lgan. Saklarning epik ertaklarida vatanparvarlik, sadoqat va jasurlik g'oyalari kuylangan. O'z qabilasi mustaqilligi uchun kurashning yorqin namunalari Shiroq, To'maris haqidagi afsonalarda aks etgan. Sak eposining ayrim belgilari o'zbek, qoraqalpoq, turkman va tojik xalqlari og'zaki ijodiyoti namunalarida saqlanib qolgan.

Bizning Markaziy Osiyoda yashagan qadimiy avlod-ajdodlarimiz falsafiy fikri haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lishimizda qadimiy xalq og'zaki ijodiga oid afsona va rivoyatlar, qadimgi Hind, Xitoy va Yunon tarixchilarining asarlari, «Avesto», «Bexistun», «Bundaxshin» va shular kabi yozma yodgorliklar, jumladan, Turk O'rxun-enasoy runiy matnlari muhim manba'lar sifatida katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, ular ichida «Avesto», Sharq, shubhasiz, Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy ma'naviyat madaniyat, xususan, falsafiy qarashlarini o'rganish uchun bebaho manba'dir. Bu asar bizga qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining ilk tabiiyilmiy tasavurlari, ijtimoiy-siyosiy, diniy va falsafiy fikrlarining shakllanishini aniqlash uchun juda boy manba' bo'lib xizmat qiladi. Biz «Avesto»ga murojaat qilganimizda, undagi diniy mifologik va falsafiy jihatlarni bir-biridan farqlashimiz lozim. Chunki unda juda ko'p masalalar insoniy munosabatlar asosida yoritilib, undagi asosiy g'oyalalar ilohiy kuchlar-xudolar xohish-irodasini bajo keltiruvchi kuchlar qiyofasida namoyon bo'ladi.

«Avesto», tadqiqotchilarning yozishicha, 21 kitobdan iborat bo'lib uning 7 kitobi dunyo va inson zotining o'tmishi haqida, 7 kitobi inson ahloqi, uning huquqlari haqida va nihoyat, 7 kitobi tibbiyot, ilmiy-hay'at hamda aniq fanlarga oid bilimlar haqida bo'lgan. Bu asar mazmunini tashkil etgan diniy-falsafiy g'oyalalar miloddan ilgarigi bir qancha asrlar davomida shakllanib, to'planib, rivojlantirilib borilgan. Nihoyat, miloddan ilgari VI-V asrlarda Zardusht tomonidan tartib berilib, kitob holiga keltirilgan. Bu asar zardushtiylik diniy-fasafiy ta'limotining muqaddas kitobi sifatida o'zida ajdodlarimizning tabiat, borliq, olam, jamiyat, inson, uning hayoti, ahloqi, huquqlari, burchi kabi masalalar yuzasidan dastlabki diniy falsafiy qarashlarini ifodalaydi.

Afsuski, bu kitobning to'rtdan bir qismigina bizgacha yetib kelgan, xolos. Hozir mavjud «Avesto»: «Gotlar», «Yashta» (yoki «Yasna») va «Videvdat» qismlardan iborat bo'lib, ulardan «Gotlar» eng qadimgi, deb hisoblanadi. Qolgan qismlari esa sosoniylar davrida qayta tiklangan bo'lib, unga sosoniylar davlati manfaatlari asosida taxririy o'zgarishlar kiritilgan. Shu sababli ko'pchilik tadqiqotchilar «Avesto»ning falsafiy g'oyalarini tahlil qilishni uning «Gotlar» qismidagi zardushtiylik diniyfalsafiy ta'limotining insonga, insonni jamiyatdagi o'rni va roliga munosabatini ko'rsatishdan boshlaydilar.

Zardushtiylik diniy-falsafiy ta'limotiga ko'ra, olamda ikkita kuch: yaxshilik va yomonlik kuchlari bo'lib, ular bir-birlariga qarshi kurash olib

boradilar. Yaxshilik kuchlariga xudo Ahura Mazda, yomonlik kuchlariga xudo Axriman boshchilik qilishadi. Insonning hayoti, uning taqdiri, baxti va baxtsizligi shu ikki kuch kurashi bilan bog‘liq holda ko‘rsatiladi. Bunda inson bu faoliyatning subyekti sifatida emas, balki xudolar ta’sir ko‘rsatadigan obyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Asarda kishilar o‘z amaliy ishlari va axloqiy fazilatlari bilan yaxshilikka moyil ekanliklari, ular yovuz kuchlarga qarshi kurashda ezgu ruhlarga ko‘maklashishlari lozim, aks holda, yomonlik tantana qilib, ular ababul-abad azob-uqubatlarda yashashi mumkinligi aytildi. Bunda kishilarning yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlari va qarashlari ularning amaliy faoliyati bilan bog‘langan holda ko‘rsatilib, ular kishilar faoliyatini rag‘batlantiruvchi, yo‘naltiruvchi kuchlar sifatida ifodalanadi. Masalan, asarda shunday deyiladi: «Don ekkan kishi taqvadorlik urug‘ini ekadi. U (Ahura) Mazdaga ixlosmandlik e’tiqodini olg‘a suradi, u (o‘z) iymonini oziqlantiradi». «Ekin ekish, demak, yerdagи yovuzlikni yo‘qotishdir, chunki don ekilganda, devlarni ter bosadi, devlar tegirmonda unga aylantirganda, devlar gangib qoladi, un tegirmondan chiqqanda, devlar sarosimaga tusha boshlaydi, non paydo bo‘lgan paytda, devlar qo‘rqanlaridan zo‘r berib, dod solib qochadilar».

«Avesto»da insoniyat tarixi haqida ham fikr yuritilib, unda aytishicha, birinchi paydo bo‘lgan odam Ilmadir. Boshqa odamlar keyinchalik undan tarqalgan. Ilma yashagan davr insoniyatning oltin davri, deb tasvirlanadi. Bu davrda odamlar o‘lmaydilar, ularga abadiy bahor yaratilgan bo‘ladi, ular baxtli va farovon yashaydilar. Biroq shunday bir paytda odamlar taqiqlangan mol go‘shtini yeb, gunoh qilib qo‘yishadi. Bundan g‘azabi kelgan Angra manyu («Axriman») xudosi ularga qor va sovuqni yuboradi. Ilma shunda uy qurib, odamlarni va bir juftdan hayvonlarni saqlab qoladi. Shundan boshlab, insoniyat tarixining birinchi davri oltin davri tugab, ikkinchi-yaxshilik va yomonlikning kurash davri boshlanadi. Bu davrda yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi keskin kurashlar so‘ngida xudo Ahura Mazda xudo Axriman ustidan g‘olib chiqadi va baxtli hayot saltanati qaror topadi. Bu insoniyat tarixining uchinchi davri bo‘lib, insoniyatning kelajagi davridir. Bu davrda kishilarning baxt-saodat, adolatli jamiyat haqidagi orzu-umidlari ushaladi. Bu davrda oldin o‘lganlar tiriladi, gunohkorlar jazolanadi. Jamiyatda mehnatsevarlik, adolat, halollik, poklik, yaxshilik asosiy o‘rinni egalaydi.

«Avesto»da quyidagi uch jihat insonning insoniyligini ta’minlovchi asossiy fazilatlar ekanligi aytildi. Bular: 1) Ezgu fikr; 2) Ezgu so‘z; 3) Ezgu ish (amal)dir. Mana shu fazilatlarga ega bo‘lgan inson oliy haqiqatga musharraf bo‘ladi. Bularga erishishning asosiy vositasi mehnat qilish, o‘rganish, izlash, o‘z ustida timmay ishlashdir. Xullas, «Avesto»da ilgari surilgan diniy-falsafiy ta’limot, zardushtiylik g‘oyalari keyingi davrlar Sharq va Yevropa diniy-falsafiy

ta'limotlarining shakllanishi va paydo bo'lishida juda katta o'rin tutgan va rol o'ynagan.

Zardo'shiylik dinining muqaddas kitobi bo'lmish «Avesto»ning ilk sahifalari bundan uch ming yil ilgari Xorazmda yaratilgan. Eramizdan oldingi VII asrga kelib, uni Amudaryo sohilidagi tuya boquvchi qabilalar orasidan yetishib chiqqan Zardo'sht qayta ishlab chiqqan. Zardo'sht "Avesto"ning qadimgi qismi bo'lган «Yashtlar»dagi ko'pxudolik aqidalariga zid o'laroq, uning «Gohlar» qismida yakkaxudolik g'oyalarini targ'ib etgan.

Qadimgi yunon donishmandi Pliniy ta'biri bilan aytganda «bir million qo'shiqdan iborat» bo'lган "Avesto"da din nazariyasi, amaliyoti bilan bir qatorda Movarounnahr va qadimgi Eron xalqlari tarixi, madaniyatiga oid qimmatli dalillar mavjud.

«Avesto»da Markaziy Osiyo xalqlarining olam, kosmos nur sochuvchi sfera va jannatdan iboratdir, degan tasavvurlari o'rinni organ: koinot Yer, okean, osmon bilan o'ralgan. Yer yetti qismdan iborat bo'lib, turlicha iqlim va yil fasllari bilan bog'langan. Osmon to'rt sferadan iborat: birinchisi yerga eng yaqin - yulduzlar (Katta Ayiq, Vega, Sirius, Kanopus). Ikkinchisi - Oy, uchinchisi - Quyosh sferasi, to'rtinchisi - yorug'lik maydoni yoki jannat sferasi. Oy sferasi olti fazaga bo'linadi, ularning har biri besh kundan iborat. Yulduzlar, Oy va Quyosh xudo Axura Mazdaning tanasini o'zlarida gavdalantiradi.

Mazkur kitobda olamda ikkita kuch: yaxshilik va yomonlik kuchlari o'rtasidagi va ularning bir-birlariga qarshi kurashi, yaxshilik kuchlariga xudo Axura Mazda, yomonlik kuchlariga esa xudo Ahriman boshchilik qilishi haqida, insonning hayoti, uning taqdiri, baxti va baxtsizligi shu ikki kuch kurashi bilan bog'liq ekanligi ko'rsatiladi. Asarda kishilar o'z amaliy ishlari va axloqiy fazilatlari bilan yaxshilikka moyil ekanliklari, ular yovuz kuchlarga qarshi kurashda ezgu ruhlarga ko'maklashishlari lozim ekanligi, aks holda, yomonlik tantana qilib, ular abadul-abad azobuqubatlarda yashashi mumkinligi haqida gap ketadi. Bunda kishilarning yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlari va qarashlari ularning amaliy faoliyati bilan bog'langan holda ko'rsatilib, ular kishilar faoliyatini rag'batlantiruvchi, yo'naltiruvchi kuchlar sifatida ifodalananadi.

«Avesto»da Sharq ma'naviy ummoni jamlangan va tizimga keltirilgan holda bayon qilingan. Uning kishilar hayotiga insoniylik,adolat,ezgulik kabi g'oyalarni olib kirishda, joriy qilishda, yomonlik va yovuzlik, vayrongarchilik va zulm, adolatsizlikka qarshi kurashda, kishilarni yaxshilik bayrog'i ostida birlashishda o'ynagan roli benihoya kattadir.

Ayni vaqtida "Avesto" xalqning o'zini-o'zi bilishida, o'zining imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'zining kelajagini belgilay olishidagi aqlini ifodalashda ham insoniyat tarixida katta rol o'ynadi. "Avesto"da ilgari surilgan g'oyalar XIX asrda yashagan va ijod etgan nemis faylasufi Fridrix Nitsshe

tomonidan yangi davrda, Yevropa sivilizatsiyasi nuqtai-nazaridan qaraldi. U o‘zining “Zardusht tavallosi” nomli asarida “Avesto”da o‘rtaga qo‘yilgan kuchli shaxs g‘oyasini kapitalizm sharoitida ruhan zo‘riqqan, individualizm turmush tarzi ikir-chikirlari orasida umumiylaytirish hayot, umumiylaytirish turmush tarzi, madaniyati bilan sug‘orilgan kishilarni yuksaklikka, insoniylikning oliy darajalari sari olib chiqishi mumkin bo‘lgan matonatli irodali va serg‘ayrat shaxs timsolini va bu shaxsnинг ichki dunyosining uning ruhi bilan bog‘liqligi, ruh va iroda musaffoligi jamiyatdagi har qanday mayda-chuydalik tabiatiga ega bo‘lgan ziddiyatlardan uni xalos qilishlik kuchiga ega ekanligini ko‘rsatib berdi.

Zardo‘shtiylik ta’limoti diniy shaklda berilgan, kimki Zardo‘sht ta’limotiga amal qilsa, u yer, suv, yilqi uchun maydon, ayvonli uy, o‘n besh yoshli kelinga muyassar bo‘ladi; kimki o‘z uyida xotini bilan tinch-osoyishta yashasa, ko‘p farzand ko‘rsa, oilasini mehnat qilib boqsa, u pokdomondir.

Zardo‘shtiylikda axloqiy ta’limot uch asosga: “ezgu fikr” (gumata), “ezgu so‘z” (gukta), “ezgu amal” (gvarishta)ga tayanadi. Ezgu fikr - xudo Axura Mazdaning timsoli, yomon fikr esa yovuzlik timsoli Axrimanning belgisi. Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal - inson butun umri davomida amal qiladigan tamoyillar bo‘lib, shu uch xislatga ega bo‘lgan halol mehnat sohibi inson oliy haqiqatga erishadi.

Zardo‘shtiylikda huquqiy qarashlar ham o‘z ifodasini topgan. Kishilarning jamiyatdagi munsabatlarini tartibga solib turuvchi urfodatlar va axloqiy qoidalar Axura Mazda tarafidan ilohiy qonun darajasiga ko‘tarilgan. Huquqiy sohalar jinoyat, fuqarolik, oila, yer-suv huquqi kabilarga ajratilgan. Suv jazosi o‘ta shafqatsiz bo‘lgan. Jazolashda o‘t, qizdirilgan temir, qamchidan keng foydalanimanligi. Bosh hakam Axura Mazdaning o‘zi bo‘lgan.

1.2. Moniylik va Mazdak ta’limotining falsafiy jihatlari.

Biz Markaziy Osiyo qadimiy xalqlarining falsafiy tafakkuri taraqqiyotini o‘rganish uchun «Avesto»dan keyingi manixeychilik bilan tanishishda buning yaqqol guvohi bo‘lamiz, Monixeychilik yoki Moniylik ta’limoti eramizning 3-asrida shimoliy Eronda vujudga keladi. Uning asoschisi Moniyidir (216-276 yilar). Moniychilik, tadqiqotchilarning yozishicha, zardushtiylik va xristianlik hamda buddaviylik ta’limotlari ta’siri asosida Eron shohlaridan sosoniylar humronligi davrida shakllangandir. U bir necha diniy-axloqiy risolalar muallifi bo‘lib, «moniylik yozuvi» nomi ostida yangi alifbo kashf etib, uni tavsiya etgan. Uning orzusi ko‘pchilikni savodxon qilish va hammaga maoqul tushadigan umumiylaytirish yagona dinni yaratish edi. Moniy turmush tarzini o‘zgartirish borasida ham islohotchi bo‘lib, go‘shtni iste’moldan chiqarib, o‘rniga sabzavotlardan tayyorlangan taomlarni ko‘proq yeyishni tavsiya etgan. U mayda hunarmandchilikni rivojlantirish bilan birgalikda kamtarona, faqirlikda

yashashni targ‘ib qiladi. Moniy ta’limotini targ‘ib etish Eron, Markaziy Osiyo, Xitoy, Turkiston bo‘ylab yoyilgan. Uning oshib borayotgan obro‘sidan hadiksiragan zardo‘shtiy kohinlar Moniyni falsafiy bahsga chaqirganlar. Ammo babs bilan chegaralanmay, uni zindonga solganlar va, nihoyat, 276 yili qatl etganlar.

Monyining falsafiy-ilohiy ta’limotida ma’naviy qadriyatlarga katta o‘rin berilgan. Uning fikricha, ikki dunyo - «zulmat va ziyo dunyosi» mavjud bo‘lib, birinchisidaadolatsizlik, zulm, zo‘ravonlik hukm surgan, ikkinchisi abadiy, yemirilmaydigan, doimiy qadriyatlar dunyosi bo‘lgan. Moniy ta’limotida qadimgi zamonning asosiy qadriyatları jamlangan. Ularning umumiyliz tizimi asotir tafakkur (mifologiya), falsafa, koinot haqidagi ilmlar va boshqa ijtimoiytabiiy bilim sohalari bilan bog‘liqda bayon etilgan.

Monyi ta’limotining ozod dehqonlarga qaratilganligi va ular manfaatining g‘oyaviy ifodasi bo‘lganligidan III va undan keyingi asrlarda ham Eron, Markaziy Osiyo, Suriya, Misr va Rum imperiyasining sharqiy viloyatlarida uning g‘oyaviy ta’siri keng yoyilgan edi. Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab buddaviylik ta’limotining tarqilishiga qadar Eronda quvg‘inga uchragan Moniyining maslakdoshlari Markaziy Osiyodan panoh topadilar.

Bu ta’limotga ko‘ra, dunyo nur(ziyo) va zulmatning abadiy kurash maydonidir. Dunyoda insoning vazifasi - shu dunyodagi nur(ziyo)dan bahramand bo‘lib, zulmat (yovuzlik, yomonlik)ga qarshi kurash olib borish.

Monyi o‘z ta’limotida jamiyatdagi kishilarni ikki toifaga bo‘ladi: 1-toifa-mumtoz zodagonlar; 2-toifa-mehnatkashlar ommasi va savdogarlardir. U dunyoni ham ikki dunyoga ajratadi: 1- dunyo-bu odamlar real yashaydigan dunyo bo‘lib, undaadolatsizlik, zulm, zo‘ravonlik hukm suradi. 2-dunyo-bu «Ziyo dunyosi»(«Nur dunyosi») «Ziyo dunyosi» da inson kamolotga erishadi. «Ziyo dunyosi» barcha narsalarni yaratgan, insonni ham yaratadi, shu sababli kishi zulmatdan holi bo‘lishi, o‘z istagicha va o‘z xohish irodasi bilan yashashga harakat qilishi lozim.

Monyilik g‘oyalari Markaziy Osiyoning o‘troq, eng madaniy xalqlaridan bo‘lgan uyg‘urlar dunyoqarashiga katta ta’sir o‘tkazgan. Moniylikning uyg‘ur tiliga qilingan tarjimasi tarzida saqlangan diniy yodgorligi «Xua stuanift» ("Monyilikning tavba namozi") aniq, tushunarli tilda yozilgan va bu asar qadimgi turkiy xalqlar tilda yaratilgan ilk adabiy yodgorlik hisoblanadi. Moniyilik VII asrda Uyg‘ur davlatining diniga aylangan.

Monyi ta’limotiga ko‘ra, inson soflikka, musaffolikka, «gunohlardan holilik»ka harakat qilishi zarur. U o‘z muridlari va shogirdlarini dunyoviy ishlardan bo‘yin tovlamaslikni, duyoda ko‘p narsalarga haddan tashqari intilmasliklarini, o‘rtachalikka; isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslikni, mo‘tadil hayot kechirishga da’vat qiladi. Moniy shunday yozadi: «o‘limdan keyin hech kimsaga ro‘zg‘or asboblari bilan hovli ham, uy ham kerak bo‘lmaydi». «Men o‘z

umrim davomida ko‘p hokimlarni ko‘rdim, ular dunyoda ahloqsizlik qilib, manmanlikka berilib yurdilar, ammo pirovardida alamlarga va tubanlikka duchor bo‘ldilar».

Moniyning ko‘pchilik qarashlari o‘z davri feodal zodagonlariga yoqmagan, ularni qo‘rquvga solgan. Ular Moniy g‘oyalarini tenglikni ilgari suruvchi, barcha mol-mulkni zadagonlar va kambaqallar orasida teng va baravar taqsimlashga da’vat, deb tushunib, uning o‘zini qatl qilishib, uning tarafdarlarini esa quvg‘in qilishadi.

Shunday qilib, moniy ta’limotida diniy-axloqiy qarashlar bilan bir qatorda, falsafiy qarashlar:adolat, ozodlik, axloqiy kamolot haqida o‘z davridagi xalq ommasining o‘y-fikrlari, orzu-umidlari o‘z ifodasini topgandir.

Markaziy Osiyo xalqlari qadimiy falsafiy qarashlarini o‘rganishda eramizning 5-asri oxiri va 6-asr boshlarida Eronda zardushtiylik ta’limotining yangi ko‘rinishi sifatida paydo bo‘lib, so‘ng markaziy Osiyo, Kavkaz va Shimoliy Hindistonda keng yoyilgan mazdakizm yoki mazdakiylilik diniy-falsafiy ta’limoti bilan tanishish ham muhim o‘rin tutadi.

Falsafiy qadriyatlar mavzusining izlari VI asrda yashagan **Mazdak** ta’limotida ham ko‘zga tashlanib turadi. Mazdak aqidasiga ko‘ra, dunyoda sodir bo‘ladigan jarayonlar ongli maqsadga yo‘naltirilgan ezgulik va uning manbai bo‘lgan yorug‘lik bilan ko‘r-ko‘rona va tasodifiy harakat qiluvchi qorong‘ilik (johillik) o‘rtasidagi kurashdan iboratdir.

Mazdakiylilik ta’limoti, aslida, moniylik diniy-falsafiy ta’limotni to‘ldiruvchi diniy-falsafiy ta’limot bo‘lib, uning ildizlari zardushtiylikka borib taqaladi.

Bu ta’limot Mazdak (470-529 yillar) nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u shimoliy Eronning Nishapur shahrida zodagon oilasida tug‘iladi. Mazdak dastlab zardushtiylik dini otashgohlaridan birida kohin bo‘lib, keyinchalik butun Eron bo‘yicha bosh kohin vazifasida ishlaydi. U bunda zardushtiylikka asoslanib o‘zining yangi ta’limotini ishlab chiqadi. Mazdakiylilik ta’limotiga ko‘ra, dunyoda bo‘ladigan hodisalar va voqealar ongli va biror maqsadni ko‘zlab harakat qiluvchi ezgulik va yorug‘lik manbai bilan ko‘r-ko‘rona va tasodifiy harakatlanuvchi qorong‘ilik manbai o‘rtasidagi kurashdan iborat. Bu kurash ezgulik (yaxshilik)ning, yorug‘likning qorong‘ilik (johillik) ustidan muqarrar g‘alabasi bilan tugallanadi.

Shu bilan birga, Mazdakiylilik jamiyatdagi ijtimoiy da’vat etgan Mazdakiylar harakatining mafkurasi sifatida ham xizmat qiladi.

Bu kurash yaxshilikning yomonlik ustidan muqarrar g‘alabasi bilan yakunlanadi. Yaxshilikni barqaror qilish uchun ijtimoiy tengsizlikka barham berish lozim, assosiy yovuzlik - boylikka xirs qo‘yishdir. Bunday ta’limotga

asoslangan Mazdak boylarning mol-mulkini tortib olib, qambag‘allarga bo‘lib berishga boshchilik qilgan. Feodallarning markaziy davlatdan ajrab chiqib, o‘zlaricha mustaqil yashash tamoyillari kuchayganligi sababli, ularning kuchini ommaviy harakat orqali singdirishdan manfaatdor bo‘lgan Eron shohi Qubod I (488-581) avval boshda Mazdakni qo‘llab-quvvatlab, uni butun Eronga qozi qilib tayinlaydi. Mamlakat bo‘ylab xususiy mol-mulkni ijtimoiy tenglik asosida qaytadan bo‘lib chiqish maqsadida talon-taroj qilish boshlanadi. Mamlakatdagi katta yer egalari, amaldorlar va kohinlarning iqtisodiy va siyosiy hukmronligi barbod bo‘lganidan so‘ng, shoh Qubod I Mazdak bilan aloqani uzadi. 529 yili mazdakiylarning inqilobiy harakati bostirilgach, Mazdak qatl etiladi. Ammo uning ta’limotidagi adovat va hasadni yo‘q qilishga qaratilgan tadbirilar, ijtimoiyadolatsizlikka qarshi kurashish muqaddas vazifa ekanligi haqidagi g‘oyalalar jozibakor mafkura sifatida uzoq vaqt yashab qoladi. Keyinchalik bu ta’limot g‘oyalari Eron, Markaziy Osiyo va Ozarbayjondagi dehqon va shahar kambag‘allarining feodallar zulmiga qarshi, keyinroq esa arab istilosiga qarshi ko‘tarilgan Muqanna va Bobek qo‘zg‘olonlarida kurash g‘oyasi bo‘lib xizmat qilgan.

Mazdakiylilik ta’limotiga ko‘ra, jamiyatda ijtimoiy notenglik yuzaga kelsa, yovuzlik va zulmat hukmronlik qiladi. Bu esa kishilar o‘rtasida hasad, g‘arazgo‘ylik, ziqlilik, o‘g‘irlik, makkorlik, shafqatsizlik, urushlar, turlituman baxtsizlikni keltirib chiqaradi. Shu sababli bu illatlarni jamiyatdan bartaraf etish uchun shu notenglikni paydo qiluvchi asoslarning o‘zini yo‘qotish, zarur, deb hisoblaydi.

Mazdakning aytishicha, xudo kishilarga o‘zaro teng taqsimlab olsin, deb, noz-ne’matlarni yaratgan. Biroq, ba’zi xudbin kishilar o‘z manfaatini ko‘proq o‘ylab ish qilishgani uchun bu noz-ne’matlani taqsimlashdaadolat buzilgan. Shu asosda ba’zilar mol-mulkka ega badavlat bo‘lishib, boshqalar kambaqal bo‘lib qolishgan. Shu bois, badavlat kishilardan mol-mulkning bir qimini tortib olib, uni kambaqallarga taqsimlab berish adolatli ish bo‘ladi, chunki kambaqallar ham mol-mulkka ega bo‘lishlari zarur.

Mazdakning bu ta’limotini oddiy xalq ommasi keng qo‘llabquvvatlaydi. Shu sababli u ko‘p joylarga juda tez yoyiladi. Bu davrda ko‘pchilik joylarda dehqon jamoalari va shahar mehnatkashlari ahvoli og‘irligi tufayli mazdakiylilikning bu g‘oyalari ular manfaatdorlariga mos bo‘lib tushadi. Mazdakiylilikning bu g‘oyalari Eron, Ozarbayjon va Markaziy Osiyo xalq ommasi qo‘zg‘olonlarining g‘oyaviy bayrog‘i bo‘lib xizmat qiladi. O‘scha davr feodal zodagonlar mazdakiylilik ta’limotining feodal jamiyati negizlariga putur yetkaza boshlaganligini ko‘rishib, mazdakiylilik ta’limoti tarafdarlarini shafqatsiz jazolaydilar. Mazdakni esa Sosoniylar davlatining podshosi Anushervon tomongan 529 yili qatl qilinadi. Umuman olganda, mazdakiylilik moniylikdan farq qilib, bu ta’limot faqat falsafiy qarashlar majmuasi bo‘lib qolmay, balki

amaliy xarakterga ham ega bo‘lgan, o‘z g‘oyalari amalga oshirishga qaratilgan ta’limotdir. Bu ta’limotning hur fikrlilik g‘oyalari o‘zidan keyin Sharq mamlakatlarida, Markaziy Osiyoda, hatto G‘arb mamlakatlarida ham yuzaga kelgan ozodlik harakatlari bilan bog‘liq falsafiy oqimlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

Shunday qilib, islomning Markaziy Osiyoga kirib kelishi arafasida, ya’ni VII-VIII asrlarda bu yer aholisining aksariyat qismi zardo‘shtiylikning rang-barang shakllariga, mazhablariga, shu jumladan moniylik, mazdakiylik, buddaviylik oqimlariga e’tiqod qo‘yanlar. Shu bilan birga Xuroson va Movarounnahrning ma’lum hududlarida xristianlik, asosan uning nestorian tariqati ham keng tarqalgan.

1.3. Islom falsafiy tafakkurining O‘zbekiston ilm-fan ravnaqidagi ahamiyati.

VII asrda Arabiston yarim orolida vujudga kelgan yangi din -islomning shakllanishi natijasida arab xalifaligi ta’sir doirasidagi mamlakatlar ma’naviy-madaniy xayotida tub o‘zgarishlar sodir buldi. Bu jarayonni asosan islom dinining Arabiston yarim orolida markazlashgan davlat tuzishdagi o‘rni bilan baholash mumkin. Chunki o‘sha davrdagi tarqoq arab kabilalari juda qiyinchilik bilan bo‘lsa xam, fakat islom ta’limoti ta’siri ostidagina birlashgan edilar. Aynan muayyan bir g‘oya ostida shunday birlashish jarayoni kuchli xokimiyatni vujudga keltirdi. O‘z navbatida bu xoqimiyatning boshka hududlarni bosib olishiga kulay short-sharoitlar yuzaga keldi. Arab xalifaligi deb nom olgan bu ulkan imperiya tarkibiga Arabiston yarim orolidan tashkari Yakin va O‘rta Shark mamlakatlarining barchasi, Shimoliy Afrika, Ispaniya, Kavkaz orti davlatlari va O‘rta Osiyo kirar edi.

VIII asrning boshlarida Markaziy Osiyo xalqlarini arablar bosib olib, ular o‘zlarini istilo qilgan bu xalqlarga yangi din-islam dinini zo‘rlik bilan joriy qildilar. Bu davrlarda Markaziy Osiyo hududida Sug‘d, Xorazm, Farg‘ona, Ustrushana, Chag‘aniyon o‘lkalari Sharq bilan G‘arbni Shimol bilan Janubni bog‘lovchi Ipak Yo‘lining markazlardan bo‘lib ular madaniy jihatdan ancha rivojlangan bo‘lishadi. Lekin arablar bu o‘lkalarni bosib olgach, ularni arab xalifaligiga bo‘ysundiradi bu hududlarda o‘zlarining bosqinchilik siyosatini olib borib, mahalliy xalqlarning madaniyati, dirlari, yozuvlari, bilimdon kishilarini butunlay yo‘qotishga harakat qildilar. Arab bosqinchilarining bu hattiharakatlariga qarshi mahalliy xalq vakillari Abu Muslim, Muqanna, Hamza al-Horij, Rafi Ibn Layslar boshchiligidagi xalq qo‘zg‘ololnari bo‘lib o‘tadi. Arab hukmdorlari bu qo‘zg‘ololnarni shafqatsizlik bilan bostiradilar va bu xalqlarga uzilkesil islom dinini singdirib, o‘z hukmronliklarini o‘rnatadilar.

IX-XI asrlar musulmon fani va madaniyati tarixida katta yutuqlar va muxim ilmiy kashfiyotlar davri bulganligidan, bu davrni ba’zi tadkikotchilar Shark fani va madaniyatining “oltin davri” deb e’tirof etadilar. O’sha davrda arab xalifaligi tarkibiga kirgan Mavarounnaxr va Xuroson mintakasi yuz bergan madaniy-ma’rifiy yuksalishni ta’minlovchi va xarakatlantiruvchi asosiy kuchlardan biri edi. Bu xulosa, birinchi navbatda, bu ilmiy yuksalishda ishtirok etgan mutafakkirlarning asosiy kismi ushbu zamin farzandlari bulgani bilan izoxlanadi.

Shuningdek, islom falsafasiga oid muammolarni aniqlashda kuyidagi masalalarni kurib chikish maksadga muvofikdir:

- Islom falsafasining shaqllanishi va rivojlanishiga ta’sir kursatgan omillarni aniklash;

- ratsionalizmning islom falsafasida tutgan o‘rnini va rolini kursatib berish;

- O‘rtalarda kalom ilmi va falsafa o‘rtasidagi uzaro

alokadorlikni urganish;

- Ibn Sino va G‘azzoliy ilmiy merosidagi ratsionalistik masalalarni falsafiy-ilmiy taxlil kilish;

- islom falsafasi gnoseologiyasining zamonaviy taxliliga oid konseptual yondashuvlarning mazmun-mohiyatini ochib berish.

Islom falsafasida gnoseologik masalalar talkinini o‘rganish, uning o‘ziga xos jixatlarini taxlil etish o‘sha davrdagi ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-axlokiy fikr rivoji, uning muxim xususiyatlari, ustuvor yo‘nalishlari, tarakkiyot konuniyatları, turli falsafiy, diniy, tasavvufiy oqimlarning mohiyatini tugri idrok kilishga, bu ta’limotlarning keyingi asrlarda va xozirgi zamonda falsafiy tafakkur tarakkiyotiga ta’sirini chukur anglashga, nazariy va amaliy xulosalar chikarishga yordam beradi.

Ushbu mavzuni o‘rganish orkali ilk o‘rta asrlardagi ma’naviyatimiz ildizlarini, islom falsafasining muxim sohalaridan bulgan kalom ilmidagi bilish nazariyasini har tomonlama chuqur va tarixiylik tamoyili asosida tadkik kilish xozirgi zamon falsafasining nafakat milliy, balki umumbashariy muammolaridan biri sifatida e’tirof etib, uzligimizni anglash uchun yana bir imkoniyat yaratiladi.

“Birlamchi fanlar” deb atalgan, ayniksa uning ratsional kismi hisoblangan fanlarning vujudga kelishi bilan islom dunyosida ko‘proq aqliy mushohadaga murojaat kiladigan bulldilar va shularning natijasi sifatida islom mintakasida “falsafa” alohida fan sifatida paydo bo‘lib, rivojlandi. Bungacha mu’tazila guruhi tufayli haqiqatlarni kashf etish va diniy axkomlarni asoslashga aqliy mushohada va ratsional muxokamalardan foydalanish boshlangan edi. Mu’tazila oqimi islom tafakkuri tarixida ratsionalizm tarafidori sifatida ma’lumdir. Buyuk

vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy X asrda falsafaga quyidagicha ta’rif berган edi:

“Mavjudot haqidagi bilim kulga kiritilsa, shu xakda ta’lim berilsa, mavjudotdan bulgan narsaning zoti bilinsa, narsaning ma’nosи tushunilsa, ishonchli dalil-xujjatlar asosida shu narsa haqida miyada bir turli ishonch va tasavvur paydo bo‘lsa, mana shu ma’lumotga doyr fanni falsafa deymiz”.

Haqiqatan ham “falsafa vokelikdagi barcha narsa va xodisalarning eng umumiy alokadorligi va rivojlanish konuniyatlarini, ularning tub moxdyatini biliшga karatilgan fandir”.

Forobiyning ulug‘ xizmati fasat uning falsafani chukur anglab yetganida va yangi g‘oyalar, fikrlar bergenidagina emas, balki din va falsafa orasidagi munosabatlarni sat’iy va anik ifodalagani hamda bu ikki sohaning insonlar ongida birga yashashi mumkinligini uyg‘unlashtirib isbotlab bergenligidadir.

Forobiy denga jiddiy munosabatda bo‘lib, shariatning botiniy mohiyatiga falsafiy ma’no berdi.

Forobiy o‘zining “Al-xuruf” (Yuklamala) asarida shunday deydi: “Agar din barcha umumiy jixdtlari bilan takomillashadigan falsafaga itoat etsa, unda u haq va to‘g‘ridir. Ammo agar din to‘g‘ri tahliliy falsafa hali shaqlanmay, balki xalk tafakkuri, g‘oyasi bulgan ritorika (balog‘at san’ati, so‘zamollik), dialektika (baxs) va sofistika (xar kanday vosita bilan bo‘lsa xam raqibni suzda lol koldirish) bilan band bulgan davrda paydo bo‘lsa, bunday falsafaga buysungan din xam yolg‘on va xatolardan xoli bo‘lmaydi. Kup xollarda u boshidan oxirigacha notugri bo‘lib chikadi. Falsafa denga nisbatan xam birlamchi mavketa ega, chunki falsafa - mag‘z, din - po‘stloq, aniqrogi - falsafaning quolidir”.

Uning fikricha, din juda katta axamiyatga ega. Zero, bir tomonidan uning moxiyati yana o‘sha oliy falsafadir, boshka tomonidan esa shariat insoniyat jamiyati mavjudligi va ijtimoiy tartib barkarorligi uchun falsafa singari zarur. Forobiy uchun asosiy tayanch analitika (taxlil va tadkik)ga kurilgan falsafadir. Uningcha, din bilan falsafa birdir. Faqat falsafa - xoslarga tegishli, dinning tili esa xoslarga ham, avomga xam tushunarlidir.

Forobiy fikricha, payg‘ambarlar va faylasuflar bilimlarining manbai bittadir. Faylasuf faol aql bilan qo‘silib, haqiqatni biladi, Payg‘ambar esa - haqiqatning in’ikosi bulmish vaxiy orkali biladi. Din esa vaxiy asosidagi haqiqatdir. Din va falsafa - xar ikkisi xam bilim va mushoxadadir, fark shundaki, din soddallashtirilgan falsafadir. Boshkacha ibora bilan aytganda, din va falsafa yagona birlikning ikki xil jixatlaridir. Falsafa daliliy xukmlarning koidalariga tayanadi, din esa unta xukmlar va koidalarning xitobiy shaklidir. Uning din va falsafaning yagona birligi haqidagi muloxazalariga karamasdan, keyinchalik, Forobiy falsafani dindan afzalrok va ustunrok kuiganligiga urg‘u bera boshladilar. Ba’zilar, jumladan andaluziyalik faylasuf Ibn Tufayl uni bu

masalada keskin tanqid kildi. Andaluziyalik faylasufning daliliga kura, Forobiy faylasuf darajasini guyo payg‘ambarlikdan xam yukorirok qo‘ygan. Ammo, Forobiy “Din falsafaning misollaridir” deganda payg‘ambarxalqtilida so‘zlashishga majbur ekanligini xam alohidakayd etib o‘tadi. Chunki, omma daliliy xukmlarni tushunmaganligi sababli, daliliy haqiqatlarni xitobiy shaqlida bayon etishdan uzga imkoniyat yuk- Binobarin, payg‘ambarham faylasufdir. Forobiyning fikriga kura, avomning diniy karashlari, uning falsafiy xulosalariga doim ham moye tushavermaydi va buning zaruriyati xam yuk- Shuning uchun u o‘z fikrlarini bevosa avomga moslashtirmagan edi. U avom meni tushunadi, deb xam uilamagan va aksincha bundan xavotir xam olganki, uningcha “avomning falsafaga aralashishi, uni buzadi”.

Forobiy fikricha, inson o‘zining tabiiy holatida kamchilikka ham, kamolotga ham ega emas. Bu yerda Forobiyning mazkur xulosasidan kelib chiqadigan o‘ta muhim narsa shundaki, u fazilatni “bir yaxshi amal” ma’nosida ta’riflamaydi. Uning fikricha, fazilat xayrli amalning inson ruhidagi “in’ikosi” va “natijasi” bo‘lgan ruhiy vakillikdirki, yaxshi odatlar, xayrli ishlar va sharafli xattiharakatlarning takrorlanishi ta’sirida kelib chiqadi. Xuddi shuningdek, razolat va kamchiliklar ham ruhda o‘z izini qoldiradigan yomon amallar va ko‘ngilsiz ishlarning takrorlanishi oqibatida kelib chiqqanlar. Uning fikricha, barcha fazilatlarning maqsadi ruhiy xayrixohlikdir. Forobiyning dalili shundaki, modomiki, barcha ruhiy quvvatlar xayrda to‘planar ekan, ular orasidagi ixtilof va qarama-qarshiliklarga o‘rin qolmaydi. Ammo ular o‘rtasidagi osoyishtalik qachonki buzilsa, ruhda sharr, yomonlik va buzg‘unchilik alomatlarini axtarib topish kerak bo‘ladi. Demak, Forobiy fikricha, baxt-saodat laziz va razolatli narsalardan o‘zini tiyish evaziga inson uchun berilgan mukofot emas, balki, ulardan qutulishning natijasi va oqibatidir.

Shunday qilib, fazilat va baxt-saodat o‘rtasidagi sabab va oqibat nisbati dalilidan Forobiy shunday natija chiqaradiki, baxt-saodat fazilatga tashqaridan yopishtirilgan yoki yuklangan amal bo‘lmasdan, balki uning o‘z jinsidan va zotning umumiyligidan chiqqan sifatiy holatdir.

Forobiy yashagan vaqtida zaruriyat yoki zo‘rlik haqidagi nazariya ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan hisoblanar edi. Forobiy shu vaqtgacha qo‘llanilmagan “ixtiyor” istilohini ilmiy adabiyotga olib kirish bilan, insonning iroda erkinligi uning taqdiriga ta’sir etishi mumkinligi masalasini o‘rtaga tashlab, haqiqatda keng yoyilgan nazariyaga ochiqdan-ochiq qarshi chiqdi. U bunday fikrni yoyish bilan, kishilarni shunga da’vat etdiki, inson tabiiy, irsiy, sinfiy to‘siqlarga qaramasdan o‘z bilganicha, o‘zini qaytadan shaqlantirishi va siyosiy nuqtai nazardan ham madaniy jamiyatning “yetuk” va “barkamol” a‘zosi bo‘lishi mumkin.

Forobiy inson mohiyatini tarbiyalashni uzoq muddat davom etadigan yaxshi amal, deb bildi. Uning fikricha, har qanday yaxshi axloq, agar zehnda

takroran joylana bersa, uning natijasida inson ongining quvvati va fazilati orta boradi.

Madaniy jamiyatning sifati mohiyatan iroda va ixtiyorda bo‘lganligidan jamiyat boshlig‘ining vazifasi ushbu irodani xayr (yaxshilik) tomon yo‘naltirishdir.

Forobiy fikricha, siyosat tabobat sifatidagi narsa bo‘lib, jarrohlik yo‘li bilan bo‘lsa ham davolanishi zarur bo‘lgan fuqarolarning dardiga malham qo‘yishdir. Tabibning maqsadi bemorning dardini davolash bo‘lganidek, fozil siyosatning ham oxirgi maqsadi jarohatlarga malham qo‘yish, singan suyaklarni payvandlash singari aholining farovonligini ko‘tarish orqali uning ruhini va salomatligini yaxshilashdir.

Forobiy axloqiy fazilatlarni ruh uchun badan salomatligidek narsa, deb tushungan. Demak, sihat-salomatlikni tiklash uchun inson tabibga ehtiyoj sezganidek, bemor insonning ruhi uchun ham tabib zarurdirki, uni holatini davolay olsin. Shundan kelib chiqadiki, qonuniy hukumat raisining bo‘lishi jamiyat uchun isbot qilingan zaruriyatdir.

Forobiyning fozil shahar to‘g‘risidagi o‘z nazariyasini taqlif qilishdan maqsadi, barcha insonlarga baxt-saodat va kamolotga erishish yo‘llarini ko‘rsatib berishdan iborat edi.

Kalom ikki asr davomida lovullab turgan ilmiy sohadagi baxslar alangasini uchirishi oson emas edi. Kalom va tasavvuf islom falsafasining tarkibiy kismlari sifatida maydonga chiqdi. Bu nazariy maktablar islom falsafasini yaratishga shart-sharoit yaratdilar.

Forobiy falsafasining inkor etib bo‘lmaydigan joyi shundaki, u nazariy falsafani haqiqiy va asosiy ilm, deb bilib, kolgan barcha fanlarni unga tobe bulgan ikkinchi darajali soxalar maqomiga qo‘ydi. Uning fikricha, falsafadagi masalalar isbotini payg‘ambarlar ramzlar shaqlida bayon kilganlar, zero, moxiyat jixatidan falsafa bilan din o‘rtasida xech kanday tafovut yuk. Bunday karash o‘z davrida nihoyat darajada muvaffakdyat kozonib, islomiy falsafaning asosi va usulini belgilab beruvchi fikrlash tarziga aylandi. Shuning uchun ham Forobiyning ma’lum ma’noda islom falsafasining muassisasi degan fikrlar yuk emas.

«Moturidiya» nomli asarda keltirilishicha tadqiqotchi doktor Muxammad Ayyub Ali taxminiga kura hijriy 238 melodiy 870 yil tavallud topgan. Mazkur extimolning sababi Moturidiyning ikki ustozи vafoti sanasiga alokador bo‘lib ulardan biri Muxammad ibn Mukotil ar-Roziy xijriy 248 melodiy 880 yili, ikkinchisi Nasr ibn Yaxyo Balxiy xijriy 868 melodiy 898 sanada vafot etganidadur. Shu nuktai nazardan Moturidiy hijriy 248 melodiy 880 yillari 10 yoshdan kichik bulishi extimoldan uzoqligidur.

Abu Mansur Moturidiy Samarkandda xijriy 333 milodiy 944 -945 yillari vafot etgan va shaxar chekkasidagi Chokardiza degan kabristonga dafn etilgan.

Moturidiy islam olamida ta’limoti keng tarkalgan kalom maktablaridan biriga asos solgan olim sifatida islomiq qarashlarni tarqatishda katta o‘rin tutadi¹.

Abul Mansur Moturidiy ilmga rag‘bat, dinga kursatgan ko‘magi, akidani ximoya kilishdagi ulug urinlari va kudratlarini kursatib turadigan bir kancha lakablar bilan tanilganlar. Jumladan, “imam al-xuda” (tugri yul imomi), “imam al mutakalimiyy” (mutakallimlarning yetakchisi), “raisu axli-sunna va-l-jamoa” (axli-sunna va-l-jamoa 9 yunalishining raxbari), “imam az-zoxid” (xudojuy imom) va boshka nomlar bilan e’zoz topganlar².

Abdulloh Muroiy uzining «Fatxul mubiy fiy-tabakrtul usulii» kitobida shunday deydi: «Abu Mansur kuchli xujjatli, baxsda golib, musulmonlar akidasini ximoya kiluvchi, daxriylarni shubhalariga raddiya bildiruvchi kishi edi»².

Shunga karamasdan Moturidiyning shaxsi va uning ta’limoti tarih tabakrt, aqida kitoblari mualliflari e’tibordan chetda qoldi, jumladan Bag‘dodiyning (v 429/1037) «Al-fark bayna-l-firok», Ibn Xazmning (v 456/1064) «Al-fasl», Isfaroniyning «Tafsir» kitoblarida Ash Shaxristoniyning (v 548/1153) «Al-milal va-n-nihal» kitobida Moturidiyning shaxsi va Moturidiylik zikr etilmaydi. Ibn Nadimning «Fixrist», Ibn Xalkonning «Vafoyot al-Ayon», Samoniyning «Ansob» kitoblarida Moturidiyning yurti hakida zikr kilinib: «Bu joyda bir guruh fozillaru - olimlar yetishib chikkan» deyiladi. Birok mazkur mualliflarning barchasi Moturidiyni e’tibordan tushirib qoldirishadi.

Imom as-Suyutiy xam «Tabakrt al-mufassirin» kitobida «Ta’vilot axli-sunna»dek ma’lum va mashxur tafsir yozgan Moturidiyni e’tibordan chetda qoldirgan.

Hanafiylikka oid tabakot janri dastlabki mualliflaridan bulgan Abdulkodir bin Muxammad Kurashiy Hanafiyuning “Javahir al-muziya fiy tabaqot-il-hanafiya” kitobida Moturidiy haqida hatto 10 katorga yetmaydigan juda oz ma’lumot bergen.

Moturidiy islam davlatining sharkiy mintakasida dunyoga keldi. Ma’lumki islam davlatining sharkiy kismi Abbosiylar xalifaligi sultanatiga mustahkam boglangan edi. Xalifa mutavakkil vafotidan sung ko‘plib ukalar Abbosiylar xalifaligi sultanatidan mustakillikka chiqdilar sharkiy ukalar ham shular jumlasidan bo‘lib, Movarounnaxr diyoridagi Somoniylar davlatini kursatib utishimiz mumkin.

¹ Мотуридий. Таъвилот аҳл ас-сунна. / Фотима Юсуф ал-Хаймий таҳрири остида./ -Байрут: Myaccacat ар-Рисала Наширан, 2004. -5 жилдли. -Б.30. (Бундан кейин: Таъвилот) ² Ал-Мотуридия. -Б 98.

² Мавсуют ал-Муяссара. -Б. 99.

Moturidiy o‘z ta’limotini an’analarini va ilmiy asarlari bilan Movarounnahr ilohiyot maktabi rivojlanishiga katta ulush qo‘shti. Ilohiyt ilmlari to‘la shaqlanib kamol topishiga xizmat qildi. Ularni qayta ishlab chiqib, ma’lum tizimga solishdek bir ishni amalga oshirdi va xanafiy talimotini O‘rta Osiyo xalqlarining urf-odatlari bilan bog‘liqligini o‘z qarashlari orqali ko‘rsatib berdi. U yaratgan ta’limot islom dinining buyuk aqidaviy oqimidan biri sifatida tanildi.

Mashhur turk olimi Toshkubrozodaning ta’kidlashicha: «Axli-sunna val jamoa»da kalom ilmi raislari ikki kishi bo‘lib, ulardan biri Xanafiy ikkinchisi Shofi’iydir. Xanafiy Abu Maysur al-Moturidiy Shofi’iy esa Abul Hasan Ash’ariydir.

Moturidiyning “Ta’vilot al-axli sunna” yoki “Ta’vilot al-Qur’on” nomi bilan tanilgan tafsiri bo‘lib, u zod haqida yozganlarning barchasi bu kitoblarni eslab utishadi. Mazkur kitob Moturidiya akidasida ma’lum-u mashxur kitob bo‘lib, Moturidiya aqidaviy yunalishidagi kishilar uchun bu tafsir avvalda xam, keyin xam bemisl deb sanalgan.

“Kitob at-tavhid” Moturidiyning bu kitobi kalom ilmiga oid asarlarining eng axamiyatga molikligi xisoblanadi. Zero, bu asarda u zotning kalom ilmiga tegishli karashlari karor topgan va yana eng muxim e’tikrdiy masalalarni bayon kilgan. Shu boisdan “Kitab ut-Ta’viy Moturidiya akidasini tanitgan asosiy manbara aylandi. Moturidiylik aqidaviy yunalishida Abu Mansur Moturidiydan so‘ng kelgan kishilarni barchasi u kitobga tayanishadi. “Kitob at-tavhid” yana shuningdek turli islomiy guruxlar xususan Mu’tazila karashlari zikr etilgan kalomga oid manbalarning dastlabkilaridan hisoblanadi.

Buyuk faqih Ali ibn Abu Bakr ibn Abd ul-Jalil al-Farg‘oniy ar- Rishtoniy al-Marg‘inoniy 1123 yil 23 sentabrda tug‘ilgan, 1197 yilda vafot etgan. U Qur’on, hadis ilmlarini mukammal egallab, fikx-isлом huquqshunosligi borasida bilimga ega bo‘lganligi va bu sohada beqiyos durdonalar yaratganligi tufayli Burxon ud-din va-l-milla (Milla deganda xalq, ya’ni musulmonlar tushuniladi. Bu yerda olimni ulug‘lab, uni islom olamidagi xalqlar hamda islom dinining dalili, isboti leyilmoxchi) va Burhonuddin al-Marg‘inoniy (Marg‘inon-Marg‘ilon shahrini o‘rta asrlarda arablar Marg‘inon deb atashgan) nomlari bilan mashhurdir.

1149 yili Burhonuddin al-Marg‘inoniy haj safariga bordi.

Burhonuddin al-Marg‘inoniy islom dinidagi sunniylarning to‘rtta asosiy mazhabi asoschilarining asarlarini o‘rganish bilan birga o‘zi ham fiqhga oid bir qator asarlar yaratgan. Bizgacha yetib kelgan asarlaridan «Bidoyat al-muntahiy» («Boshlovchilar uchun dastlabki ta’lim»), «Kifoyat almuntahiy» («Yakunlovchilar uchun tugal ta’lim»), «Nashr ul-mazhab» («Mazhabning yoyilishi»), «Kitob ul-mazid» («Ilmni ziyoda qiluvchi kitob»), «Manosik ul-haj

(«Haj marosimlari»), «Majma ul-navozil» («Nozil bo‘lgan narsalar to‘plami»), «Kitob ul-faroiz» (« Farzlar kitobi») va boshqalar ma’lum.

«Hidoya»da huquqiy masalalarning yechimi dastlab yirik fikh olimlari fikrlarining bayoni va unga boshqa mualliflar e’tirozlar yoki qo‘shilishlarini izhor etish yo‘li bilan berilgan. Ana shu obro‘li mualliflar fikrlaridan kelib chiqib, muayyan masalada eng ma’qul yechimni tanlab olish yo‘liga amal qilingan. Shu tariqa unda qonunning aynan ifodasigina emas, balki uning mukammal sharhi ham asoslab keltirladi. «Hidoya» to‘rt juzdan iborat bo‘lib, birinchi juzga ibodat masalalari kiritilgan, bular: taharat, namoz, ro‘za, zakot va xaj kitoblaridir. Ikkinci juzga nikoh, emizish, taloq, qullarni ozod qilish, topib olingan bolani nasabini aniqlash, topib olingan narsa, qochib ketgan qullar, bedarak yo‘qolganlar, sherikchilik va vaqf mulki kabi masalalar kiritilgan. Uchinchi juzda esa: oldi-sotdi, pul muammolari, kafolat, pulni birovga o‘tkazish, qozilarning vazifalari, guvohlik, berilgan guvohlikdan qaytish, vakolat, da’vo, iqror bo‘lish, sulx, bir ishda pul bilan sherik bo‘lish, pulni saqlashga berish, qarz berish, sovg‘a, muayyan shart asosida cheklangan ozodlik berilgan qullar, voliylik (patronat), majbur qilish, homiylik, qisman ozod bo‘lgan qullar va bosqinchilik xususidagi masalalar o‘rin olgan.

To‘rtinchi juzda esa: shafoat, meros taqsimlash, dehqonchilik hamda bog‘dorchilik xususida shartnomalar, qurbanlikka so‘yiladigan jonzod haqida, umuman qurbanlik qilish haqida, shariatga zid yomon narsalar haqida, tashlandiq yorlarni o‘zlashtirish xususida, taqiqlangan ichimliklar haqida, ovchilik, garovga berish, jinoyatlar xususida, xun haqi to‘lash, vasiyat kabi masalalar yoritilgan.

«Hidoya» bir necha asrlar davomida ko‘p musulmon mamlakatlarida, jumladan, O‘rta Osiyoda ham huquqshunoslik bo‘yicha eng asosiy qo‘llanma hisoblanib, bu yerda 1917 yil inqilobidan keyin ham, to 30-yillargacha shariat qozilari bekor qilinib, sovet sud sistemasi joriy qilinguncha, amalda bo‘lib keldi.

Hozirgi kunda ham islom shariati asosida ish yuritadigan musulmon mamlakatlar huquqshunosligida bu asardan keng foydalilanadi.

2-Mavzu. IX-XII ASRLARDA UYG‘ONISH DAVRI FALSAFASI.

Reja:

2.3. Markaziy Osiyoda tarixiy shart-sharoitlar va hozirgi O‘zbekiston hududida tabiiy-gumanitar fanlar taraqqiyoti.

2.4. Tasavvuf tariqatlarining ijtimoiy-falsafiy fikr rivojidagi o‘rni.

2.1. Markaziy Osiyoda tarixiy shart-sharoitlar va hozirgi

O‘zbekiston hududida tabiiy-gumanitar fanlar taraqqiyoti.

Abbosiyalar davrida Bag‘dod shahriga asos solinib, u xalifalikning siyosiy markazi bo‘libgina qolmay, balki sultanatning iktisodiy, ma’naviyma’rifiy, ilmiy markaziga aylantirilgan edi. Abbasiy xalifalar Mansur (754-776), Xorun ar-Rashid (786-809) va Ma’mun (813-833) davrida ilmma’rifatga katta e’tibor berilgan. Masalan, yirik ilmiy markazga aylangan “Bayt al-xikma”ga asos solinib, bu joyda o‘z davrining mashxur olimu faylasuflari, tabib, munajjim, musiqachi, me’mor, muhandislari to‘plangan edi. Bu davrda arablar, yaxudiylar, nasroniyalar, forslar, movarounnaxrlik va xurosonliklar tomonidan yahudiy, yunon, suryoniy, fors, xind va boshka tillardagi riyoziyot, falakiyot, mantik, alkimyo, handasa, tarih tibbiyot fanlariga oid madaniy, ilmiy-falsafiy asarlar arab tiliga tarjima kilingan. Kadimgi yunon faylasuflari Ptolemeyning “Almajistiy” (Almagest), Yevklidning xandasa (geometriya), Aflatun va Arastuning kator asarlari arab tiliga o‘girildi. Ayniksa, Arastuning mantiqqa oid asarlarining tarjima kilinishi Bag‘dod ziyolilari dunyokarashining butunlay o‘zgarishiga olib kelgan edi.

Arab xalifaligi davrida O‘rta Osiyoni Toxiriylar (821-873), Safforiylar (873-904), Somoniylar (875-999), G‘aznaviylar (977-1186), Qoraxoniylar (999-1212) va Xorazmshoxlar (1077-1231) kabi sulolalar boshqargan. Saljuqiylar (1033-1300) XII asrning boshlariga kelib, bugungi O‘rta Osiyo hududini butunlay o‘z nazorati ostiga oladilar.

Ma’lumki, saljuqiylar sulolasiga ilgarigi mavkei yo‘qolgan xalifalikni boshkarayotgan Bag‘dod xalifasining rasmiy xukmronligini saqlagan holda, amalda markazlashgan davlatning dunyoviy ishlarini boshqarar edilar. Saljukiy Malikshoh davrida uzoq vaqt vazirlik kilgan fan xomiysi Nizomulmulk Abu Homid G‘azzoliy va Maxmud az-Zamaxshariy kabi olimlarni xam qo’llab-kuvvatlagan. U Bag‘donna rasadxona ishini rivojlantirib, mashhur falakshunos olimlarni tuplaydi. Nizomul Mulk tashabbusi bilan Buxoro, Xirot, Nishapur, Samarkand, Bag‘dod kabi shaxarlarda “Nizomiya” nomidagi madrasalar ochilgan. Ushbu davr ilm-fan tarakkiyotining e’tiborli tomoni shundaki, kupgina olimlar o‘z soxalarida yangiliklarga asos soladilar. Masalan, birinchi bo‘lib, Umar Xayyom takvimiga tuzatish kiritadi. Aynikea, bu davr arab va fors adabiyotining taraqqiyot davri bulgan. Umuman olganda, ijtimoiy-iktisodiy, siyosiy jabxalarda ko‘plab o‘zgarishlar falsafa, tabiiy-ilmiy bilimlar rivojida

muxim obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarni vujudga keltirgan. O‘z navbatida Movarounnaxr diyorida xam ilm-fan ravnaki uchun kulay imkoniyatlar yaratilgan. Aytish mumkinki, bunday imkoniyatlar XX asrning boshlarigacha xech vaqt vujudga kelmadi. Bu muammo butun Yakin va O‘rta Sharqqa, hatto Xitoy va Xindistonga xam xos xususiyatdir.

X asrning oxiri-XI asrning boshlarida Xorazmda ilm-fan, madaniyat va san’at kuchli rivojlanadi. Bunda Xorazmshohlarning avlodlaridan bo‘lgan shoh Ma’mun boshchiligidagi Markaziy Osiyoda birinchi akademiyama’mun akademiyasi tashkil topib unga Abu Rayhon Beruniy boshchilik qiladi. Bu akademiyaga shu davrning buyuk olimlari, xususan, Abu Ali Ibn Sino ham jalg qilinadi.

Markaziy Osiyo va butun Yaqin va O‘rta Sharqda tabiiy-ilmiy bilimlar va falsafiy tafakkur taraqqiyotiga Abu Nasr Forobiydan keyin Ibn Sino bilan bir davrda Abu Rayhon Ahmad Beruniy (973-1048) katta ta’sir ko‘rsatdi.

Abu Rayhon Beruniy ilmiy ishlarining serqirraligi, fikriy parvozining yuksaqligi bilan kishini hayratda qoldiradigan buyuk dahodir. U bir yuz ellikdan ortiq asar yozgan o‘rta asrning ulug‘ allomasi (ensiklopedisti)dir.

Abu Rayhon Beruniy hijriy 362 (mil. 973) yilning 2-zulhijja oyida Xorazmning ilk markazi Kat (Qiyot) shahri atrofida dunyoga keldi. U o‘z tug‘ilgan maskanida yaxshi ta’lim oldi, ilk yoshligidan ilmiy ishlarga berilib ketdi. O‘sha paytda Xorazmda yuz bergan siyosiy tanglik sababli o‘z vatanini tark etdi va, taxminan, 998 yildan to 1004 yillar mobaynida Kaspiy dengizining janubiy-sharqiy chekkasidagi Jo‘rjon (Gurgon)da yashadi. Shu yillari o‘zining yirik asari – “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kitobini yaratdi. Bu kitobning rus tiliga qilingan tarjimasi 1957 yili va o‘zbek tilidagi tarjimasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyotida alohida-alohida kitob bo‘lib, bosilib chiqdi.

1005 yili Beruniy Xorazmga qaytib keldi va Xorazmshoh Abu Abbas Ma’mun (1009-1017) saroyida hurmatli martabani egalladi. 1017 yili Mahmud G‘aznaviy (998-1030) Xorazmni o‘ziga bo‘ysundirgach, Beruniy boshqa olimlar qatori poytaxt G‘aznaga olib ketildi va umrining oxirigacha o‘sha yerda yashadi.

G‘aznada Beruniy ilmiy ishlarga berilib ketdi. Sulton qo‘sishlari bilan birga u bir necha bor Hindistonda ham bo‘ldi. Shu paytlarda bu o‘lkani atroflicha o‘rganishga kirishdi, natijada, 1030 yili Hindiston haqida ajoyib asar – “Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limotlarini aniqlash kitobi” (qisqacha “Mo‘lanhind” – “Hindiston”)ni yaratdi (Bu asar 1963 yilda rus tilida “Fan” nashriyotida nashr etildi). Bundan oldinroq, 1025 yili esa “Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning chegaralarini aniqlash” (qisqacha “Geodeziya”) asarini yozib tugatgan edi.

Mahmudning vorisi sulton Mas'udga (1030-1041) Beruniy o‘zining matematika va astronomiyaga oid eng yirik asari – “Qonuni Mas’udiy”ni bag‘ishladi. Undan keyingi sulton Mavdud (1041-1048) davrida Beruniy mineralogiyaga oid asari – “Qimmatbaho toshlarni bilib olish bo‘yicha ma’lumotlar to‘plami” (qisqacha “Mineralogiya”) ni, umrining oxirida esa “Dorivor o‘simliklar haqida kitob” (qisqacha “Saydana”) asarini yozdi.

Beruniy hijriy 440 yilning 2-rajabida (mil. 1048 yil, 11 dekabr) G‘aznada vafot etdi.

Beruniy o‘z davrida tajribaviy bilimlarni puxta egallagan olimlardan bo‘lib, bu uning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarining muayyan tomonlarini aniqlovchi muhim omillardan hisoblangan.

Beruniy borliq dunyo yaratilganmi yoki yo‘qmi, degan savollarga dunyo yaratilgan, deb javob beradi. Uning qarashlarida namoyon bo‘lgan ikki qaramaqarshi g‘oyalar, ya’ni bir tomondan, dunyoning yaratilganligini inkor eta olmaslik, ikkinchi tomondan esa, tabiatni mustaqil deb bilih, Beruniyning tabiatshunos sifatida dunyoni va tabiatni tushunishda ma’lum darajada deistik (xudo dunyoni yaratib qo‘yib, boshqa uning ishlariga aralashmaydi) yo‘nalishga moyilligini ko‘rsatadi. Xudo dunyoni butunligicha yaratadi va unga azaldan ma’lum qonunlarni beradi. Ana shu qonunlar tufayli tabiiy kuch, ya’ni tabiat harakat qiladi. Lekin keyinchalik Beruniy hatto deizm qobig‘ining torligini sezadi va moddiy dunyoning abadiy mavjudligini tan olishni zarurligini his etadi. Bu fikrning isbotini u Qur’ondan ham topadi. O‘sha davrdagi tabiatshunoslik fanida erishilgan yutuqlar uni Arastuning tabiat falsafasiga tanqidiy yondoshishga, shuningdek, uning zaif tomonlarini farqiga borishga olib kelgan. Bu uning Ibn Sino bilan yozishmasida o‘z ifodasini topgan. Ularning bu yozishmali asosan Arastuning “Fazo haqida” va “Fizika” asarlari bo‘yicha olib borilgan.

Bu yozishmada Ibn Sino Arastuning tabiat falsafasini himoya qilgan. Beruniy esa Ibn Sinoga e’tiroz bildirgan. Ularning bahsi asosan Arastu tabiat falsafasining muhim masalalaridan biri – jismlarning cheksiz bo‘linishi bo‘yicha bo‘lgan. Bu borada Beruniyning Ibn Sinoga qarshi chiqqanligini ko‘rgan ayrim mualliflar uni Demokrit atomizmining tarafldori degan xulosaga kelganlar. Lekin Beruniy bu masalaga birmuncha jiddiyroq qaragan. U bo‘linish muammosini hal etishda shunday yo‘lni topishga harakat qiladiki, ikki ta’limot – atomistik va cheksiz bo‘linishning o‘ziga xos qarama-qarshiliklarini va cheklanishlarini bartaraf etishga intiladi.

Beruniy atomistik nazariyasini Demokrit atomistik nazariyasidan farqi shundaki, Abu Rayhon bo‘shliqni inkor etsa, Demokrit bo‘shliq – dunyoning zaruriy ajralmas qismi, deb hisoblaydi.

Beruniy Arastuni tanqid qilishda dastavval tajribaga murojaat etadi. Uning bu yo‘li Arastuning kuzatuvchilik usuliga qarshi qaratilgan edi. Shunday qilib, Beruniy jismlarning cheksiz bo‘linuvchanligini tan olish va bo‘linmas zarrachalar to‘g‘risidagi atomistik ta’limotning cheklanganligini ko‘rsatishga intiladiyu, biroq bu muammoni to‘liq hal qila olmaydi. Shunga qaramay, masalaning bunday qo‘yilishining o‘zi ham mutafakkirning katta yutug‘i bo‘lgan.

Beruniy barcha unsurlar, shuningdek, og‘irroq unsurlarning boshqa unsurlardan oldin markazga intilishi to‘g‘risida gapirib, “Hamma unsurlar markazga qarab intiladi, lekin vazminroqlari boshqa unsurlardan o‘zib ketadi”, deb ta’kidlaydi. Beruniy “Hindiston” asarida unsurlarning Yerga oddiy intilishi to‘g‘risida emas, balki barcha og‘irliklarning Yer markaziga tortilishi haqida fikr yuritadi. Beruniyning Ibn Sinoga bildirgan e’tirozlarida muhitning og‘irligini e’tirof etishi bu fazo jismlari bilan Yer o‘rtasidagi tortilish kuchlari borligini tan oladigan fikrga yaqinlashganligini ko‘rsatadi.

Beruniyning boshqa dunyolar mavjudligi to‘g‘risidagi tahmini uning falsafiy yutuqlaridan biri hisoblanadi. Beruniy boshqa dunyo haqida fikr yuritar ekan, boshqa moddiy dunyo ehtimol bizning dunyomiz singari tabiiy xususiyatga ega bo‘lib, “harakat yo‘nalishlari esa, bizning dunyomizdagi harakat yo‘nalishlaridan farq qiladi”, deydi.

Buyuk tabiatshunos Beruniy o‘zining salaflari, xususan, Ahmad Farg‘oniy va Muhammad Xorazmiy ishlab chiqqan bilishning ilmiy usulini rivojlantirib, yanada chuqurlashtirdi. Uning aytishicha, “Kuzatishning ko‘pligi ko‘rilgan narsalarni eslab qolish qobiliyatini yaratadi”. Beruniy o‘zining o‘gitida: “Biliming shundayki, u yalang‘och bo‘lsang ham o‘zingda qoladi, uni hammomga kirganingdagi xo‘llik ham yo‘qota olmaydi”, -deydi. Beruniy inson xotirasini “Allohning tuhfasi”, deb hisoblaydi. U “tirishqoqlik va ko‘p shug‘ullanish bilan ham xotirani mustahkamlash mumkin”, -deydi.

Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqda tajribaga tayanuvchi fanlarning asoschilaridan bo‘lgan Beruniy tabiat hodisalarini bilishdagi nazariymantiqiy xulosa, qiyoslashning ahamiyatini benihoya katta ekanligini uqtirib o‘tadi. Beruniy tarixiy hodisa va voqealar haqiqatini bilishga taalluqli hamma masalalarni har taraflama o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi va bu bilan noto‘g‘ri yo‘lga tushib qolishdan ehtiyyot bo‘lishga chaqiradi. U shunday yozadi:

“Xabar ko‘z bilan ko‘rgandek bo‘lmaydi, degan kishining so‘zi juda to‘g‘ridir. Chunki ko‘rish ko‘ringan narsaning o‘zi bor paytida va o‘z joyida turganida qarovchi ko‘zining uni uchratishdan iboratdir. Xabarga yolg‘onyashiqlar qo‘silmaganda, u ko‘rishga nisbatan ortiqroq o‘rinda turgan bo‘lar edi. Chunki ko‘rish va qarash shu payt, shu on bilan cheklanadi. Xabar esa narsaning ko‘ringan payti va vaqtdan ilgari o‘tgan va keyin keladigan hollaridan darak beradi; ana shuning uchun xabar mavjud narsalardan ham, kelajak

narsalardan ham darak beraveradi. Yozish xabar turlarining biri bo‘lib, uni boshqa turlardan ko‘ra afzalroq hisoblash mumkin; qalamning mangu yodgorliklari bo‘lmaganda, xalqlarning tarixini qanday bilar edik??

So‘ngra, odatda bo‘lgan hol haqida berilgan xabar bir xil emas, balki (farqsiz) rost va yolg‘on bo‘lishi mumkin”.

Beruniy yolg‘on xabarlarning muayyan va umumiy ildizlarini ochib tashlaydi. U bularni ma’lum guruh kishilarining manfaatlarini qaramaqshiligidagi ko‘radi. Uningcha, chinakam jasorat, qahramonlik so‘zdamni yo amaldami, har ikki holatda ham yolg‘onga qarshi kurashda o‘limni ham pisand qilmaslikda namoyon bo‘ladi. “Yolg‘onchilikdan chetlanib, rostgo‘ylikka yopishgan kishini boshqa odam u yodqa tursin, yolg‘onchining o‘zi ham sevib maqtaydi. Axir, o‘z zararingizga bo‘lsa ham, rost gapiring deyilganku”, deb yozadi u.

Kuzatish, ko‘rish, tajribalar qilish, mantiqiy umumlashmalar chiqarish, ma’lumotlarni to‘plash, xalq og‘zaki ijodi, yozma yodgorliklarni o‘rganish, barcha xabar, manbalarga tanqidiy qarash haqiqatni aniqlash uchun ularni bir-biri bilan taqqoslab ko‘rish, til qurilishini, yozuvlarni o‘rganish – bular hammasi o‘rta asrning buyuk qomuschisi Abu Rayhon Beruniy ilmiy usulining asosini tashkil etadi.

Agar Forobiy islomiy yangi aflatunchilik falsafasining asoschisi va uning G‘arbdagi oxirgi namoyandasini Prokldan keyingi eng buyuk faylasuf bo‘lsa, bu falsafani ham Sharqda, ham G‘arbda himoya qilgan shaxs Abu Ali Husayn ibn Sinodir (980-1037). XIII asrda lotin tilida qalam tebratgan mualliflar uni Avitsenna deb atashgan. U islomda yangi aflatuncha falsafani yuqori darajaga ko‘targan edi. XII va XIII asrning mashhur olimlari bo‘lgan “Millal va nihal” (“Millatlar va mazhablar”) muallifi Shahristoniy (vaf. 1153 y.), mutakallim Faxriddin Roziy (vaf. 1209 y.) va Nasriddin Tusiy (vaf. 1273 y.)lar Ibn Sino asarlariga sharh va tafsirlar yozishgan.

Ibn Sino islomiy falsafa madaniyatini boyitib ham arab, ham fors tillarida asarlar yozgan. Uning “Donishnama”si fors tilida yozilgan birinchi mashhur falsafiy asardir.

Dominikan ordenining ruhoniysi Jorj Qanavotiy o‘z tazkirasida Ibn Sino asarlarining 274 nomdagagi ro‘yxatini keltirgan.

Ibn Sinoning eng katta falsafiy asari “Kitob ash-shifo” bo‘lib, islomiy va yunoniy ilmlardan tortib, mantiq va riyoziyotni ham o‘z ichiga olgan. Uning boshqa yirik asari “Kitob al-ishorat va tanbihot” talabalar orasida “Kitob ash-shifo” dan ko‘ra, katta e’tiborga sazovor bo‘lgan edi. Ushbu kitob uning umrining oxirlarida yozilganligi tufayli, mustaqil fikrlar bayonidir.

Ibn Sino tafakkuri shaqlanishida ikki omil muhim o‘rin tutgan: birinchisi “Ixvon as-safo” falsafiy anjumanining risolalari, ikkinchisi Abu Nasr Forobiy

asarlari. XII asr tarixchisi Bayhaqiyning yozishicha, Ibn Sino otasi kabi “Ixvon as-safo” risolalarini qayta-qayta o‘qir edi. U bir necha irfoniy risolalar yozib, ularni “Sharq falsafasi” yoki “ishroq” deb atagan.

Ibn Sino Forobiy kabi Arastu-Ptolemy dunyoqarashlariga asoslangan yangi aflotuncha qarashlar tizimini vujudga keltirgan. U dunyoning ilohiy sudur bosqichlaridan kelib chiqqanligini isbotlashga urinadi. Ibn Sino o‘zining “Kitob ash-shifo” asarini mantiq ilmining qisqacha bayonidan boshlab, unga Arastu, yangi aflotuncha va ravoqiylar qarashlarini qo‘shtigan. Ibn Sinoning harakat, sokinlik, zamon, makon, bo‘sqliq, cheksiz va cheklanganlik haqidagi fikrlari bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Ibn Sinoning falsafiy qarashlari uch katta bo‘limdan tashkil topgan – metafizika, fizika, logika-mantiqda o‘z aksini topgan bo‘lib, metafizika – ilohiyot, vujud va mavjudot, dunyoning boshlanishi, tuzilishi, tarkibi haqidagi masalalarni talqin etadi; fizika-tabiatshunoslik masalalari, jism, moddani o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha masalalarni o‘z ichiga oladi; mantiq to‘g‘ri fikrlash san’ati, aqliy bilish shaqlarini o‘rganadi. Umumiyligi falsafiy masalalar nazariy va amaliyga bo‘linib, o‘z navbatida, ularning har biri qator ilmlarni o‘z ichiga oladi.

Vujud, mavjudot tarkibi, ilmlar tasnifi Ibn Sinoning borliq, mavjudot haqidagi ontologik ta’limotini Forobiy ta’limotining davomi, rivoji deb ta’riflash mumkin.

Ibn Sino vujudni ikkiga: zaruriy vujud-vojib ul-vujud va mumkin ulvujud – vujudi mumkinga ajratadi. Zaruriy vujud hamma mavjud narsalarning boshlang‘ichi – birinchi sababi – ya’ni Allohdir, undan kelib chiquvchi boshqa borliq narsalar vujudi mumkindir.

Birinchi yagona vujuddan kelib chiquvchi vujudlar, mavjud borliqning turli tuman shaqlari, boshlang‘ich yagona vujudning ifodalanishidir. Astasekin kelib chiquvchi borliq shaqlari, ya’ni so‘nggi vujudlar sabab-oqibat munosabati shaqlida o‘zaro bog‘liqdir. Birinchi vujudning xislatlari undan kelib chiquvchi barcha vujudlarga o‘tib boradi. Vujud haqidagi fikrlar, mavjudot shaqlarining o‘zaro bog‘lanishi, emanatsiya Ibn Sinoning “Kitob ash-shifo”, “Kitob an-najot”, “Donishnoma” kabi asarlarining metafizika bo‘limida har tomonlama bayon etilgan.

Ibn Sino vujudi mumkinni javhar (substansiya) va oraz (aksidensiya)ga ajratadi. Javhar turli ko‘rinishlarga ega bo‘lib, u sodda va murakkabdir. Sodda javhar boshlang‘ich unsurlar – olov, havo, suv, yerdan iborat, shuningdek, modda va shaqlning birligidan tashkil topib tabiat, o‘simgilik, hayvonot, inson shaqlida mavjuddir.

Falsafa fanini Ibn Sino ikki katta bo‘limga ajratadi:

1) Nazariy falsafa – metafizika (oliy fan), matematika (o‘rta fan) hamda tabiat haqidagi fan – tabiatshunoslik (pastki fan)dan iboratdir.

2) Amaliy falsafa – siyosat, huquq, uy ishlarini o‘rganish – iqtisod va axloqshunoslik, ya’ni etikadan tashkil topadi.

Metafizika oliy ilm sifatida mutlaq vujudni o‘rganish, yaratuvchini bilishni o‘z ichiga oladi. Falsafa fanini ifodalashda Ibn Sino Arastuga asoslanadi.

Matematika miqdoriy munosabatlarni – o‘lchov va sonlarni o‘rganadi. U turli tarmoqlarga, chunonchi, arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqa, optika, mexanika, osmon jismlari harakatini ilmiy asbob-uskunalarni o‘rganuvchi fan kabi tarmoqlarga ega. Tibbiyat, astrologiya, fiziognomika, kimyo kabi ilmlar ham tabiatshunoslikka kiradi.

Ibn Sino o‘zining “Ishorat va tanbihot” asarida shunday ta’kidlaydi: “Inson o‘z shaxsiy talablari jihatidan boshqalardan ajralgan holda yashay olmaydi, chunki u insoniyatning boshqa vakillari bilan munosabatda bo‘libgina ularni qondira olishi mumkin”. Buning uchun barcha jamoa a’zolarini birlashtirib turuvchi huquqiy qonunlar zarur bo‘ladi. Jamoaning barcha a’zolari foydali mehnat bilan shug‘ullanmoqlari zarur. U insonlarning jamiyatdagi o‘rni va vazifalariga qarab 3 guruhga ajratadi:

A) davlat idoralarida xizmat qiluvchi va jamiyatni boshqarish ishlari bilan shug‘ullanuvchilar;

B) bevosita xom ashyo, zarur mahsulotlar ishlab chiqarish bilan mashg‘ul bo‘lganlar;

V) davlatni qo‘riqlash, uni turli tashqi hujumlardan saqlashni ta’minlovchi harbiylar.

Jamiyatning bu guruhlari o‘zaro bir-birlariga bog‘liq va har doim muloqotda bo‘ladilar, bir-birlarisiz yashay olmaydilar.

Ibn Sino o‘zining “Risolatu tadbiri manzil” asarida shunday yozadi: “Odamlarning mulkiy tengsizligi, vazifasining bir xil emasligi, o‘zaro farqlari, inson ijtimoiy faoliyatining asosiy sababidir”.

Ibn Sino yana boshqa bir asarida shunday yozadi: “O‘zaro bog‘liqlik va almashuv jarayonida insonlar bir-birlarini qandaydir muhtojlikdan xoli etadilar. Buning uchun insonlar o‘rtasida o‘zaro kelishuv zarur bo‘lib, bu kelishuv tufayliadolat qoidalari va qonunlari o‘rnatalidi. Qonunshunos esa bu qoidalarga bajarilishi shart bo‘lgan majburiyat tusini beradi. Shuningdek, u yomon ishlarni qiluvchilarni ham, yaxshi ishlarni ro‘yobga chiqaruvchilarga ham baho berishi zarur. Buning uchun oliy qonunshunos va qozini tan olish zarurki, insonlar o‘z faoliyatlarida ularning hukmlaridan foydalansinlar”.

Demak, har qanday jamiyat, davlat ma’lum adolatni himoya etuvchi huquqiy qonunlar asosida idora etilishi, adolatsizlikka yo‘l qo‘ymasligi kerak. Ibn

Sinoning ijtimoiy-siyosiy qarashlari shaqlanishida islomdagi demokratik oqimlar o‘z ta’sirini o‘tqazgan.

Muso Al-Xorazmiy (783-850) **buyuk matematik, astronom va geograf** Muhammad al-Xorazmiy VII asrning oxiri va IX asrning birinchi yarmida yashab ijod etdi. Bu davrda O‘rta Osiyo arab xalifaligi tarkibiga kirar edi. Xorazmiy dunyo faniga g‘oyat katta hissa qo‘shti. U algebra fanining asoschisi bo‘ldi. «Alegbra» so‘zining o‘zi esa uning «Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al muqobala» nomli risolasidan olingan. Uning arifmetika risolasi hind raqamlariga asoslangan bo‘lib, hozirgi kunda biz foydalanadigan o‘nlik pozitsion hisoblash sistemasi va shu sistemadagi amallarning Ovro‘poda tarqalishiga sabab bo‘ldi. Olimning «al-Xorazmiy» nomi esa «algoritm» shaklida fanda abadiy o‘rnashib qoldi. Uning geografiyaga doir asari esa arab tilida o‘nlab georgafik asarlarning yaratilishiga zamin yaratdi. Xorazmiyning «Zij»i Ovro‘poda ham, Sharq mamlakatlarida ham astronomiyaning rivojlanish yo‘lini ko‘rsatib berdi. Ma’lumki, al-Ma’mun 809 yildan Marvda dastlab xalifa Xorun ar –

Rashidning noibi so‘ng 813 yildan boshlab xalifa bo‘ladi va 819 yili Bag‘dodga ko‘chadi. Al-Ma’mun Marvda bo‘lganida Xorazmiyni O‘rta Osiyolik va xurosonlik boshqa olimlarni o‘z saroyiga jalgan.

Xalifa al-Ma’mun davrida Bag‘dodda O‘rta Osiyo va Xurosondan kelgan bir guruh yirik olimlar ijod etgan. Ular orasida Xorazmiy bilan bir qatorda marvdan Yaxyo ibn Abu Mansur, al-Farg‘oniy, Xabash al-Marvaziy Xolid ibn Abdumalik al-Marvarrudiy, Forobdan Abul Abbas al-Javxariy va boshqa olimlar bor edi.

Bag‘dodda al-Ma’mun otasi tomonidan asos solingan ilmiy markaz – «Bayt ul-xikma» faoliyatini har tomonlama takomillashtirib, unga yirik davlat muassasasi tusini berib, avvaliga tarjimonlik faoliyatini keng ko‘lamda rivojlantirdi.

Marvlik mashhur astronom va matematik Habash al-Hosib («Hisobchi habash») laqabi bilan ma’lum bo‘lgan Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy ham Bog‘dodda Xorazmiy bilan hamkorlikda ishlagan. U ikkita «zij» tuzgan bo‘lib, bular O‘rta asr astronomlari tomonidan keng foydalanilgan. Tadqiqotchilarning ko‘rsatishicha, u tagens va kotangens, kosekans funksiyalarini kiritib, ularning jadvallarini ham keltirgan.

Xorazmiy bilan Bag‘dodda, keyinchalik «Ma’mun akademiyasi» deb tanilgan «Bayt ul-hikma»da ijod etgan olimlarning barchasini ham o‘rta osiyolik yoki xurosonlik deyish xato bo‘lardi. U yerda Suriya, Iraq, Eron va xalifalikning boshqa yerlaridan kelgan olimlar ham ishlagan. Biroq ular orasida o‘rta osiyoliklar salmoqli o‘rin egallagan. Xorazmiy ana shunday ilmiy muhitda yashab ijod qildi va 850 yilda Bag‘dodda vafot etdi.

Xorazmiy qalamiga mansub 20 dan ortiq asarlarning faqat 10 tasi bizgacha yetib kelgan. Bular «Aljabr va almuqobala hisobi haqida qisqacha kitob» - algebraik asar. «Hind hisobi haqida kitob» yoki «Qo'shish va ayirish haqida kitob»- arifmetik asar; «Kitob sur'at-ul-arz», geografiyaga oid asar. «Zij», «Asturlob bilan ishslash haqida kitob», « Asturlob yasash haqida kitob», «Asturlob yordamida azimutni aniqlash haqida», «Kitob ar – ruhoma», «Kitob at-tarix», «Yaxudiyarning taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola». Bu asarlarning to'rttasi arab tilida, bittasi Farg'oniyning asari tarkibida lotincha tarjimada saqlangan va qolgan uchtasi hali topilgan emas.

Xorazmiy hind raqamlari asosida o'nlik pozitsion sistemada sonlarning yozilishini batafsil bayon qiladi. U sonlarning bunday yozilishidagi qulayliklar, ayniqsa, nol ishlatilishining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Keyin Xorazmiy arifmetik amallarni bayon qilishga o'tadi. Bunda xorazmiy sonlarning martabalarini, ya'ni razryadlarini e'tiborga olishni hamda nolni yozishni unutmaslikni uqtiradi, aks holda natija xato chiqadi, deydi u.

Risolaning boshlanishida Xorazmiy undagi masalalar o'z davrining amaliy talablariga javob sifatida vujudga kelganligi qayd qilinadi.

U shunday deydi: «... Men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi «Aljabr va almuqobala hisobi haqida qisqacha kitob»ni ta'rif qildim, chunki meros taqsim qilishda, vasiyatnomा tuishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda va shuningdek, yer o'lhash, kanallar o'tkazishda, (amaliy) geometriya va boshqa shunga o'xshash turlicha ishlarda kishilar uchun bu zarurdir.

Xorazmiy algebrasi- bu sonli kvadrat va chiziqli tenglamalarni yechish haqidagi fandir.

Xorazmiyning aytishicha, algebrada uch xil son bilan ish ko'riladi: ildiz (jizr) yoki narsa (shay), kvadrat (mol) va oddiy son yoki dirham (pul birligi). Yana uning aytishicha, ildiz o'zini o'ziga ko'paytiriladigan miqdordir, kvadrat esa ildizni o'ziga ko'paytirishda hosil bo'lgan kattalikdir. Xorazmiy ish ko'radigan tenglamalar mana shu uch miqdor orasidagi munosabatlardir.

Xorazmiyning boshqa asarlaridan farqli o'laroq, uning algebraik risolasining uchta qo'lyozmasi saqlangan. Ular Kobulda, Madinada va Oksford universitetining Bodleyan kutubxonasida saqlanadi. Xorazmiyning eng yirik astronomik asari uning «Zij»idir. Olim bu asarni 830 yil atrofida yozgan.

Asar 1037 yili ko'chirilgan yagona arabcha nusxasida bizgacha yetib kelgan bo'lib, bu nusxa Strasburg universiteti kutubxonasida saqlanadi. Kitobda shaharlar, tog'lar, dengizlar, orollar va daryolardagi 2402 ta geografik joyning koordinatlari keltiriladi. Shaharlar, daryolar, tog'lar, orollar va boshqa obyektlar iqlimlar bo'yicha taqsimlangan. Iqlim so'zi yunoncha klima-«og'ish» so'zidan

kelib chiqqan bo‘lib, uni fanga Gipparx (eramizdan oldingi II asr) kiritgan. Gipparx Yerning odamlar yashaydigan qismini 12 ta iqlimga ajratgan. Undan so‘ng Ptolemey iqlimlarning sonini 8 tagacha kamaytiradi, lekin o‘z «Geografiya»sida u iqlimlar nazariyasiga to‘la rioya qilmaydi, chunki geografik joylarni mintaqalar va yeparxiyalar bo‘yicha taqsimlaydi.

Geografiyani iqlimlar nazariyasiga to‘la rioya etgan holda birinchi marta Xorazmiy bayon qiladi. U yerning ma’mur, ya’ni insonlar yashaydigan obod qismini yetti iqlimga ajratadi. Xorazmiy qadimgi yunon olimi Ptolemeydan farqli o‘laroq, mintaqalar, mamlakatlar va ulardagagi geografik joylarni tavsiflamaydi, balki 1-iqlimdan to 7-iqlimgacha joylashgan joylarni tavsif etadi.

Xorazmiyning geografik risolasi o‘rtalarda eng birinchi geografik asar edi. Xorazmiy ham Ptolemey kabi uzunliklarni Kanar orollaridan boshlab hisoblaydi. Xorazmiy ekvatoridan janubda 8 shahar, 1-iqlimda 64shahar, 2-iqlimda 54 shahar, 3-iqlimda 59 shahar 4-iqlimda 146 shahar, 5iqlimda 79 shahar, 6-iqlimda 63 shahar, 7-iqlimda 25 shahar va 7-iqlimdan shimalda 40 shaharning koordinatlarini keltiradi.

Risolaning ikkinchi bobida iqlimlardagi tog‘lar tavsiflanadi. Tog‘larning boshi va oxirining koordinatlari keltiriladi. Xorazmiy Yaqin va O‘rtal Sharqdagi hamda Kavkaz va O‘rtal Osiyodagi tog‘larni ham u yerlardagi shaharlar kabi tatafsil bayon qiladi. Bunga qaraganda olim u yerkarning geografiyasi bilan shaxsan tanish bo‘lgan ko‘rinadi.

Risolaning uchinchi bobida Xorazmiy dengizlarni, to‘rtinchibobida orollarning qirg‘oq chiziqlari va ulardagagi punktlarni, beshinchi bobida esa mamlakatlarni, oltinchi bobida esa daryolar va buloqlarni tavsiflaydi.

Ahmad Farg‘oniy (taxminan 797 – 865 yillar) o‘rtalarda yashagan o‘rtalosiyolik olimlar orasida buyuk astronom, matematik va geograf.

Xalifa Xorun ar-Rashid 809 yili Tusda to‘satdan vafot etadi va uning vasiyatiga ko‘ra Bag‘dodda taxtga katta o‘g‘li Muhammad al-Amin nomi bilan o‘tiradi. Saroydagi xurosonlik ayonlar esa Abdullohni taxtni qo‘lga olishga da’vat etadilar. 811 yildan 813 yilgacha aka-uka Muhammad va Abdulloh o‘rtasida taxt uchun olib borilgan kurash Abdullohning g‘alabasi bilan tugaydi va Muhammad qatl qilinadi. O‘sha yili Abdulloh taxtga alMa’mun nomi bilan o‘tiradi. Lekin u Bag‘dodga bormay 819 yilga qadar Marvda yashaydi. Natijada, Marv 813 yildan to 819 yilgacha xalifalikning vaqtincha poytaxti bo‘lib turadi. 819 yili al-Ma’mun butun saroy ayonlari va ulamolari bilan birga Bag‘dodga ko‘chadi. Ular orasila al-Farg‘oniy ham bor edi.

Al-Farg‘oniyning hayoti haqidagi eng so‘nggi va eng aniq xabar 861 yil bilan bog‘lanadi. Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, u shu yili Qohira yaqinidagi Ravzo orolida nilometrni, ya’ni Nil daryosi suvi sathini belgilovchi uskunani yasagan yoki ta’mirlagan.

Ma'lumotga ko'ra, al-Farg'oniy Mirsda nasroniyalar orasida yashab, ularning diniga o'tganligi va shuning uchun u qatl qilinganligi qayd etiladi.

Al-Farg'oniyning asosiy astronomik asari «Samoviy harakatlar va umumiyligi nujum kitobi» («Kitob al-harakat as-samoviya va javomi' ilm an-nujum») XII asrda Ovro'poda lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Ovro'po tillariga ham tarjima qilingandan so'ng, uning lotinlashtirilgan nomi «Alfraganus» shaklida G'arbda bir necha asr davomida keng tarqaladi.

Hozirgi kunda al-Farg'oniyning sakkiz asari ma'lum bo'lib, ularning hammasi astronomiyaga aloqador va birortasi hozirgi zamon tillariga tarjima qilinmagan. Ullar quyidagilardir: yuqorida tilga olingan asar, odatda uni «Astronomiya asoslari haqida kitob» nomi bilan ham atashadi - qo'lyozmalari dunyo kutubxonalarining deyarli barchasida bor. «Asturlob yasash haqida kitob»- qo'lyozmalari Berlin, London, Mashhad, Parij va Tehron kutubxonalarida, «Asturlob bilan amal qilish haqida kitob»- bиргина qo'lyozmasi Rampurda (Hindiston), «Al-Farg'oniy jadvallari»- qo'lyozmasi Patnada (Hindiston), «Oyning Yer ostida va ustida bo'lish vaqtlanini aniqlash haqida risola»- qo'lyozmasi Qohirada, «Yetti iqlimni hisoblash haqida»- qo'lyozmalari Gotada va Qohirada, «Quyosh soatini yasash haqida kitob»- qo'lyozmalari Halab va Qohirada saqlanadi. «Al-Xorazmiy «Zij»ining nazariy qarashlarini asoslash» asari Beruniy tomonidan eslatiladi, lekin qo'lyozmasi topilmagan.

Iqlimning al-Farg'oniy keltirgan tavsiflash usuli al-Xorazmiyikidan farq qiladi.

Uning iqlimlar tavsifida 3,4,5,6 va 7-iqlimlarning tavsifi diqqatga sazovordir. Chunki bularda Markaziy Osiyoning va unga tutash yerlarning shahar va viloyatlari tavsiflanadi. Shuning uchun quyida o'sha tavsiflarni o'z ichiga olgan parchani keltiramiz.

«Uchinchi iqlim sharqda boshlanib, Xitoy mamlakatining shimolidan, so'ng Hind mamlakatidan so'ngra Kobul va Kemon viloyatlaridan o'tadi.

To'rtinchi iqlim iqlim sharqdan boshlanadi va Tibatdan, so'ngra Xurosondan o'tadiki, bunda Xo'jand, Usrshona, Farg'ona, Samarqand, Balx, Buxoro, Hirot, Amuya, Marvarrud, Marv, Saraxs, Tus, Nishapur shaharlari bor. Undan so'ng Jurjon, Qumis, Tabariston, Demovand, Qazvin, Daylam, Ray, Isfahondan o'tadi. Beshinchi iqlim sharqda Yajuj mamlakatidan boshlanadi, so'ng Xurosonning shimolidan o'tadi, unda Toroz shahri-savdogarlar shahri bor. Navokat (Navkat), Xorazm, Isfijob (Sayram), Turaband (O'tror-hozirgi Aris) va Ozarbayjon, Arminiya (Armaniston) viloyati, Barda'a (Barda), Nashava (Naxchivon) shaharlari bor.

Oltinchi iqlim sharqdan boshlanadi va Yajuj mamlakatidan o‘tadi, so‘ng Xazar mamlakatidan (Shimoliy Kavkaz va Quyi Volgabo‘yi), Jurjon (Kaspiy) dengizining o‘rtasidan kesib o‘tadi va Rum (Vizantiya) mamlakatigacha boradi.

Yettinchi iqlim sharqda Yajuj mamlakatining shimolidan boshlanadi, so‘ng turkiy mamlakatlardan (Markaziy Osiyo) o‘tadi, so‘ng Jurjon dengizining shimolidan o‘tadi, so‘ng Rum dengizini (Qora dengiz) kesib o‘tadi va saqlablar (slavyanlar) mamlakatidan o‘tadi va G‘arb dengizida (Atlantika) tugaydi».

2.2. Tasavvuf tariqatlarining ijtimoiy-falsafiy fikr rivojidagi o‘rni.

Tasavvuf (so‘fiylik yoki so‘fizm) islom falsafasida diniy falsafiy yo‘nalish sifatida VIII asrning o‘rtalarida arab xalifaligi mamlakatlarida vujudga keldi. U asosan, shu mamlakatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotining xususiyatlari bilan taqozo qilingan bo‘lsa ham, lekin unda neoplatonizm ta’limotining, iudaizm, xristianlik, zardushtiylik va ayniqsa buddizm diniy ta’limotlarining ta’sirini yaqqol ko‘rish mumkin. Tasavvuf paydo bo‘lganidan keyin u turli davrlarda, dastlab arab mamlakatlarida, keyinchalik Yaqin va O‘rta Sharq, Markaziy Osiyo, Shimoliy Hindiston, Pokiston, shimoli-g‘arbiy Xitoy, Indoneziya kabi mamlakatlarga keng tarqaladi. Natijada, tasavvuf dunyodagi turli xalqlarning ijtimoiy hayotidan, ularning falsafiy va badiiy tafakkuridan keng o‘rin olgan, ko‘p tarmoqli, ko‘p yo‘nalishli murakkab ta’limotga aylanadi. Lekin u turli mamlakat xalqlari o‘rtasida turlicha mazmun kasb etsa ham, uning ruhi islomiy ruh bo‘lib qoladi.

Tasavvuf islom ta’limoti olamidagi mazhablar, oqimlar silsilasi ichida o‘zining demokratik qarashlariga izn bergani, inson qalbi va ruhiyatini nishonga olib, ahloqiy poklikni targ‘ib qilishi bilan, jaholat va xudbinlikka qarshi maydonga chiqqanligi jihatidan **ilmi vahdat** yoki **ilmi tawhid** nomini oladi. U islom dunyosidan «tariqi tasavvuf», ya’ni tasavvuf yo‘li sifatida musulmon ahlining el-yurt ishlarini ado etishiyu, shariat qoidalariga rioya qilishning birdan-bir to‘g‘ri yo‘li, deb qaraladi. Ilmiy, falsafiy va diniy adabiyotlarda «tasavvuf» so‘zining lug‘aviy ma’nosi nimadan iboratligi va u qanday so‘zdan kelib chiqqanligi to‘g‘risida hanuzgacha yagona fikrga kelingani yo‘q. Ko‘pchilik tadqiqotchilar tasavvuf so‘zi, asli arabcha: «suf» so‘zi (undan «so‘fi», «so‘fizm» so‘zлari ham) dan kelib chiqqan bo‘lib, «suf» - bu arabcha: «suffa» - o‘zbekcha jun, jundan, degani, bu ta’limot yo‘liga kirgan kishilar dastlab jundan to‘qib tayyorlangan xirqa (bizningcha: chakmon) kiyib yurishgan, shu sababli ular ta’limoti «so‘fiylik» yoki «tasavvuf» deyilib, o‘zлari esa «so‘filar» deb atalgan, degan fikrni bildirishadi.

Boshqa tadqiqotchilar esa «tasavvuf» ni, uning o‘zagi «suf» ni yunon tilidagi «sofos» («donishmandlik») so‘zidan olinganligini qayd qilishadi. Tasavvuf

ta'limotining yirik tadqiqotchilaridan biri A. Krimskiyning yozishicha, «so‘fi» so‘zi VIII asrning o‘rtalaridan boshlab adabiyotlarda qo‘llanila boshlagan. Bu so‘z dastlab, asosan, komil, yetuk, e’tiqodli musulmon darvishlarga nisbatan ishlatilgan. «Qiyos ul - lug‘at» da esa shunday yozilgan. «So‘fi – xirqapo‘shtir, zeroiki, yungni suf deyiladi; fuqaroning istilohidan, o‘z diliiga nigoh qaratgan, hayolini haqdan boshqa barcha narsalardan poklagan kishi «so‘fi» deb ataladi», deyiladi. Shuningdek, mutasavvuf Muhammad G‘iyosiddin: «so‘fi», "sufa" so‘ziga mansub bo‘lib, so‘fiylar johiliyat ayyomida Ka'bada xalqni haqqa da’vat etish ishi bilan shug‘ullanganliklari sababli ular tasavvuf ahli mavqeiga erishganlar, deb yozadi.

Mutasavvuf Abul Hasan Ali Xajiriyning sharhlashicha xirqapo‘shtir ya’ni so‘filar azaliy soflik va poklikka vosil bo‘lganlar: as’obi suffa, ya’ni tilovat qiluvchi va tavallochilar guruhini ham so‘filar, deyilgan. Ba’zi mutafakkirlarning fikricha "suf" so‘zi (arabcha «svf») ning har bir harfi aniq ma’noga egadir. Masalan: "S" - sadoqt, sinoat, saodat; «V» - vasl, vafo; «F» xarfi faroh, fotiha so‘zlaridan iborat, deyiladi.

Vatandoshimiz Abu Rayxon Beruniy shunday sharh keltiradi: «Yunoncha "suf" so‘zi bizcha hikmatdir. Shuning uchun faylasufga «filosufa», ya’ni «hikmatni suyuvchi» deb ism berilgan. Musulmonlardan bir guruhi o’sha tushunchaga yaqin fikrga borgandan ular ham "suffiya" deb ataldilar. Musulmonlarning ba’zilari "suffiya" so‘zining termin ekanini bilmasdan uni «sod» xarfi bilan yozib, uni "suffa" so‘ziga nisbat berib: «Suffa suhbatdoshlari - as’obi suffadan iborat kishilar», deydilar. Undan keyin bu so‘zni Sufatuyus - ya’ni taka juni so‘zidan qisqartirilgan, deb tushunishdilar», - deydi.

Ozarbayjon olimi A.G.Aliyev o‘zining tasavvufga bag‘ishlangan maqolasida Yaxyo Suxravardinning bu haqda: «Qur’on» da "so‘fi" so‘zi yo‘q va bu so‘z turkiyidir. Islom mamlakatlarining ikkala qismida ham bu so‘zdan bexabar bo‘lishgan», degan fikrlarni keltirib, u qadimiy turklarning dunyoqarashida suv kulti muhim o‘rin tutganligini, «suf» so‘zi ana shu "suv" so‘zidan yaralgan degan fikrni ilgari suradi.

Umuman, tasavvuf qanday so‘zdan kelib chiqqan bo‘lsa ham, u soflik, poklik, riyosizlik, taqvo haqidagi ta’limot, qarashlarni ifodalaydi.

Qadimda shayx Abusaid Abuxayrdan: «Tasavvuf nima?» - deb so‘raganlarida, u kishi: «Boshingga ne bo‘lsa, chiqarib tashlash, qo‘lingda neki bor, qo‘lingdan chiqarish va boshqalardan senga nima ozor yetsa, ranjimaslik», - deb javob bergen ekan. Haqiqiy tasavvuf ahli chindan ham bu shartlarga amal qilib yashagan.

Tasavvuf ta’limoti panteizm, asketizm va mistitsizm g‘oyalarini targ‘ib qilish bilan birga, uning asosida inson, uning ma’naviy-ahloqiy kamoloti g‘oyasi

yotadi. U insonni zo‘r qat’iyat bilan yomon ahloqdan qutulishi va yaxshi ahloqqa yetishishga yetaklaydi. Binobarin, uningcha, «Rizo ahli» boriga qanoat qiluvchi kishilardir.

Shayxul-mashoyix mutasavvuflarning qayd qilishicha, tasavvuf - nafs lazzatlaridan voz kechib nafs manzillarini bosib o‘tib Olloh vasliga yetishishdir. Ular tasavvufni - o‘limi yo‘q hayot va hayoti bo‘lmagan o‘limdir deb, insonning hayvoniy nafsoniy hayotida o‘lmoqni va insoniy hayotda yashamoqni ilgari suruvchi ta’limot deb izohlaydilar. Kimning vujudida hayvoniy hirslar, hayvoniy hislar ustunlik qilsa u tilsiz va ongsiz maxluq hayvonga aylanib, nafs tuzog‘iga ilinadi: nafs insondagi eng xatarli dushman, uning o‘z g‘animi ichida, degan g‘oya tasavvuf ta’limoti asosida yotadi. Mutasavvuflarning fikricha, insonning ahloqini tuzatish, uni ma’naviy kamolotga yetkazish uchun inson o‘z tabiatidagi salbiy, hayvoniy hissiyotlarni mahv etishi kerak. Unda iymon, vijdonni, Haqqa e’tiqodni tarbiyalash zarur. Binobarin, iymonli, ya’ni pok va rostgo‘y, insofli va halol, mehr muruvvatli avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish jamiyatning asosiy vazifasi bo‘lishi lozim. Iymon inson uchun muqaddas tuyg‘u. Iymon bilan Haqqa e’tiqod qildingmi - hech kimni aldama, hech kimga ozor berma, hayotda halol bilan haromni farqla, yolg‘ondan, munofiqlikdan qo‘rq, muttahamlik yo‘liga zinhor qadam bosma. Demak, tasavvuf bu - imon, e’tiqod yo‘li, komillik, mukammallik, barkamollik yo‘lidir. Tasavvuf ta’limotining asosiy obyekti inson va uning haqqa, haqiqatga munosabatidir. Unda «insonning xudoga, insonning haqqa», «inson olloh uchun» kabi g‘oyalar hukmron g‘oyalar bo‘lib, pir va shogird, murid va murshid munosabatlari asosiy o‘rin egallaydi. Umuman, tasavvufga doir nuqtai nazarlar unda ifodalangan g‘oyalar va qarashlar turlitumandir. IX asr boshlariga kelib tasavvufning nazariy asoslari, amaliy yo‘llari ishlab chiqila boshlandi. Bu davrga kelib, so‘filarning amaliy - ruhiy (ya’ni psixofizik) mashqlari, o‘z-o‘zini tarbiyalash va chiniqtirish, o‘z-o‘zini va haqni anglash va haqqa yetishish tadbir usullari shakllanib, rivojlanib bordi. Natijada, tasavvufga oid tushunchalar, nazariy qarashlar tizimi yuzaga kelib, tasavvuf alohida ilm, alohida ta’limot sifatida qaror topdi. Aniqlanishicha XI asrgacha bo‘lgan yozma manbalarda tasavvuf tushunchasi va tasavvuf oqimlarining 78 ta ma’nodagi talqini mavjud bo‘lgan.

Mutasavvuflar dastlabki vaqtarda tasavvufni nuqul «sirli», «tushuntirib bo‘lmaydigan holatlar», «iboratga kelmaydigan ishoratlar» deb fikr bildirgan bo‘lsalar, bora-bora bu holatlar haqida o‘z fikr mulohazalarini nazariy jihatdan umumlashtirib so‘filarni tarbiyalash vazifalari, pir-murshidlik qoidalari, ular odob-ahloq normalarini bayon qila boshlaydilar, natijada, tasavvufning bosqichlari va ular o‘rtasidagi munosabatlari, tasavvuf ahlining olam va odam mohiyati insonning muomala madaniyati, tayhid va vahdat ma’lumotlari haqida ko‘plab qarashlar ishlab chiqila boshlanadi. Shu asosda tasavvuf butun islom olamini zabit etib, barcha qadimiy shaharlarda xonaqohlar quriladi, karvon

yo'llarida rabotlar, zoviyalar qad ko'tarib aziz-avliyolarning mozorlarida shayxlar maskan tutib, ko'plab shogirdlarni tarbiyalay boshlaydilar.

Tasavvuf ta'limotining ilk davrlarida **maqomat va tariqat** asoslarini ishlab chiqish, so'fiylik yo'riqlarini va vazifalarini belgilash, ilohiy haqiqatlarni xalq orasida yoyishda Zunnun Misriy (796861), Boyazid Bistomiy (vafoti 875), Junayd Bag'dodiy (vafoti 910), Hakim at-Termiziyy (vafoti IX asr oxiri) va Mansur Xalloj (858-922) larning xizmatlari katta bo'ladi. Keyinchalik Abusaid Abulxayr (967-1049), Abdulloh Ansoriy (1006-1089), Axmad Yassaviy (vafoti 1166), Yaxyo Shaxobiddin Suxrovardiy (1155-1191), Ibn - al - Arabiy (1165-1240), Najmuddin Kubro (1145-1221), Bahouddin Naqshband (1318-1389) va shular kabi shayx-ul-mashoyixlar tasavvuf ilmini o'zlarining yangi fikr va qarashlari bilan boyitadilar. Ular tasavvufda yangi oqimlar, yangi silsilalarni vujudga keltiradilar. Natijada, tasavvuf haqida ko'plab risolalar va kitoblar yozila boshlaydi. Tasavvuf ta'limoti bu davrlar shoirlari badiiy tafakkuriga ham ta'sir qilib, natijada, tasavvuf g'oyalarini qizg'in targ'ib etuvchi ulkan she'riyat ham vujudga keladi. Tasavvuf ta'limotida so'fining ruhiy kamolotga erishish yo'lining to'rtta asosiy bosqichi ko'rsatiladi. Bunda: tasavvuf ahli dastlab islom dini talablariga bo'ysunishi kerak deyiladi. Birinchi bosqich – **shariatni** tashkil etadi. Faqat shundan keyingina solih, ya'ni tasavvuf yo'liga kirgan so'fiy ikkinchi bosqich - tariqatga ko'tarilishi mumkin. Bu bosqichlarni bosib o'tganlargina ulardan yuqoriroq uchinchi bosqichga - ma'rifikatga erishadilar. Tasavvuf ahli ma'rifikat bosqichini to'liq egallab, bosib o'tgandan keyingina to'rtinchi bosqich - haqiqatni egallaydi. So'fi haqiqatga erishuv jarayonida o'zini jismoniy shaxs sifatida tugatib, u ilohiy shaxsga aylanib, ollohga ya'ni haqqa yetishadi, unga singib ketish natijasida boqiylikka ega bo'ladi.

Tasavvufga oid ilmiy manbalar, kitoblar va dasturlarda bu atamalarni izohlash va tushuntirishga ko'p e'tibor beriladi. Ular tasavvuf ta'limotini o'zida ifodalagan bu bosqichlarni bu ta'limotni egallahsha bel bog'lagan kishining ruhiy-ahloqiy, ma'naviy kamolot yo'li deb qarashadi. Bu jihatdan bu bosqichlarni tasavvuf ta'limotining amaliy qismi deb ta'riflashadi. Darhaqiqat ham shunday, chunki solik (ya'ni tasavvuf yo'liga qadam qo'ygan yo'lovchi) bajarishi kerak bo'lgan barcha yo'riqlar, irodat va ishorat usullari, pir-muridlik qoidalari odobiga rioya etish kabilar barchasi shu bosqich ichiga kiradi.

Solikning tasavvufga oid bu ruhiy-ahloqiy kamolot yo'lini bosib o'tishida o'ziga xos maqomat va hollar ham mavjud bo'ladi.

Mutasavvuf Abunasr Sarroj solikning bu yo'lda quyidagi maqomatlarni bosib o'tishi lozimligini qayd etgan:

1. Tavba.
2. Vara'.

3. Zuhd.
4. Faqr.
5. Sabr.
6. Xavf.
7. Rajo.
8. Tavakkul.
9. Rizo.

Bu maqomat darajalarini bir bir egallab, muvaffaqiyatga erishgan solik hol martabasiga yetadi va ilohiy jamolni mushohada qila boshlaydi, uning qalbini shavq-zavq qamrab oladi. U bunda shunday holatga ko‘tariladiki, uning butun a’zolari har bir olgan nafasi ham ollohning borligi va buyukligidan xabar beradigan bo‘ladi.

Solik hol martabasiga ko‘tarilganidan keyin u xuddi maqomat bosqichlarini bosib o‘tganidek, hol bosqichlarini ham bosib o‘tishi zarur bo‘ladi. Holning ta’rif-tasnifga keltirilgan bosqichlari quyidagilar: 1. Qurb, 2. Muhabbat, 3. Shavq, 4. Uns, 5. Mujohida, 6. Mushohida, 7.

Munoshifa

Tasavvuf falsafasiga ko‘ra inson o‘z tabiatini jihatdan qarama-qarshi ikki asos - modda va ruhdan iborat, unda shu ikki asosning barcha xususiyatlari jamuljamadir. Agar insonda moddiylik xususiyatlari ustun kelsa, unda hayvonlik sifatlari kuchayadi, agar ruhiy xususiyatlar ustun kelsa, ilohiylik sifatlari rivojlanadi. Lekin insondagi ruh modda (jism) quliga aylanmasligi kerak. Aksincha, unda modda (jism) ruh uchun bir asbob, o‘lchov yoki vosita bo‘lib xizmat qilsin. Odatda ruhan taraqqiy etgan insonlar aqlu zakovati ilhom va ijodkorlikka ega bo‘lgan, ilohiy tab’ va farosat bilan boshqalardan ajralib turadilar. Bunday kishilardan ruhi taraqqiy etgani sari, u o‘z tanasi (modda, jism)ga sig‘may qola boshlaydi. Bunday kishi o‘z ruhida koinot bilan aloqa qilib, olam sirasrorlaridan xabardor bo‘lib, har xil bashoratlarni qilib, turli-tuman mo‘jizalar ko‘rsatadigan bo‘ladi. Tasavvuf ta’limotida so‘filar insonni jism olami bilan ilohiy olam orasidagi chegara deb qaraydilar. Ular insonni shu jihatdan tongga o‘xshatadilar. Ma’lumki, tong ham tun bilan kunning chegarasi, tongdan quyosh chiqib, qorong‘ilik-tunni xaydagani kabi ruh ham jism olamini bark etib nurlar olamiga talpinadi.

Umuman olganda, tasavvuf ta’limoti o‘z evolyusiyasi davomida ikki xil oqim sifatida ikki bosqichda namoyon bo‘ladi. U o‘zining birinchi oqimida va birinchi bosqichida feodallar tomonidan ezilishga qarshi g‘oyalar, mafkura sifatida ortodoksal islomning diniy g‘oyalariga zid bo‘lib, o‘zi paydo bo‘lgandan ancha keyingi davrlar ijtimoiy-falsafiy va sotsialaxloqiy fikrlar taraqqiyotiga progressiv ta’sir ko‘rsatadi. Biroq u o‘zining ikkinchi oqimi namoyandalari qarashida ikkinchi bosqichda zohidlikni, tarki dunyochilikni, bu dunyodagi

kishilar hayotiga nafratni, ijtimoiy adolatsizliklarga befarq qarashni targ‘ib etuvchi ta’limot sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga Abu Homid Muhammad Ibn Muhammad al-G‘azzoliy falsafasida tasavvuf islom ortodoksal kalom ta’limoti bilan qo‘silib, musulmon ruhoniylari tomonidan rasmiy ravishda tan olinadi. Birinchi oqim vakillari qarashlariga ko‘ra, tasavvuf, ham botinan, ham zohiran ilohiy ahloq, u faqat insoniy, go‘zal va hur hayotdagi tiriklikni yoqlaydi. Shunga ko‘ra, tasavvuf ahli sahovat, futuvvat, qanoat, sabr-bardosh, diyonat, sadoqat va ishorat ahlidir. Ulardagi bu fazilatlar inson hulqidagi barcha noqislik, jamiki yomonlik, tubanlik va pastkashliklar bilan kurashuvchilardir.

Ikkinci oqim vakillari qarashlariga ko‘ra esa, tasavvuf inson qadrqimmatini yerga uruvchi, insonda mehnatga nisbatan nafratni tarbiyalovchi, kishilarga o‘zлari yaratadigan moddiy va ma’naviy ne’matlardan foydalanishga ularning haq-huquqi yo‘q bo‘lgan ta’limotdir

Umuman olganda, tasavvuf ta’limotida butun dunyo bo‘yicha: junaydiya, qodiriya, suhnovordiya, xanafiya, yassaviya, kubroviya, naqshbandiya tariqatlari ma’lum va mashhurdir.

Markaziy Osiyo - Turkiston zaminida esa asosan yassaviya, kubroviya va naqshbandiya suluklari, ya’ni tariqatlari keng tarqalgan.

XII Asrda Markaziy Osiyoda paydo bo‘lgan ilk tasavvufiy tariqatning asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy 1041 yilda Sayramda, Shayx Ibrohim oilasida dunyoga kelgan. Uning vafot etgan vaqtini ko‘pgina qo‘lyozma manbalarda hijriy 562 (1166/67) yil deb yozilgan. Ahmad yoshligida onasidan, so‘ng otasidan ajraladi. Uni bobosi Arslonbob tarbiyalab voyaga yetkazadi. Ahmad dastlabki ta’limotini Yassida mashhur olim Shahobiddin Isfijobiydan oladi. So‘ngra bobosi Arslonbob ko‘rsatmasi bilan Buxoroga borib Yusuf Hamadoniydan ta’lim oladi. Ahmad Yassaviyning o‘zi "Ustoz Yusuf Hamadoniyning huzuriga 23 yoshida borganini va ul Hazratning tarbiyasiga noil bo‘lg‘onligini" aytadi. U yerda tasavvufdan ta’lim olib, so‘ng o‘z yurti Turkistonga qaytadi, tasavvuf ta’limotini targ‘ib etib, shogird,muridlar tayyorlay boshlaydi.

Yassaviya sulukining asoschisi butun Sharqda mashhur siymo Ahmad Yassaviydir. U Janubiy Qozog‘istonning Sayram qishlog‘ida shayx Ibrohim ota xonodonida tug‘ilgan (yili ma’lum emas). U shayx Xoja Yusuf Hamadoniyning 4 xalifasidan biri bo‘lgan. Ahmad Yassaviy Turkistonda o‘z sulukini asoslash va uning g‘oyalarini targ‘ib qilish uchun badiiy adabiyotning she’riy shaklidan foydalanib o‘z «Hikmatlar»ini yaratadi. Bu «Hikmatlar» asosan pandu nasihatlardan iborat bo‘lib, ularda o‘z davridagi zolimlarni, amaldorlarni, poraxo‘rlarni, o‘z imonidan kechgan, Olloho ni unutgan, dunyo, boylik yo‘liga kirib, insof va diyonatni, mehr-shafqatni bilmaydigan shaxslarni tanqid qiladi.

Ommani esa ruhiy jihatdan tinchlantirib, bu dunyoga ko‘ngil bog‘lamaslikka, uning o‘tkinchi ekanligini aytib, oxiratni, u dunyoni o‘ylashga chaqiradi.

Yassaviy madaniyatimiz tarixida ilk turkiyzabon mutasavvuf shoir sifatida ma’lumdir. Uning tasavvufni targ‘ib etuvchi turkiyda yozilgan she’rlari tilining xalqqa yaqinligi, ohangdorligi bilan tezda mashhurbo‘lib ketdi. Alisher Navoiy iborasi bilan aytganda, Turkiston mulkining ulug‘ Shayx-ul-mashoyixi“ Hazrati Xoja Ahmad Yassaviy juda ko‘p mutasavvuf donishmandlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan. Ma’lumki, "Yassaviya" tariqatidan keyin Markaziy Osiyoda ikki yirik tariqat paydo bo‘ladi: "Naqshbandiya" (Xo‘jagon) va "Bektoshiya".

XVI asrda yashagan yirik tasavvuf namoyandasini bo‘lgan Mahdumi A’zam o‘zining "Risolaye ilmiya" ("Ilmiy risola") asarida ta’kidlashicha, Yassaviya tariqatining shiori "Niyating Xudoda, qo‘ling ishda bo‘lsin" iborasi edi. Keyinchalik ko‘ramizki, bu iboraning forschalar tarjimasi bo‘lgan "Dil bayor, dast ba kor" Naqshbandiya tariqatining asosiy shioriga aylangan.

Tasavvufdagi barcha yirik tariqatlarda bo‘lganidek, "yassaviya" tariqatining ham o‘ziga xos muayyan qoidalari (odobi) bo‘lib, bu ta’limotdagi soliqlar quyidagi qoidalarga amal qilishlari shart bo‘lgan: 1) Murid hech kimsani o‘z piridan afzal ko‘rmasligi, unga doimo taslimiyat izxor qilmog‘i lozim; 2) Murid shunchalik zukko va idrokli bo‘lishi kerakki, to o‘z shayxining rumo‘z va ishoralarini mukammal anglay olsin; 3) Shayxning barcha aqvoli (so‘zlari) va af’oli (ishlari)ga murid sodiq bo‘lib unga mutloqo mute va mu’taqid bo‘lmog‘i lozim; 4) Murid o‘z murshidi (piri)ning barcha topshiriqlarini chustu choloklik (chaqqonlik) ila sidkidildan bajarib, uni hamisha rozi qilib yurmog‘i zarur. Chunki rizoi Alloh uning (ya’ni Shayxning) zimnidadir; 5) Murid o‘z so‘ziga sodiq, va’dasiga rosix bo‘lib, murshidi ko‘nglida hech qanday shaku shubha tug‘dirmasligi zarur; 6) Murid o‘z va’dasida vafodor, so‘zida ustuvor turmog‘i lozim; 7) Murid o‘z ixtiyoridagi barcha mol-mulkini, butun boru yug‘ini o‘z shayxiga nisor etamoq uchun doimo tayyor turmog‘i lozim; 8) Murid o‘z murshidining barcha sir-.asroridan ogoh bo‘lib, uning ifshosini (oshkor qilishni) hech vaqt hayoliga, keltirmasligi kerak; 9) Murid o‘z shayxining barcha taqliflarini nazarda tutib, uning mushkilotini oson qilmog‘i, pandu nasihatlarini bajo keltirmog‘i shart; 10) Murid Xudo visoli uchun o‘z shayxi yo‘lida butun molu jonini nisor etmoqqa tayyor turishi, uning do‘stiga do‘st, dushmaniga dushman bo‘lib yashamog‘i shart.

"Yassaviya" tariqatining barcha aqidalari Ahmad Yassaviyning asosiy asari bo‘lmish "Hikmat"da mufassal bayon etilgan. XP asrdagi turkiyzabon she’riyatining ajoyib namunasi bo‘lgan, keyingi davrlardagi turkiy adabiyotga katta ta’sir ko‘rsatgan "Hikmat" asarida Yassaviya ta’limotidagi poklik, halollik, to‘g‘rilik, mehr-shafkat, o‘z qo‘l kuchi, peshona teri va halol mehnati bilan kun kechirish, Alloh, taolo visoliga yetishish yo‘lida Insonni botinan va zohiran har tomonlama takomillashtirish kabi ilg‘or umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilgan.

Bag‘dodda 922 yilning 22 mart kuni shayxlar va mutaassib ulamolar tomonidan Xudosizlikda ayblanib dorga osilgan, so‘ngra qo‘l-oyoklari kesilib, tanasi kuydirilib, daryoga tashlangan mashhur mutasavvuf Mansur Xalloj (858-922)ni Yassaviy bir talay she’rlarida chuqur hurmat bilan tilga oladi, dovyurak va jasur mutasavvufga katta rag‘bat ko‘rsatadi:

*"Bilmadilar mullolar "Anal-haq "ning manosin,
Qol ahliga xol ilmin Haq ko‘rmadi munosib.
Rivoyatpar bitildi, hrlin ani bilmadi,
Mansurdek avliyonи qо‘ydilar dorga osib.
Shariatdur, deb olimlar buyurdilar,
Kofir Mansur o‘lmadi, deb kuydurdilar.
Ahgar qilib kulin ko‘kka Sovurdilar.
Tog‘u to‘zlar "Anal-haq", deb turar ermish".*

Yassaviy ham o‘zining piri buzrukrori shayx Yusuf Hamadoniya o‘xshab mol-dunyo to‘plashga mutloqo qiziqmaganini, kambag‘alparvar va g‘aribparvar bo‘lib yashaganligini uning ba’zi bir hikmatharidan ham bilsa bo‘ladi. Mol-dunyoga, boylikka va davlat orttirishga mukqasidan ketgan, hasis va ochofat kishilarni Yassaviy kattiq tanqid qiladi: **Beshak biling bu dunyo barcha xalqdan o‘tarо, Ishonmagip molingga, bir kun qо‘ldan ketaro. Oto, ono, qarindosh qayon ketdi, fikr qil, Turt oyoklik cho‘bin ot bir kun sango yetaro.**

Darhaqiqat, Xoja Ahmad Yassaviy Markaziy Osiyodagi ilk tasavvufiy tariqat - "Yassaviya"ning asoschisi, nafaqat Xuroson va Movarounnahr, balki turkiyzabon xalqlarning ma’naviy tarixida keng ma’lum bo‘lgan, mutasavvuf, insonparvar shoir hisoblanadi.

Musulmon olamidagi eng zabardast mutasavvuf donishmandlardan biri buyuk vatandoshimiz shayx Najmuddin Kubrodir.

Abul-Jannob va Tomatul Kubro laqablariga sazovor bo‘lgan tasavvufning Kubraviya silsilasining asoschisi Najmuddin Kubroning to‘lik ismi Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivakiy al-Xorazmiydir. Xijriy oltinchi va yettinchi asrlarda yashagan Najmuddin Roziy, Majiddin Bag‘dodiy, Sa’diddin Hamaviy, Sayfiddin Bahorziy va Bahovuddin Valad kabi siymolar u kishining murid va shogirdlari bo‘lgan.

Ahmad ibn Umar Abul-jannob Najmuddin Kubro 540 hijriy yilda (1145) Xorazmnинг Xivak shahrida dunyoga keladi.

Abdurahmon Jomiy o‘zining "Nafahot ul-uns" asarida yozishicha, Najmuddin bolalik paytidayoq ilm istab Misrga ravona bo‘ladi. Misrda Ruzbehon Vazzon al-Misriy (vaf. 584/1148) degan olim dargohida ta’lim oladi. Al-Misriy

esa, o‘z navbatida, mashhur mutasavvuf donishmand Abu Najib as-Suhravardiydan ta’lim olgan edi. Ruzbehon uni o‘z o‘g‘lidek yaxshi ko‘rib, alohida mehr bilan tarbiya qiladi, hatto qizini nikohlab berib, o‘ziga kuyov qilib oladi. Ammo ilmga chanqoq Najmuddin Kubro ko‘p o‘tmay Tabrizga borib, u yerdagi Imom Abu Mansur Hafda degan donishmanddan islomiy ilmlarni o‘rganadi va Tabrizda shayx Bobo Faraj, Ammor Yasir, Ismoil Kasriy kabi ulkan mutasavvuflardan tasavvufga oid ko‘pgina ilmlarni ham egallaydi. U kishi shayx Ismoil Kasriy qo‘lida hirqapush darajasiga yetib, ul hazratning oq fotihasini oladi. So‘ngra Misrdagi ustoz va qaynotasi Ruzbehon maslahati bilan o‘z vatani - Xorazmga qaytib kelib, honaqoh qo‘radi va shogirdlar tarbiyasiga katta e’tibor beradi. "Kubraviya" yoki "Zahobiya" tariqatiga asos soladi. Bu tariqat ta’limoti hadis va shariatga asoslangan bo‘lib, o‘z davrida Xuroson, Movarounnahr, Hindiston va boshqa musulmon mamlakatlari xalqlari orasida keng tarqaladi. Mazkur tariqat soliqlari orasida zikrni ovoz chiqarmasdan (hufiya) ijro qilish usuli joriy bo‘lgan.

"Rashahot ayn ul-hayot" asarining muallifi Fahruddin as-Safiy o‘z asarida hazrati Abdurahmon Jomiy fikrlariga tayangan holda Najmuddin Kubroning zikri hufiya talqini to‘g‘risida so‘z yuritadi va shayx Kubro fikricha, zikr jarayoni insonlarning nafas olish (tanaffus) jarayoni bilan chambarchas bog‘liq ekanligi haqida shunday ma’lumot beradi: "Hazrat Mahdumi Nuriddin Abdurahmon al-Jomiy aytishlaricha, shayx AbulJannob Najm al-Kubro qudsi Allohi ruhi o‘zining "Favotih al-jamol" risolasida yozganlaridek, hayvonlarning nafas olishi bir tabiiy zaruriyat tufayli yuz beradi. Insonlar ham aslida ayni o‘sha zaruriyat yuzasidan nafas oladilar, lekin o‘shanday nafas olish jarayonida inson g‘oyibona haqqu subhonahuning muborak nomini zikr qiladi".

Ali Akbar Dehxudoning mashhur "Lug‘atnama"sida keltirilishicha, "u kishining Kubro deb atalishlariga sabab shuki, behad ziyraqliklari va tunganmas zakovatlari tufayli har qanday muammoli masalani so‘ralganda hal qilib berar edilar va har kim u kishi bilan bahs-munozara qilsa, g‘olib chiqar edilar"⁴. Shuningdek, u kishini Tomatul Kubro, ya’ni buyuk balo va qazolarning oldini oluvchi, haloskor deb ham atashgan. Abul-Jannob deb atalishlariga sabab esa, u kishining dunyoviy ikir-chikirlardan uzoq turganliklaridir. Ul zotni "Valitarosh" (valiyarni parvarishlab yetishtiruvchi) deb ham atashgan. Chunki umrlari davomida o‘n ikki kishini o‘z muridliliklariga qabul qilganlar va ularning barchasini shayx darajasiga yetkazganlar. Ular qatorida mashhur shayxlardan Farididdin Attorning otasi Majididdin Bag‘dodiy (vaf. 1219) va Jaloliddin Rumiyning otasi Bahovuddin Valad, Najmuddin Doya Roziy, Sa’diddin Hamaviy, Sayfiddin Bahorziy va boshqalar bor.

Najmuddin Kubroning Xorazmdagi so‘nggi hayoti o‘ta og‘ir, shiddatli va murakkab sharoitda kechadi. Bu davrda Turon o‘lqasidagi Xorazm, Shosh, Buxoro va Samarqand hukmdorlarining noahilligi, tang nazarligi tufayli

mo‘g‘ullarning Turkistonga qilayotgan hamlalari kuchayib, Chingizzon lashkarboshilari Movarounnahrdagi yirik shaharlarni birin-ketin beayov bosib olishga muvaffaq bo‘lganlar. 1221 yilning jumad ul-avval (iyul) oyida Chingizzon lashkarboshilaridan biri Xulaguxon o‘zining yosh o‘g‘li, tumonat lashkari bilan Urganch qal’asini o‘rab oladi. Urganch shahri qamal ichida qolib, aholi nihoyatda og‘ir sharoitda azob chekayotgan bir asnoda munkillab qolgan, yetmishdan oshgan Najmuddin Kubro xalq orasidan lashkar to‘plab, qo‘lida qurol bilan qal’ani bir necha kun davomida dushman hamlalaridan saqlab turadi.

Najmuddin Kubro yuksak obro‘ga ega bo‘lsa ham, kamtarona hayot kechirgan. Ammo u kishining ba’zi muridlari mamlakat miqyosida shunchalik nufuzga ega bo‘lganlarki, hatto Fahriddin Roziy kabi faylasuf va sulton Muhammad Xorazmshoh ham ularning raqobatidan havotirlanganlar. Masalan, "Sulton ul-ulamo" laqabiga ega bo‘lgan Jaloliddin Rumiyning otasi Bahovuddin Valad Balh shahrining uch yuzga yaqin faylasuf olimlari bilan babs yurgizgan va ularni yunon falsafasi bilan ortiqcha shug‘ullanishda ayblagan. Najmuddin Kubroning boshqa bir shogirdi, o‘z navbatida shayx Farididdin Attorning murshidi bo‘lgan Xorazmlik Majiddin Bag‘dodiy hoqimiyatdagi ishlarni tanqid qilgani uchun qatl qilingan. Lekin uning minglab shogirdlari bo‘lgan. Ba’zida sulton Muhammad Xorazmshohning o‘zi ham shayxlarning xuzuriga kelib, ularni ziyyarat qilib turgan.

Najmuddin Kubro mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi o‘z muridlari bilan shiddatli jangga kirib, shahid bo‘lgan. Jangdan keyin, u kishining jasadini darhol topisha olmagan. Chunki ul zot kiyma-kiyma qilib tashlangan edilar. Shahid bo‘lganliklari haqidagi ma’lumotni hijriy (710) (1311) yilda yozilgan Rashididdin Fazlillohning "Jomeat ul-tavorix" ("Tarixlar to‘plami") asarida uchratamiz. Chingizzon shayx Najmuddin Kubroning mashhurliklarini eshitgan bo‘lganligidan Xorazmga hujum qilish oldidan, u kishiga chopar yuborib, "men Xorazmni qatliom qilmokchiman, shuning uchun Sizdek ulug‘vor shaxsni u yerdan ketib, bizga qo‘shilishingizni so‘rayman", degan. Ammo shayx unga javoban: "Men yetmish yil umrim davomida Xorazmliklar bilan turmushning achchiq-chuchugini birga tortganman. Endi ular boshiga balo-qazolar yog‘ilayotgan paytda qochsam, muruvvatdan bo‘lmaydi", degan. Bu voqeа hijriy 618 (1221) yilda ro‘y bergan. Bu haqdagi ma’lumot "Tarixi guzida" ('Tanlangan tarix'), Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns", keyinchalik esa, "Ravzat ul-safo", "Habib us-siyar" va boshqa mashhur tarixiy kitob va tazkiralarda ham uchraydi. Hijriy 733 (1334) yilda Xorazmga safar qilgan mashhur arab sayyohi Ibn Battuta Urganch shahridan chiqa berishdagi zoviyada Najmuddin Kubroning maqbarasi va boshqa ulug‘larning mozorini ko‘rganligini yozadi.

Najmuddin Kubro bir necha ilmiy asarlar va ruboiylar yozganki, ular juda ko‘p tazkiralarda uchraydi. U o‘z qarashlarini arab tilida yozgan bir qator

risolalarida bayon qilgan. Ulardan asosiyлари "Favo'ih al-Jamol va favoиh al-jalol", "Al-Usul al-ashara", "Risolat al-ho'if al-ha'im min laumon al-la'im" va boshqalardir. Bu asarlar arab mamlakatlari va Turkiyada bosib chiqarilgan. Uning arab tilida yozgan "Risolatun odob ul-zokirin" ("Zikr aytuvchilar odobi haqidagi risola") asarining Abdurahmon Jomiyning shogirdi Abdul Tofur Loriy tomonidan fors tiliga qilingan tarjimasi bizgacha yetib kelgan va O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqdshunoslik institutida № 503-H raqami ostida saqlanmokda. Bu asarning asl nomi arabcha "Al-usul al-ashara" ("O'n usul" yoki "O'n asos") deb ataladi.

Ma'lumki, Kubro haqiqat asroriga yetishish maqsadida o'z tasavvuf maktabini yaratdi. Uning aqidasiga ko'ra, inson o'z mohiyati e'tibori bilan mikrokosm, ya'ni kichik olamni tashkil etadiki, u makrokosm, ya'ni katta dunyo bo'lgan koinotdagi barcha narsalarni o'zida mujassamlashtiradi. Ammo ilohiy sifatlar yuqori samoviy doiralarda birin-ketin o'ziga xos maqomlarda joylashganligidan, haqiqat yo'lini qidiruvchilar bunday yuksaqliklarga ko'tarilib, ilohiy sifatlarga ega bo'lishi uchun, ya'ni kamolotga erishishi uchun, ma'lum riyozatli yo'llarni o'tishlari zarur.

Buning uchun esa, har bir kishi o'n asosga tayanmog'i kerak:

1. **Tavba**- o'z hohishi bilan Haq taologa hech bir ko'rsatmasiz yuzlanishdir. Kishi o'z irodasi bilan Xudoni sevishi va o'zining "meni"dan kechishi kerak. Tavba Xudo tomon yuz tutgan barcha kishilarning har qanday gunohlardan forig' bo'lishidir. Gunoh shunday narsadirki, u dunyoviy yoki ilohiy bosqichlardan tashkil topganiga qaramasdan Alloh taolodan yiroqlashtiradigan amaldir.

2. **Zuhd fi-dunyo**- bu dunyoda ham, uning tashqarisida ham, nimaiki lazzat tomon boshlasa, undan tiyilishdir. Oz yoki ko'p bo'lsa ham, biror molu mulkka, jangga yoki bo'lmasa biror mansabga o'z tabiiy vafotigacha rag'bat yoki moyillik ko'rsatish, zuhddan chiqish hisoblanadi.

Zuhdning mohiyati dunyo va oxiratga rag'bat qo'yishdan voz kechishdir. Ichki lazzat, sharob ichish, nikohiy ishlarga ruju' qo'yish, mansab va oliv martabalarni qo'msash kabi rohatlarga o'hshash his-tuyg'ulardan voz kechishdir. Yillar davomida xayrli ishlari bilan band bo'lib, yer ishlari bilan shug'ullanish va shunga o'xshash boshqa faoliyat ta'sirida dunyoviy narsalardan ko'ra, oxiratga ko'proq tamoyil va rag'bat ko'rsatish maqsadga muvofikdir. Chunki dunyo foniylar bo'lib, oxirat boqiyidir.

3. **Tavakkal**- Xudoga ishonch jihatidan bu turmushdagi barcha ikirchiqirlardan voz kechishdir. Shaxsning dunyoga rag'bat ko'yishi molu dunyo va mansab orttirish uchun tashabbus ko'rsatishga sabab bo'ladi. Tavakkal dildan Xudoga ishonish bo'lib, uning ulug'vorligini e'tirof etishdir. Maqsadga erishish mahalida tavakkal birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

4. *Qanoat* - hayot kechirishni ta'minlaydigan oz narsa bilangina qanoatlanish, o'z tarafiga tortadigan barcha nozu ne'matlardan va hirslardan (ovqatni ko'p iste'mol qilish, qimmatbaho kiyimlarga havas quyish, o'yinkulgi, bekorchilik va boshqalardan) yuz o'girish.

5. *Uzlat*- tanholikla utirib, ruhni mustahkamlash, odamlar bilan muomalani to'xtatish, gaplashmaslik, eshitmaslik, qaramaslik va turlife'latvordan aloqani uzishdir. Uzlatning asl maqsadi hilvatda ado qilinganligi sababli his-tuyg'unijilovlashdir. Xilvat va uzlatga ketish hissiyotlarning bosilishiga olib keladi.

6. *Mulozamat az-zikr (uzluksiz zikr)*- o'z hohishicha Xudoning ismini fikrida yod qilib turish va butun qalbni u bilan to'ldirish. Shunday qilinganda, pastkashlik, hasad, ochko'zlik, ikkiyuzlamachilik kabi razillik va riyokorliklar ko'ngilga yo'l topa olmaydi.

7. *Tavajjuh*- butun ichki mohiyatni Xudoga qaratish, unga cheksiz muhabbat qo'yish, undan boshqa narsa borligini his etmaslikdir. O'z vujudini yo'qotish, Haqning abadiy va azaliy vujudini boshqa bilim ila ko'ra bilishdir.

8. *Sabr*- o'z ixtiyori bilan nafs doirasidan mashaqqatlar chekib bo'lsa ham, o'zini olib qochishdir. Maqbul bo'lgan to'g'ri yo'ldan adashmasdan borish uchun, kishi o'z mayllarini so'ndirishi lozim. Bundan ko'zlangan maqsad shundaki, dil quduratlardan poklanishi, rux esa, agar nafs natijasida zanglanib qolgan bo'lsa, jilo topishi zarurdir.

9. *Muroqaba* (tafakkurga g'arq bo'lish) - erishilgan darajada mushohada yuritish, qalbni arzimas his-tuyg'ulardan holi qilib, tozalash va hotirjamlikka erishish. Kurash, riyozat chekish yo'li bilan hosil qilingan yo'l haqqoniy tuhfa etilgan tabiiy amal bo'lib, yaratilish haqiqatining g'alabasi sifatida paydo bo'ladi va shuning uchun ham rivojlanib boradi.

10. *Rizo*- shaxsning nafs erkinligidan chiqib, Xudo hushnudligiga kirishi va azaldan nimaga ishongan bo'lsa, o'shani bo'yniga olishdir. O'z irodasini toabad qoladigan narsaga voqelik sifatida qaytarib, o'limga o'xshash o'tkinchi narsaga e'tiroz bildirishdir.

O'n usuldan chiqariladigan natija shundaki, o'lmaydigan shaxsning yodi uning nafsin mag'lubiyatga uchratgan sifatlarda yashaydi.

Najmuddin Kubro shahid bo'lgandan so'ng, uning ta'limotini shogird- lari davom ettirib, Markaziy Osiyo Kubraviya maktabini vujudga keltirdilar. Bu birodarlik firqasi a'zolarini birlashtirgan narsa rasmiy tashkilot emas, balki ta'limotning ruhi va maqsadi edi.

Tashkiliy jihatdan Kubraviya honaqohlarida o'z-o'zini boshqaradigan ozod anjuman bo'lib, uning boshida xalifa turar edi. 1221 yilda vafot etgan Najmuddin Kubroning shogirdi Sayfiddin Bahorziy tomonidan Buxoro

yaqinidagi Soktariy qishlog‘ida tashkil etilgan ana shunday xonaqoh Najmuddin Kubro nomi bilan atalar edi. Bu yerdagi Kubraviya jamiyati XVII asrning oxirlarigacha faol ish ko‘rib, uning a’zolari Kubro g‘oyalarini Xitoyning G‘arbiy chegaralarigacha yoydilar. Kubroning boshqa bir shogirdi, 1252 yilda vafot etgan Sa’diddin Hamaviy Xurosonning Bahrabod deb atalgan maskanida honaqoh barpo qilib, uning atrofida to‘garak tashkil etdi. Kubraviya maktabi bir qator mustaqil shahobchalar vujudga kelishiga sabab bo‘ldiki, ular musulmon dunyosi Sharqida keng tarmoq otdi. Yuqorida aytilganlar shundan guvohlik beradiki, Najmuddin Kubro ta’limoti butun musulmon Sharqi mamlaqatlarida keng tarkalgan bo‘lib, hozirda ham uning ko‘rinishlarini uchratish mumkin.

Kubroviyada quyidagi o‘ziga xos jihatlar ko‘zga tashlanadi: Najmuddin Kubro "Beshikdan to qabrgacha ilm izla" hadisi sharifiga amal qilgan. U diniy, ilohiy, laduniy ilmlar bilan birga dunyoviy ilmlarni ham o‘rganishga erishdi. Diniylikni dunyoviylik bilan bog‘lashga harakat qilish ushbu tariqatning asosiy hususiyatidir.

Ma’lumki O‘rta Osiyo xalqlari XIV asrning 70-yillaridan boshlab mo‘g‘ul bosqinchilari zulmidan qutulib, vayron qilingan shahar va qishloqlarni, sug‘orish tarmoqlarini, hunarmandchilik va savdo-sotiqni tiklash, ularni ma’lum izga solish bilan, ularning dunyoviy masalalarga qiziqishlari ortib boradi.

Mana shunday bir sharoitda Movarounnahrda tasavvuf ta’limotining yangi suluki, yangi oqimi naqshbandiya vujudga keladi. Naqshbandiya sulukining asoschisi hazrat Bahouddin Naqshbanddir. U kishining asl ismi Muhammad Ibn Muhammad Jaloliddin bo‘lib, Xojai Buzruk, shohi Bahouddin Naqshband, Bahouddin Balogardon nomlari bilan musulmon olamiga mashhurdir. U Buxoro yaqinidagi qasri Hinduvon qishlog‘ida (1318 yilda) tug‘ilgan. Naqshbandiya tariqatida dunyoviy, hayotiy masalalarga jiddiy e’tibor beriladi. U tarki dunyo qilishga, dunyo ishlaridan voz kechishga qarshi chiqib, kishilarni real hayot ishlari bilan band bo‘lishga, dunyo lazzatlaridan bahramand bo‘lishga, buning uchun mehnat qilish, bilim olish, halol yashashga chaqiradi. Yusuf Hamadoniy, Abduholiq G‘ijduvoniy va Bahouddin Naqshband asos solgan tariqat yo‘lining 11 ta asosiy qoidasi bo‘lib, ular quyidagilar:

1. Xilvat dar anjuman;
2. Safar dar vatan;
3. Nazar dar qadam;
4. Xush dardam;
5. Yodkard;
6. Bozgasht;
7. Nigohdosht;
8. Yoddosht;
9. Vuqufi zamoni; 10. Vuqufi qalbiy; 11. Vuqufi adadiy.

Bahouddin Naqshband tomonidan asoslangan «Naqshbandiya» tariqatining nomi uning yuqorida keltirilgan qoidalaridan kelib chiqadi. Bu qoidalarda aytilishi bo‘yicha: «Zohiran xalq bilan, botinan haq bilan» yoki «Qo‘ling mehnatda bo‘lsin, dilingda olloh taoloning naqshi bitilgan bo‘lsin (“dil ba yoru, dast ba kor”）», degan g‘oya ilgari suriladi.

Bahouddin Naqshbandning o‘zi dehqonchilik bilan, hunarmandchilik bilan kun kechiradi. U o‘z uyida hech qanday mol-mulk va boylik saqlamagan.

Bahouddin Naqshband o‘z tariqatida inson hamisha qalban, ya’ni ma’naviy yuksak bo‘lishi, jisman yerdan, vatandan uzilmay yashashi kerakligini uqtiradi. U shunday deydi:

*Bizda hech narsa yo‘q
hech kamimiz yo‘q,
o‘scha hech narsa deb,
hech g‘amimiz yo‘q.*

Naqshbandiy tariqati XIV asrda paydo bo‘lgan bo‘lsa ham, Afg‘oniston, Hindiston, Indoneziya va boshqa Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari o‘rtasida keng tarqalgan. Bu tasavvuf tariqati Sharq xalqlari ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy-madaniy hayotida juda katta rol o‘ynaydi. Bu ta’limotda o‘z mehnati bilan kun ko‘rish, yashash,adolat ulug‘lanib, boshqalar mehnati bilan kun kechirish, tekinxo‘rlik kishilarga qilinadigan ijtimoiy zulm, istibdod qat’iyan qoralandi.

Hozirgi kunda Mustaqil O‘zbekistonimizda o‘tmish ma’naviy me’rosimiz, jahon umuminsoniy qadriyatlar chuqur o‘rganilayotgan va tiklanayotgan bir sharoitda tasavvuf falsafasini ham o‘rganish, u erishgan yutuqlardan g‘oyalardan komil insonni tarbiyalashda foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Xullas, tasavvuf ta’limoti o‘tmishda butun musulmon xalqlari ijtimoiy va ma’naviy hayotiga chuqur kirib borib, bu xalqlarning ilmfani, madaniyati va adabiyoti rivojiga juda katta ijobiy ta’sir ko‘rsatganligi bizga ma’lum. Sharqning deyarli barcha nufuzli shoir va yozuvchilari, mutafakkir va ulamoyu-hukamolari tasavvuf falsafasidan ma’naviy oziqlanib uning insonparvarlik, haqsevarlik, adolatlilik g‘oyalardan ruhlanganlar. Biz bugungi kunda tasavvufni o‘rganmay turib o‘zimizning o‘zligimizni ya’ni o‘rta asrlar davri tariximiz haqida xalqimizning ma’naviy va hayoti haqida o‘scha davr falsafiy va badiiy tafakkuri haqida to‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lishimiz mumkin emas. Tasavvuf falsafasini o‘rganish va uni egallah xozirgi kunda bizning mustaqil O‘zbekiston sharoitida biz o‘rganayotgan falsafada komil inson muammosini to‘g‘ri hal qilishda ham muhim ahamiyatga ega.

3-mavzu. XX ASR O'ZBEK FALSAFASI VA UNING RIVOJLANISH STRATEGIYASI.

Reja:

3.5. «Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» o'zbek falsafasining zamonaviy konsepsiysi.

3.6. Ma'naviy barkamol avlod – buyuk kelajak bunyodkori.

3.7. XX asr boshlari jadid ma'rifatparvarlik harakati va uning falsafiy mohiyati.

3.8. Mustabid sovet tuzumi davrida o'zbek falsafasi. Totalitar mafkuraning falsafaga ta'siri.

3.1. «Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» o'zbek falsafasining zamonaviy konsepsiysi.

Dunyoda ikki yuz ellikdan ortiq davlat, minglab xalq va elat bor. Ular orasida O'zbekiston deya atalmish go'zal va betakror mamlakatning o'z o'rni va nufuzi, o'ziga xos taraqqiyot yo'li borligi qalbimizga iftixor bag'ishlaydi. Shu bois ham Mustaqillik biz uchun benihoya qadrnidir. Qadrli narsa esa osonlikcha qo'lga kiritilmasligini barchamiz yaxshi bilamiz. Vatanimiz tarixi bir necha ming yillar bilan bo'ylashadi. Bu diyor jahon tamaddunining tamal toshini qo'ygan, ilmfani, san'ati, madaniyati, ulkan madaniy-ma'naviy merosi, olimu fuzalolari bilan dong taratgan. Shu bois yaqin o'tmishda qariyb bir asr davomidagi mustamlaka davri, ungacha ham haq-huquqlari poymol etib kelingan xalqimiz ruhini hech qanday kuch so'ndirolmagan. Shu nuqtai nazardan o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgani, 1990-1991 yillarda Navro'z bayrami qayta tiklangani, Ramazon va Qurbon hayitlari bayram kunlari deb e'lon qilingani xalqimizning

asriy orzu va armonlari ro'yobga chiqishi, milliy qadriyatlarimiz tiklanishi yo'lidagi dastlabki yirik qadamlar bo'ldi.

Milliy davlatchiligidan barpo etish yo'lidagi zalvorli qadam sifatida Mustaqillikning dastlabki yillarda dastlab uning kafolati bo'lmish Konstitusiya qabul qilinganini alohida ta'kidlash joiz. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish bosh vazifa etib belgilanib, mamlakat siyosiy hayotida ko'ppartiyaviylik muhiti qaror topdi, nodavlat tuzilmalar, jamoat tashkilotlari va o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyati takomillashtirildi, sud-huquq tizimida, ommaviy axborot vositalari, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Darhaqiqat, mamlakatimiz tarixida o'chmas sahifa ochgan buyuk istiqlol tufayli O'zbekiston o'tgan davr mobaynida jahon hamjamiatidan munosib o'rin egallab, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil ilgarilab bormoqda. Ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagি nutqi bu o'zgarishlarni yanada teranroq anglashimiz, idrok etishimizda muhim ahamiyat kasb etdi. Davlatimiz rahbarining har bir so'zleri xalqimiz qalbida iftixon tuyg'ularini yanada jo'sh urdirdi. Shubhasiz, bundan ruhlangan xalqimiz davlatimizning har qarich yerida yuksalish davri bo'lishi uchun azmu qaror qilmoqdalar.

Muhtaram Yurtboshimiz nutqida ta'kidlaganidek, Milliy yuksalish deganda, biz mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimizning hayot darajasi va turmush sifatini har tomonlama yuqori bosqichga ko'tarishni tushunamiz. Ilm-fan, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport sohalarida bo'layotgan katta o'zgarishlar hayotimizda muhim voqelikka aylanmoqda.

Yurtimizda ijtimoiy rivojlanish bo'yicha o'ziga xos tizim shakllanmoqda. Bu borada 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirilayotgani, "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Yoshlar – kelajagimiz", "Besh ijobiy tashabbus" kabi dasturlar aholini yangicha fikrlash va ishlashga safarbar etishda muhim rol o'ynamoqda. Buning natijasida, hatto mamlakatning eng chekka hududlari, markazlardan olisda joylashgan qishloqlarning ham me'moriy qiyofasi tubdan yangilanib, aholining turmush farovonligi yuksaltirilmoqda.

Sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, ilm-fan, ayniqsa, ta'limtarbiya sohalarida bo'layotgan ulkan o'zgarishlarning barchamiz guvohi bo'lib turibmiz.

Shu o'rinda Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda umumta'lim maktablarida 11 yillik tizim tiklanganini, maktab ta'limini rivojlantirish masalasi buyuk umummiliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanayotganini alohida

ta'kidlash joiz. Ayniqsa, bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta'lim sohasi ham jadal rivojlanmoqda. So'nggi uch yilda 35 ta yangi oliy o'quv yurti tashkil qilingani, ularning umumiy soni 112 taga yetgani, e'tiborlisi, bularning 13 tasi nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari ekani sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning yorqin isbotidir.

Ertangi kelajagimiz bo'lmish yoshlar kelgusida ana shu ulug'vor ishlarning munosib davomchilaridir. Shu nuqtai nazardan, yangi o'quv yilining ilk – "Mustaqillik" darslarida istiqlol yillarida, ayniqsa, keyingi uch yilda amalga oshirilgan islohotlar, Harakatlar strategiyasida belgilangan "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan ustuvor g'oya, Prezidentimiz nutqi mazmun-mohiyati xususida o'quvchi-yoshlarga keng tushunchalar berildi, ularning fikr-mulohazalari tinglandi. Quvonarlisi, yoshlar Yurtboshimiz nutqining har bir satrida hayot borligini, har bir so'zida O'zbekistonimizning yuksak taraqqiyotiga qaratilgan aniq maqsad borligini teran anglab yetdi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, bundan keyin ham biz pedagoglar ma'naviyat va ma'rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan ustuvor g'oya asosiy dasturilamalimizdir. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, vijdoni, ma'naviyati bor inson Vatanni albatta yaxshi ko'radi. Vijdon, ma'naviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir.

Mustaqillik yillarida milliy istiqlol g'oyasi xalqimizning milliy tiklanishiga xizmat qildi. G'oyaviy kurashlarda kunimizga yaradi. Xalqimizni birlashtirdi, buzg'unchi g'oyalar mohiyatini tushuntirdi. 2017 yildan boshlab O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi – Milliy yuksalish bosqichiga kirdi. Konstitusiyamizga asoslangan, xalqimizning tub manfaatlariga javob beradigan O'zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi amalda. Keyingi yillarda erishilgan yuksak marralar xalqimizni baxtli qilishga qaratilgan islohotlar samaralarini yaqqol ko'rsatmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarurligi alohida ta'kidlandi. 2019 yil 8 aprel kuni Prezidentimizning O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi farmoyishi qabul qilindi.

Mazkur hujjat qabul qilinishining zarurati nimalarda namoyon bo'ladi? Rivojlangan mamlakatlarda milliy g'oya davlat maqsadlarini xalq maqsadlariga uyg'unlashtiradi. "Bir hudud – bir xalq" e'tiqodini shakllantirib, mamlakatlar aholisini birlashtirgani, umumiy maqsad yo'lida safarbar qilganiga misollar ko'p. Ularning aksarida milliy g'oya milliy qadriyatlarga bog'lab singdirilganini ko'ramiz.

Masalan, “Tarix – sintoizm – konfusiylar – samuraylik irodasi” qadriyatlarini negizida yapon milliy g‘oyasi ishlab chiqildi. Odamlarga ishonch, rag‘bat berildi. Maktabning tarbiyaviy ishlar tizimi, g‘oyasi isloh qilindi. Uyushgan millatning juda qattiq mehnati o‘laroq, dunyo “Yapon mo‘jizasi”ning guvohi bo‘ldi. Xitoyda ham milliy zaminga – Konfusiy ta’limotiga murojaat qilindi. Konfusiy merosidan diniy ta’limot emas, balki axloqiy (xulq uchun) asos sifatida foydalandi. Yoshlar tarbiyasi “Ona Vatanga xizmat qilish va sodiq bo‘lish” g‘oyasi asosida tashkil etildi. Yoshlarga shaxsiy va milliy manfaatlarni uyg‘un tutish o‘rgatib borildi.

AQShda davlat mafkurasi yo‘q, deb hisoblanadi. Ammo amerikaliklarning ma’naviyatini o‘rgangan olimlar AQSH kabi mafkuralashgan davlatni topish qiyin, deyishadi. AQShda mafkura vazifasini “Amerika orzusi” (American Dream) bajarmoqda. U Amerika davlatining oliy qadriyatlarini yig‘indisi, millatning ma’naviy onasi deb tushuniladi. “Amerika orzusi”ning asosiy tushunchalarini shaxs erkinligi, erkin tadbirkorlik, demokratiya, muvaffaqiyatga erishishga qaratilgan mehnat tashkil qiladi. Amerikaliklar mafkura bo‘lmasa, davlat boshqaruvida tizimlilik bo‘lmaydi, tizimsiz esa samarali siyosat bo‘lishi mumkin emas, deb hisoblashadi. Shu bois, amerikalik davlat arboblaridan biri U.Sefayr “Agar Amerika tuzumi – skelet bo‘lsa, amerikancha orzu – uning qalbidir“ degan edi.

Janubiy Koreyada ham milliy g‘oya xalqning milliy o‘zligiga va yoshlar tarbiyasiga qurildi. Maktabda milliy g‘oya yoshlar ongiga urf-odatlar, axloqiy ideallar orqali singdirib borildi. Yoshlarni hayotga tayyorlashda oila, mакtabgacha ta’limga alohida e’tibor qaratildi. Hozir ham koreys oilalarida umumiy byudjetning ellik olti foizi bolaning ta’lim-tarbiyasi, inson kapitali – Human Capital uchun sarflanmoqda.

Mamlakatimizda milliy g‘oyaga yangi davr, millatimiz tarixinining yangi bosqichi talablaridan kelib chiqqan real talablar qo‘yilmoqda.

Ilgari milliy g‘oyani tushunish va tushuntirishda noqulayliklar uchrab turar edi. Masalan, odamlarning quloqlari milliy g‘oya davlat va xalq birligi tarannumini eshitardi. Lekin ko‘zlarimiz hokimliklar, vazirlik va idoralarning oldidagi temir panjaralarni ko‘rar edi. Xalq davlat organlariga xizmat qilishi kerak, degan noto‘g‘ri qoida amalda edi. Fuqaro hokimiyatga emin-erkin kirolmas, dardini aytolmas edi. Chunki amalda xalqdan davlatni ajratuvchi temir panjara bor edi. Panjaralar kesib tashlandi. Lekin ayrim amaldorlarimiz ongida bu panjara haligacha turibdi. Tafakkurdagi temir panjaralarni qo‘porib tashlash qiyin kechyapti. Milliy g‘oya ana shunday vaziyat talablaridan kelib chiqib yangilanmoqda.

Ilgari milliy g‘oya ijtimoiy-gumanitar, ma’naviy-ma’rifiy masala, deb tushunildi. Bugun uning iqtisodiy-siyosiy poydevori – O‘zbekistonni

rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi bor. Taktikasi – har yilning bosh Dasturi, mablag'i, ijrochilari bor. Demak, yangi davrda milliy g'oya gumanitar masala bo'lib qolmaydi. Chunki uning natijasiga qaratilgan iqtisodiy tizim ishlamoqda. Milliy g'oya ro'yobi uchun demokratik muhit hal qiluvchi rol o'ynaydi. Demokratiya – to'g'rilik, rostlik,adolat, qonuniylikning sharti. Nohaqdan – haqni, zolimdan – mazlumni, zo'ravondan – ojizni himoya qilishga xizmat qiladi. Shu haqda jar soladi. Jamoatchilik nazoratini ishga soladi. Chunki milliy g'oya aholining bir toifasi emas, hamma yaxshi yashasin, hayotdan rozi bo'lsin, deydi. Mamlakatdaadolat, qonuniylik buzilar ekan, demokratiya ham, milliy g'oya ham quruq shiorlar bo'lib qoladi. Xalq norozi bo'ladi. Xalq norozimi, demak, milliy g'oya o'z bongini urmayotgan, vazifasini bajarmayotgan bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohotlar milliy g'oya xalqimizning kuch-qudratiga aylanishi uchun sharoit yaratdi. Endi gap milliy g'oyani har bir o'zbekistonlikning niyatiga va harakatiga aylantirishda. Yaxshi fikr yaxshilikka, yomon fikr yomonlikka yo'l ochadi. Axborot maydonini nuqul negativ kontent egallab olmasligi uchun pozitiv, yaxshi, nekbin mazmun, mavzular bilan mutanosib to'ldirishga alohida e'tibor qaratmog'imiz zarur. Negaki, biz kattalar ham, bolalarimiz ham har kuni yaxshi-yomon fikrlardan ta'sirlanamiz. Bir-birimiz bilan ijtimoiy tarmoqda tortishamiz, aytishamiz, urishamiz. Lekin biz bularning negativ fikrlardan boshlangan g'oyalar kurashi ekanligini anglamaymiz.

Milliy g'oyamizning bosh g'oyasi "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari". Yuksalish – harakatni talab qiladi. Demak, milliy g'oyamiz harakatlar mafkurasi bo'ladi. Milliy g'oya odamlarga islohotlar kim uchun, nima uchunligini, ahamiyatini tushuntiradi. Yotganni – o'tqazadi, o'tirganni – turg'izadi, turganni – yurgizadi, yurganni – yugurishga undaydi. Tushuntiradi. Chunki shularni tushunmagan odamlar birlashmaydi, ko'r-ko'rona, yuzaki ishlaydi. Biri ishlasa, ikkisi tomoshabin bo'ladi. Tushunganlar birlashib, ixtiyoriy, zavq bilan ishlaydi. Natijada hayotidan rozi bo'ladi.

G'oyaviy birlik odamlarning qaysi xatti-harakatlarida ko'rindi? O'zaro mehribon, hamfikr va bir-birini qo'llab-quvvatlayotganida, ishda, o'qishda, innovatorlikda, tadbirkorlik, ilm, ijodda faoliyklarida va buni milliy g'oyaga bog'lab tushunishlarida, oila, ishxona, real va virtual hayotda o'zaro ahilliklarida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, milliy g'oya ro'yobiga xalaqit beruvchi buzg'unchi g'oyaga qarshi tez va uyushishlarida. Masalan, 2019 yil aprel-may oylarida davlat tili bo'yicha boshlangan xeshteg bizning birlasha olishimizni ko'rsatdi. Baxtli, hayotdan rozi bo'lishiga ishonchida, so'z va amal birligida ham milliy g'oya yaqqol ko'zga tashlanadi.

Milliy g'oyamizning mohiyatini bitta so'zda aytish mumkin bo'lsa, bu so'z – rozilik. Bu fikr davlatimiz rahbarining xalqimiz bilan samimiy suhbatlarida

takror va takror ta'kidlab, tushuntirilmoqda. Zero, milliy g'oya ro'yobi xalqning muayyan vaqt va makonda o'zini baxtli deb his qilishida, bu esa uning shukronalarida – hayotdan roziligidagi namoyon bo'ladi.

Milliy g'oya har bir o'zbekistonlikning, oddiy odamlarning mana shunday shukronasiga vosita bo'ladi. Mamlakatimizda rozilik, baxtiyorlik foizi borgan sari oshib boraveradi. Ertaga odamlar bugungidan yaxshiroq baxtni orzu qiladi. Bu esa milliy g'oyamizni boyitadi, yangilaydi. Demak, xalqimizning o'z hayotidan rozilik darajasi – milliy g'oyamiz ro'yobining darajasini ko'rsatadi.

Davlatimiz rahbari "Ma'naviyat – eng ta'sirchan qurolimizdir", degan qat'iy fikrni bildirdi. Bu – bejiz emas. Chunki "Biz nima uchun o'zgarishimiz, birlashishimiz, kurashishimiz kerak?". Bu savolga yakdil g'oyaviy javobi yo'q jamiyat – quroli yo'q qo'shinga o'xshab qoladi. Ma'naviyat va ma'rifat, mafkuraviy tarbiya O'zbekistonning turli millat, din, kasb, yoshlarga mansub xalqini g'oyaviy qurollantiradi. Islohotlar nima uchun, kim uchun kerakligini xalqqa uning orzulari bilan bog'lab uqtiradi, ko'rsatadi. Tushungan xalq – g'oya bilan qurollangan xalqqa aylanadi. Har birimizdan Vatanning bir o'g'il-qizi sifatida o'z lavozimimizga munosib bo'lib ishlash va yashash burchini eslatadi. O'z milliy g'oyasini anglagan xalqni to'xtatib bo'lmaydi.

3.2. Ma'naviy barkamol avlod – buyuk kelajak bunyodkori.

Mustaqillik sharofati bilan xalqimiz ma'naviy zug'umlardan ozod bo'ldi, erkin fikrga, milliy tafakkurga keng yo'l ochildi. Ona tilimiz, milliy qadriyat va an'analarimiz ramzi, o'zligimiz belgisi bo'lgan ko'hna va navqiron ayyomimiz – Navro'zi olamga bo'lgan e'tibor ham Mustaqillik sharofatidir. Respublikamiz bugun o'z oltinini, boshqa nodir va qimmatbaho metallarni mustaqil qazib chiqarib, qayta ishlarimoqda. Yer, yer osti boyliklari, boshqa tabiiy boyliklar, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy imkoniyatlarimiz bugun milliy boylik bo'lib xalqimiz turmushi farovonligi yo'lida xizmat qilmoqda.

Bu o'zgarishlar mamlakatimiz taraqqiyotida mazmunan yangi bosqichni boshlab berdi va teng huquqli asoslarda xalqaro iqtisodiy, ilmiy va madaniy sohalarda faol hamkorlik qilish imkoniyatini ochdi. Bugungi kunda davlatimizda yo'lga qo'yilgan eng muhim ustuvor vazifalardan biri ma'naviy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash, ta'lim va maorif tizimini takomillashtirish, milliy uyg'onish g'oyasi asosida ma'naviy va ruhiy jihatdan yangi avlodni voyaga yetkazishdir.

Hozirgi kunda yurtimiz aholisining 60 foizdan ko'prog'ini yoshlar tashkil etadi. Mamlakatimizda yoshlarning ma'naviy, axloqiy jihatdan komil inson bo'lib voyaga yetishi yo'lida barcha imkoniyat eshiklari ochilmoqda. Hukumatimiz tomonidan yoshlarimizning xorijiy mamlakatlardagi oliy o'quv yurtlarida tahsil olishlari uchun ham keng yo'l ochilgan.

Men chin insonni vatanparvar shaxs qiyofasida ko‘raman. U qaysi sohada o‘qib-ishlamasin, qaysi kasb egasi bo‘lmasin, o‘z taqdirini o‘zi yashayotgan yurt va millat taqdiridan ayro tasavvur eta olmaydi. Mustaqillik milliy o‘zligimizni anglash baxtini berdi. O‘zini anglagan – dunyoni anglaydi. O‘zini anglagan – olamni anglaydi. O‘zligini anglash har bir insonni chin inson bo‘lib yashashga, hayotda o‘z o‘rnini topishga undaydi. Jamiat taraqqiyoti, Vatan va millat, kelajak oldidagi burchini tushunishga da’vat etadi. Bugun qaysi kasb egasini olmang, u mustaqillik sabab o‘zi ishlayotgan sohada yuz bergen ijobiy o‘zgarishlar haqida berilib so‘zlaydi. Istiqlolning har bir yili yoshlarimiz hayotiga ham yangi-yangi o‘zgarishlar olib kirmoqda.

Bugun barkamol avlodni voyaga yetkazish borasida respublikamizda olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlarni jamiyatning barcha jabhalarida kuzatish mumkin. Prezidentimiz rahbarligida amalga oshirilayotgan barcha sayharakat va islohotlarning pirovard maqsadi sog‘lom avlodni voyaga yetkazishdir. Mustaqilligimizning ilk yillardanoq sog‘lom avlod tarbiyasi eng ustuvor vazifa deb belgilanib, barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularni rag‘batlantirib borishga ham alohida e’tibor bilan qaralayotir. Bu esa respublikamiz aholisi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim bir bosqich vazifasini o‘tayotir. Aholisining qariyb yarmi bolalar va o‘smirlardan iborat bo‘lgan mamlakatimizda yosh avlodning har tomonlama barkamol bo‘lishini ta’minalash eng muhim masalalardan biridir. Bu borada puxta o‘ylangan kuchli ijtimoiy siyosat tizimi bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etib kelinmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarni ilmli, yuksak ma’naviyatli komil insonlar qilib tarbiyalashga katta e’tibor qaratilayotganligi bejizga emas. Yurtimizda yuksak huquqiy madaniyatli kishilar qanchalik ko‘p bo‘lsa, qonun ustuvorligiga erishish shunchalik oson bo‘ladi.

Uzoq tariximiz guvohlik beradiki, hech bir millatning tafakkuri, dunyoqarashi, turmush-tarzi, ma’naviy qadriyatlari o‘z-o‘zidan shakllanib qolmagan. Shu kabi intilishlar, ezgu fazilatlar, asrlar davomida xalqimiz qon-qoniga singib ibratli ko‘rinish kasb etgan. Bugungidek bir davrda ya’ni, hayot suratlari ko‘z ilg‘amas darajada shiddat bilan harakatlanayotgan zamonda chinakam ma’naviyatli va ma’rifatli odamgina inson qadrini bilishi o‘z milliy qadriyatlarini, milliy o‘zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun fidoiylik bilan, jonkuyarlik bilan kurasha olishi mumkin. Bu haqiqatni teran anglagan holda, yoshlarni – ertangi kun egalari sifatidagi mas’ulyatini yana bir bor anglatmog‘imiz darkor.

O‘zbekiston yoshlar mamlakatidir. Shu jihatdan olib qaraganda, davlatimiz kelajagi, millat taraqqiyoti bugungi yoshlarning bilimiga, g‘ayratshijoatiga, dunyoqarashiga, vatanparvarlik tuyg‘usining qanchalik

yuksakligiga, komillik darajasiga bog‘liq. Kelajagimiz erkin fikrlaydigan, mustaqil ish yurita oladigan, chet tillaridan yaxshi xabardor, yuqori texnologik tafakkurga ega bo‘lgan, Vatan va xalq manfaatlarini o‘z manfaatlaridan ustun qo‘ya oladigan, kerak bo‘lsa, Vatan uchun jonini fido qila oladigan yoshlarni talab etadi.

Inson ma’naviyatini yuksaltirmasdan turib, mamlakatimiz taraqqiyotida muvaffaqiyatlarga erishish qiyin. Aynan bu sohada O‘zbekiston Respublikasida yosh avlodning fuqarolik pozitsiyasi va faolligini kuchaytirish, uni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasbhunarlarni puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar etib tarbiyalash bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2017 yil 28 iyuldagи “Ma’naviyuma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi qarorida ham yoshlар ma’naviyatini yuksaltirishga qaratilgan aniq vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev, tomonidan 2016 yil 14 sentabrda imzolangan yangi tahrirdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun yoshlarga zamonaviy ta’lim olish, uyjoy xarid qilish va qurish, oila qurish uchun imtiyozli kreditlar olishda katta imkoniyatlar, tizimli ijtimoiy kafolatlarni taqdim etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan Yuqoridagi faol yoshlарimiz kabi ibrat sohibi 22 yoshli Alisher Sa’dullayevning Xalq ta’limi vazirining o‘rinbosari va 25 yoshli Olim To‘chiyevning Fan va texnologiyalar agentligi bosh direktorining o‘rinbosari etib tayinlangani internet sahifalarida va keng jamoatchilik tomonidan qizg‘in qarshi olingan edi.

“Yoshlar ahvoli” to‘g‘risidagi Jahon hisobotiga ko‘ra sayyoramiz aholisining 20 foizini 14 dan 24 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil qiladi. Yer yuzidagi barcha yoshlarning 85 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda istiqomat qiladi. Insoniyatning butun tarixi bilan qiyoslaganda, hozirgi yosh avlod ancha savodli deya tan olinishiga qaramay, bugungi kunda 113 millionga yaqin bola maktabga bormaydi. Umumiy hisobda zamonaviy dunyoda 130 million bolaning mutlaqo savodsiz ekani aytiladi. Dunyoda muammolar juda ham ko‘p. Ular orasida yoshlar muammosi alohida o‘rin tutadi. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarda yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq muammolarni hal qilish asosiy masalalardan biriga aylanib qoldi. Ular o‘z oldilaridagi muammolarni o‘zlar hal qilishga majbur bo‘lmoqda. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, jahonda 15 dan 24 yoshgacha bo‘lgan yoshlar hamon ishsizlik va qashshoqlik bilan to‘qnash kelmoqda.

Qisqa davr mobaynida asosiy e’tibor Yoshlar ittifoqi faoliyatiga oid normativ huquqiy hujjalarni ishlab chiqish va ushbu hujjalarni asosida respublika miqyosida unikal tizim hamda rivojlangan xorijiy davlatlar orasida namunali

yoshlar tashkilotini yaratishga qaratildi. Agar raqamlarga e'tibor beradigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi va amaliy ko'magi asosida o'tgan bir yil mobaynida Yoshlar ittifoqi faoliyatiga doir jami 26 ta Qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Jumladan: O'zbekiston Respublikasining 2 ta Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2 ta Farmoni, 4 ta qarori, 1 ta farmo yishi, Vazirlar Mahkamasining 14 ta qarori va 3 ta farmoyishi imzolandi, Yoshlar masalalari bilan bog'liq 70 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Yangi taraqqiet bosqichida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni olib borishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirzièyevning 2018 yil 16 aprelda "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ham muhim ahamiyat kasb etadi. Unda quyidagilar ustuvor yo'nalish qilib belgilandi: □ "Jaholatga qarshi ma'rifat" ulug'vor g'oya asosida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar azaliy qadriyatlarimiz ifodasi ekanligini keng èritish va bu sohadagi ilmiy-ma'rifiy faoliyatni jadal tashkil etish;

- islom va jahon sivilizatsiyasiga bebafo hissa qo'shgan ajdodlarimizning boy madaniy merosini chuqur o'rganish asosida èshlarning ongu tafakkurini shakllantirish;
- dinni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadigan buzg'unchi èt g'oyalarning asl mohiyati va maqsadlari haqida aholining, ayniqsa, èshlarning xabardorlik darajasini oshirish;
- jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarimizga èt bo'lgan g'oyalarga nisbatan toqatsizlik muhitini shakllantirish;
- jamiyatda bag'rikenglik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat, tinchlik va totuvlikni, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda diniyma'rifiy soha vakillarining daxldorlik hissi va ishtirokini yanada oshirish;
- diniy-ma'rifiy tashkilotlarning moddiy-texnika ta'minotini mustahkamlash, soha vakillari mehnatini munosib rag'batlantirish va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;
- globallashuv sharoitida jamiyatimizdagи ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va e'tiqod erkinligiga tahdid tug'dirishi mumkin bo'lgan omillarni barvaqt aniqlash va oldini olishga qaratilgan axborot-tahliliy faoliyatni kuchaytirish;
- diniy va dunèviy bilimlar uyg'unligini rivojlantirish asosida ta'lim sifatini oshirish, diniy-ma'rifiy sohada malakali kadrlarni tayèrlash, qayta tayèrlash va malakasini oshirishning yaxlit tizimini yaratish³.

³ «Диний-маърифий соҳа фаолиятини тубдан такомillashtiриш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Халқ сўзи. 2018 йил 17 апрел

Mamlakatimizda èshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. 2017 yil 5 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat sièsati samaradorligini oshirish va O'zbekiston èshlar ittifoqi faoliyatini qo'llabquvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-sonli Farmoni, 2017 yil 14 sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat sièsati samaradorligini oshirish va O'zbekiston èshlar ittifoqi faoliyatini qo'llabquvvatlash to'g'risida"gi Farmonlari chiqarildi.

O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat sièsati to'g'risida"gi Qonuni bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo'lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli èshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'èbga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi. Ushbu Qonun hujjatlarining barchasida èshlarni ma'naviy yuksak, barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishlari uchun barcha shart-sharoitlar belgilab qo'yilgan. Ularda ko'zga tutilgan maqsadlarga erishish uchun bugun ma'rifatchi zièlilarimiz ishtirokida "Adabiètga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" shiori ostida "Men sevib o'qigan kitob" va "Eng yaxshi kitobxon" respublika tanlovlарини, "Kitob bayrami" va "Bolalar kitoblari" an'anaviy respublika festivallari, "Biz Vatanga tayanchmiz", "Bizning eng katta tayanchimiz va suyanchimiz, hal qiluvchi kuchimiz èshlar" shiorlari ostidagi aksiyalar, "Adabièt va san'at – shaxs ma'naviyatini boyitish va yuksaltirish omili" mavzusida èzuvchilar, shoirlar, san'atkorlar, adabiètshunos olimlar ishtirokida uchrashuvlar tashkil qilinib, o'tkazib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi" tashkil qilindi. 2017 yil 29 noyabr O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risidagi Farmonida belgilangan yo'naliishlarda ham èshlarga alohida urg'u berilgan⁴. Jumladan, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining barqaror o'sishi, shuningdek, aholining haèt darajasi va farovonligi yuksalishi uchun zarur ijtimoiyiqtisodiy sharoitlarni ta'minlashga qodir bo'lgan fan va innovatsiya faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish;

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлигини ташкил этиш тўғрисидаги ПФ-5264-сонли Фармони. 2017 йил 29 ноябр. Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 01.12.2017 й., 06/17/5264/0339-сон)

innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish sohasiga investitsiyalarni keng jalb etish, ularning yanada rivojlanishini ta’minlovchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish; ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, èsh avlodning ijodiy g‘oyalari va ishlanmalarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish, shuningdek, ushbu faoliyatda iqtidorli èshlar faol ishtirok etishi uchun qulay sharoitlar yaratish nazarda tutilgan. Demak mamlakatda yurt tinchligi va farovonligini ta’minlash, ma’naviyatni yuksaltirish maqsadida sièsat olib borilmoqda ekan, bugungi èsh avlodni shunga munosib ravishda tarbiyalamoq lozim.

3.3. XX asr boshlari jadid ma’rifatparvarlik harakati va uning falsafiy mohiyati.

Markaziy Osiyoda, xususan, Turkistonda ma’rifatparvarlik g‘oyaviy harakat sifatida XIX asrning ikkinchi yarimida ma’lum siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy-madaniy sohalarda yuz bergan o‘zgarishlar zaminida yuzaga keldi. Bu ma’rifatparvarlik ham o‘z mohiyatiga ko‘ra, feudal tartiblari va munosabatlariga qarshi, mamlakatni feudal qoloqligidan chiqarish uchun kurashuvchi ilg‘or kuchlarning manfaatlarini ifodalovchi g‘oyaviy harakat sifatida maydonga chiqdi. Biroq Markaziy Osiyo ma’rifatparvarlarining faoliyati Yevropada kapitalizm to‘la g‘alaba qilgan, Rossiyada esa kapitalizm ayni rivojlanib borayotgan va Rossiya mustamlakalarida keskin siyosiy kurash avj olayotgan bir davrga to‘g‘ri keldi.

Markaziy Osiyo ma’rifatparvarligi, xususan, Turkiston ma’rifatparvarligi feudal tartiblarini o‘zgartirish, madaniy yuksalishga bo‘lgan intilish bilan birga, ma’lum darajada Rossiyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi chorizmning mahalliy xalqlarga o‘tkazayotgan jabr-zulm ekspluatatsiyasidan norozilik kayfiyatlarini ifodalovchi g‘oya sifatida ham paydo bo‘ladi. Shu jihatdan bu ma’rifatparvarlik o‘ziga xos mafkuraviy xarakterga ham ega edi. Turkiston ma’rifatparvarlari o‘z faoliyatlarida eskirgan feudal tartiblari va munosabatlariga rus kapitalistik munosabatlari orqali paydo bo‘layotgan yangi madaniy yutuqlarni qarshi qo‘yish, ularning ustunliklarini targ‘ib qilishdan boshlanib, asta-sekin siyosiy tus olib, Turkistonda Rossiyadan farq qiluvchi yerli, mahalliy xalqning o‘ziga xos ma’naviyati xususiyatlarini himoya qiluvchi tartiblar o‘rnatalishini talab qiluvchi darajaga ko‘tarila bordi.

Shu jihatlarni hisobga olganda Turkiston ma’rifatparvarlik harakati ikki bosqichda kechdi. Birinchi bosqichda feoldal tuzum tartiblarini tanqid qilish, madaniy yangiliklarni, Yevropa tillarini o‘rganish va egallah, yangi ilm fan va texnikani targ‘ib qilish kabi masalalar ilgari suriladi. Bu bosqichda, ayniqsa, ma’rifatparvarlikning yuzaga kelishida Ahmad Donish, Komil Xorazmiy, Sattorxon va Isoqxonlar, Muqimiy, Furqat, Avaz O’tar va Zavqiylar katta rol o‘ynadilar. Ular bu harakatlarning otashin nimoyandalarini sifatida xalqning real

hayotini, uningadolat, haqiqat, ilm- ma'rifat haqidagi orzu umidlarining o'z yo'llari faoliyatlarida ifoda etib, xalqning jabr-zulmdan qutilishi, uning baxtsaodatga erishuvi ilm-fanni va madaniyatni egallahshda, deb bildilar. Shu sababli ular xalqning ko'zini ochishga, jaholatdan qutilishga, buning uchun ilm-fanni va hunarlarni o'rganish va egallahshga, ma'rifatli va madaniyatli hamda o'qimishli bo'lishga chaqirdilar. Ular faqat o'z xalqi ilmfani va madaniyatini egallah bilan cheklanmay, boshqa xalqlar, xususan, Yevropa va rus xalqi erishgan ilm-fanni, hunarlarni, texnikani, madaniyatni ham egallahshga, o'rganishga, shu asosida jaholat va bid'at uyqusini tark etishga chorladilar. Buning uchun boshqalarning tilini bilishni, o'rganishni ko'p tillarni bilish esa dunyoviy ilmlardan, fantexnika yutuqlaridan bahramand bo'lish imkoniyatini berishni uqtirdilar.

Xullas, birinchi bosqich ma'rifatparvarligi, bu asosan, xalqni yangi madaniyat, yangi ma'rifatga chaqirish, chorlash, millatni, xalqni jaholat va bid'at uyqusidan uyg'onishga, yangi paydo bo'layotgan madaniyat va ma'naviyatni egallahshga yo'naltirilgan edi. Ma'rifatparvarlik o'zining birinchi bosqichida asta – sekin rivojlanib borish asosida undan jadidchilik o'sib chiqadi. Jadidchilik bu ma'rifatparvarlikning rivojlangan, taraqqiy etgan ikkinchi bosqichi edi. Biz buni alohida quyidagi savolda ko'rib chiqamiz.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga kelganda Markaziy Osiyo, xususan, Turkiston xalqlari ilg'or vakillari Rossiyaning mustamlakachilik zulmidan qutilish, o'z milliy davlatchilagini qurish, o'z milliy – iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotiga yo'l ochish zarurligini tushunib yetishadi. Bu kishilar o'sha davr tarixiy jarayonning yetakchi kuchi milliy va mahalliy savdo va sanoat burjuaziyasi namayondalari hisoblanib, ular juda katta qiyinchiliklar bilan keng xalq ommasining siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qiladigan g'oyaviy oqim – jadidchilar ma'rifatparvarligini shakllantirib, uni har tomonlama rivojlantirdilar. Turkistonda jadidchilik harakati ma'rifatparvarlik asosida O'rta va Yaqin Sharqdagi, Qrim, Qozon, Ufa va Ozarbayjonda yuzaga kelgan diniy islohotchilik va ma'rifatparvarlik g'oyalari hamda jadidchilik harakati ta'sirida vujudga keladi. Bu jadidchilik Turkistonda vujudga kelgan sharqona ma'rifatparvarlikni butun xalqning demokratik va milliy uyg'onishiga yo'naltirilgan umummiliy mafkurasi darajasiga ko'tardi. Jadidchilar Markaziy Osiyo, xususan, Turkistonda uzoq davom etayotgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy inqirozni to'xtatish, jamiyat taraqiyotini yangi yo'nalishga solib yuborish maqsadida maorif, din, adliya, davlat qurilishi va boshqa qator ijtimoiy-madaniy sohalarda islohotlar o'tkazishni taklif qilishib maydonga chiqishadi. Ular ta'limtarbiya, axloq-odob, o'qish-o'qitishni, sog'liqni saqlash sohalarini, xotinqizlar ahvolini yaxshilash, ijtimoiy-madaniy turmushning barcha jahbalarini tubdan o'zgartirish g'oyalarini o'rtaga tashlashdi.

Jadidchilar o‘z siyosiy faoliyat sohalarida Turkiston hududiy birligi, Chorizm mustamlakachiligidan qutilish, milliy mustaqillik g‘oyalarini ilgari surishib, shu g‘oyalar uchun kurash olib borishadi. Ular iqtisodiy sohada esa sanoatni, savdoni rivojlantirish, iqtisod va moliya sohalarida boshqa millatlarga qaram bo‘lishdan qutilish, milliy savdo va bank tashkilotlarini barpo qilish g‘oyalari bilan maydonga chiqadilar.

Biroq jadidchilar faoliyatida madaniy-ma’rifiy soha ustuvor hisobanadi. Jadidchilik harakatining asosiy maqsadi – eski tizimni isloh qilishdan iborat bo‘ldi. Jadidchilar milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, siyosiy va iqtisodiy qaramlik va qoloqlikdan chiqish muammolarini yecha oladigan zamonaviy bilimlarga ega, savodli va vatanparvar kadrlar bo‘lish zarurligini yaxshi anglaydilar. Shuning uchun dunyoviy bilimlarni diniy bilimlar bilan birlikda o‘rganish va egallah ishlari, maorif tizimini isloh qilish masalasi jadidchilar ijtimoiy fikrining diqqat markazida bo‘ladi. Jadidchilar islohotni maktab va madrasalardan boshlash zarur, chunki millat hayoti ta’lim-tarbiya bilan belgilanadi, deyishadi. Ular mahalliy boylarning o‘sha davr ichki va tashqi bozorda sinishlarining asosiy sababi-ularning savdo ilmidan savodsizligi tufayli bo‘lmoqda, chunki ular savdo qilish, moliyaviy operatsiyalarni olib borish ishlarini bilmaydilar. Agar biz madaniyat va iqtisod sohalarida boshqa (mamlakatlarga), boshqa millatlarga qaram bo‘lishni istamasak, biz milliy sudyalar, advokatlar, o‘qituvchilar, davlat arboblari, injener, savodli tijoratchilarni tayyorlashimiz zarur. «Masala shunday ekan, siz hurmatli vatandoshlar, o‘z farzandlaringizni din va millatga xizmat qilmoqlari uchun zamonaviy bilimlarga o‘rgatishga harakat qilishingiz zarur, millat va denga faqat bilim va mablag‘ bilan xizmat qilish mumkin», deb yozishadi. (M. Behbudiy, “Oyina”, 1913 y., 7-son; 1914 y., 31-son; 1915 y., 10-son). Jadidchilar o‘z matbuotida: “Barcha millatlar o‘z farzandlarini din va millatga sodiq bo‘lish ruhida tarbiyalaydilar. Shuning uchun ular mакtabga alohida ahamiyat beradilar. Bizda mana shuni his qilish yo‘q. Biz din va millatni himoya qiluvchi ishonarli va mustahkam vositaga ega bo‘lmoqimiz shart. Bu vosita – maorifdir” (M. Behbudiy, “Oyina”, 1914 y., 41-son), -deb yozgan edilar. Ular bular bilan cheklanmasdan, o‘z millatdoshlariga o‘z farzandlarini xorijiy davlatlariga yuborib, o‘qitish zarurligini, toki, ular o‘qib kelishib, millat manfaatlarini ijtimoiy hayot sohalarida himoya qilishsin, millatimiz taraqqiy etsin, deya murojaat ham qilishadi. Ularning bu fikri bugungi bizning mustaqqilik sharoitimidza ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Jadidchilar maorifni isloh qilish masalalarini o‘z matbuotlari sahifalarida har tamonlama muhokama qilishadi. Ular bunda maktab ishining iqtisodiy va moliyaviy tamonlarini, o‘quvchilar ruhiyati va adobiga ijobiy ta’sir qiluvchi usullar, o‘qitish dasturlari va boshqa ko‘pchilik masalalar haqida o‘z fikr va mulohazalarini bildirishib boradi.

Jadidchilar o‘z maqolalari va asarlarida maorif, ijtimoiy hayot va turmush tarzining ayrim tamonlarini isloh qilish zarurligini aytish bilan cheklanmasdan, yoshlar diqqatini yana xalqimizning o‘tmish madaniyatiga, o‘tmish ajdodlari ilm-fan sohasida erishgan yutuqlariga qaratib, ularni o‘rganishga ham jalg qiladilar.

Jadidchilar o‘z faoliyatlarida faqat milliy doiradagina chegaralanib qolmadilar. Ular o‘z matbuoti sahifalarida umuminsoniy madaniyat yutuqlari, fan va ta’lim-tarbiya haqidagi xorijiy fikriy yangiliklarni ham targ‘ib qilishib, bu sohalarda ham katta ishlar qilishadi. Hatto ular o‘z matbuotlarida turkiy xalqlar uchun yagona til yaratish muammosi bilan ham chiqishadi.

Jadidlar matbuoti sahifalarida diniy va falsafiy masalalarga ham katta ahamiyat berishadi. Ular o‘z maqolalarida, O‘rtalashtiruvchi bo‘lganidek, fan bilan dinni kelishtirish, ularning uyg‘unligini ta’minlash, fan va madaniyat taraqqiyoti yutuqlarini islom diniga bog‘lab izohlashga harakat qilishadi. Mohiyat e’tibori bilan olganda, jadidlar falsafiy qarashlari materialistik falsafaga va ateizmga qarshi qaratilgan bo‘ladi. Masalan, M.Behbudiy o‘zining “Samarqand” ro‘znomasida bosingan maqolalaridan birida oxirgi 500 yil ichida musulmonlar fan va falsafa sohasida boshqa mamlakatlardan orqada qolganliklarini ta’kidlab, materializm va ateizm bilan kurashish uchun fan va falsafaning yangi yutuqlari bilan qurollanish maqsadga muvofiqligini aytadi.

Umuman olganda, jadidlar ma’rifatparvarligining falsafiynazariy zaminlari: milliy falsafiy meros, an’anaviy islom, tasavvuf ta’limoti, shariat, Yevropada paydo bo‘lgan pozitivizm falsafasi qarashlariga borib taqaladi. Markaziy Osiyo, xususan, Turkistonda shakllangan jadidchilik ma’rifatparvarlik g‘oyalari milliy mustaqillik, milliy vatanparvarlik g‘oyalardan iborat bo‘lib, ular umumbashariy demokratik qadriyatlar bilan yo‘g‘rilgan edi. Lekin mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan jadidlarning eng ezgu g‘oyalari umuminsoniy qadriyatlar sifatida umuminsoniy orzular, ijtimoiy adolat va tenglik haqidagi qarashligiga ko‘ra, ularning hammasida bir xil fikr, bir xil qarash bo‘lmagan. Bunda xarakterli tomoni shundaki, jadidlarning eng izchil milliy va demokratik mavqeda bo‘lgan vakillari: Behbudiy, Fitrat, Cholpon va shu kabilar kommunistik aqidalar va qarashlarni qat’iy inkor etish yo‘lida turganlar. Ularning milliy mustaqillik va umumbashariy demokratik qadriyatlar uchun kurashi juda izchil va faol yo‘nalishda borgan.

Shuning uchun ular fojeaviy taqdir topishgan.

Ko‘philik adabiyotlarda jadidlarni XX asr boshida shakllanib kelayotgan milliy savdo va sanoat burjuaziyasi mafkurachilari, deyilib xarakterlaydi. Bunday fikr bizningcha, jadidlarning faqat bir qismiga nisbatangina to‘g‘ri. Boshqa qismlari bundan mustasno. Chunki jadidlar harakati tarkibi boshlang‘ich

davrda ham, keyinchalik ham ijtimoiy jihatdan bir xil bo‘lmay, ular saflarida jamiyatning har xil ijtimoiy tabaqalarining vakillaridan iborat kishilar bo‘lishadi. Dastlab ular asosan madrasa talabalari, yangi usul maktab o‘qituvchilari, mayda savdogarlardan iborat bo‘lishsa, keyinchalik yirik milliy savdogarlar, sanoat burjuaziyasi vakillari ham kelib qo‘shiladilar. Turkistonda milliy-ozodlik harakatining avj olishi bilan jadidlar safiga milliy ziyolilarning aksariyati faol ko‘pchilik qismi ham kelib qo‘shiladi. Ularning orasida esa ezilgan xalqning manfaatlarini himoya qiluvchi ko‘plab ilg‘or kishilar yetishib chiqadi.

Bizningcha, ba’zi adabiyotlarda “jadidizm mafkura, muayyan qarashlar tizimi sifatida kapitalistik taraqqiyot ehtiyojlarini ifodalar edi”, deyilgan qarash ham jadidchilik g‘oyaviy harakatini bir tomonlama baholashdir. Jadidlarning tarkibi turli darajadagi ijtimoiy qatlamlardan iborat bo‘lganligi tufayli jadidchilik harakati, uning vakillarining qarashlari ham xilma-xil va turlicha bo‘lib, turlicha maqsadlarni va manfaatlarni ifodalar edi. Lekin, baribir, bularga qaramasdan, jadidchilik harakati, jadidchilik g‘oyalari va qarashlari Turkistondagi ijtimoiy-falsafiy tafakkur, siyosiy fikr taraqqiyotida chuqur iz qoldirdi. U XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida shakllangan va yuzaga kelgan Turkistondagi ijtimoiy-falsafiy tafakkur, siyosiy fikrlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati Turkistonda ta’lim-tarbiyada yangi yo‘llarni izlash, yangi usullarni joriy etish, yangi usuldagagi maktablar ochib, xalqning savodliligini, bilim darajasini ko‘tarish, ijtimoiy-falsafiy fikrda o‘z milliy davlatchiligidan tiklash, til, din, an’anaviy tarixiy birligimizni saqlab qolish; tilimizni yuksak ilm-fan, falsafa va nafis san’at tiliga aylantirish; zamonaviy va demokratik taraqqiyot yo‘liga chiqish; keng xalq ommasining milliy ongini uyg‘onishiga ko‘maklashishdan iborat bo‘ladi. Bu masalani navbatdagi savolda kengroq yoritib beramiz.

Hozirgi kunda mustaqillikka erishganimizdan keyin Vatanimiz va xorijiy olimlarning jadidchilik masalasiga yangicha qarash va yangicha yondoshuvlar asosida olib borilayotgan tadqiqotlari shuni ko‘rsatayaptiki, o‘z davrining ko‘zga kuringan ijtimoiy-siyosiy oqimi sifatida jadidchilik harakati mahalliy xalq ommasining milliy o‘zligini anglashining o‘sishiga, milliy ozodlik harakatining keng rivojlanishiga, milliy mustaqillik mafkurasining shakllanishi va taraqqiyotiga va eng muhimi, milliy ongning rivojlanishiga juda katta xizmat qiladi.

Jadidchilik ma'rifatparvarlik va demokratik yo'nalishdan kuchli ijtimoiy-siyosiy harakatgacha bo'lган murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tar ekan, u mustamlakachilik ostida ezilib yotgan xalq ommasining og'ir iqtisodiy ahvoli va Turkistonning jahondagi iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlardan orqada qolish sabablari va uni taraqqiy ettirish choralarini izlab topishga undadi. Vujudga kelgan vaziyatda ilg'or jadidchi ziyorilar Turkistonning taraqqiyot darajasi

orqadaligining sabablari: mustamlakachilik zulmi, xalqning g‘aflatda, jaholatda qolganligi va ma’rifatsizligida, deb bildilar. Shuning uchun bulardan qutilishning eng to‘g‘ri va asosiy yo‘li maorif va ma’rifat yo‘li, maorifni isloh qilish, deb qaradilar. Ular bu islohotlarni amalga oshirishning zarur ekanligini nafaqat nazariy jihatdan asoslab berdilar, balki o‘zлari yangi usulda maktablar ochib, kutubxonalar, qiroatxonalar barpo etib, o‘quv qo‘llanmalari va darsliklar yozishib o‘z g‘oyalarini amalda qo‘llash yo‘lida ham ulkan ishlар qildilar.

Jadidlar Turkistonni eski qoloqlik holatidan qutqarib, uning taraqqiyotini yangi bosqichga chiqarish, xalqning milliy ongini uyg‘otib, milliy mustaqillikka erishish uchun faqat maorifni isloh qilish g‘oyalari va ishlari bilan cheklanmagan, balki ular o‘z matbuoti – ro‘znama va oynomalarini chiqarishib, xalqning siyosiy ongini o‘stirishda jonbozlik qildilar. Ular matbuot sahifalarida hatto hozirgi kunda ham kishilarni to‘lqinlantiradigan, ularni hayajonga soladigan qator masalalar va muammolar o‘z aksini topadi. Bu masalalarga biz insonning ma’naviy barkamollikka yetishida dinning, ilm-fanning, ya’ni diniy va dunyoviy ilmlarning o‘rnini to‘g‘ri anglab yetish, huquqiy va iqtisodiy munosabatlarda ham tub islohotlar o‘tkazib, huquqiy va iqtisodiy bozor makonini tashkil qilish jarayonini tezlashtirish, taraqqiy etgan ilg‘or mamlakatlarga xos siyosiy va demokratik ijtimoiy institutlarni joriy etish, o‘ziga xos milliy rivojlanish yo‘lini tanlash masala va muammolarni keltirishimiz mumkin.

1905 yildagi birinchi rus inqilobi jadidlar faoliyatini ancha jondantirib, ularning olib borayotgan tadbirdari Turkistondagi islohotchilik harakatlari Toshkentda Munavvar Qori-Abdurashidxon o‘g‘li, Abdulla Avloniy, Ismoil Obidov, Ubaydulla Xo‘jayev; Samarqandda M.Behbudiy, Hoji Muyon, Akobir Shomansurzoda, Yimandxo‘ja Siddiqiy; Namanganda Nosirxon To‘ra; Qo‘qonda Obidjon Mahmudov, Ashurali Zohidiy va Po‘lat Soliyevlar rahbarligida shahar aholisi o‘rtasida keng avj oladi.

Jadidlarning faoliyatidagi muhim ko‘rsatkich - bu nafaqat ularning yangi usuladagi maktablar ochish, balki ularning nashriyot va matbaa ishlarida, oynoma va yilnomalarning ko‘plab nashr etishlarida ham namoyon bo‘ldi.

Jadidlar, ayniqsa, 1915-1917 yillarda o‘z faoliyatlarda ham siyosiy, ham tashkiliy va ham mafkuraviy jihatdan ancha o‘sdilar. I jahon urushi va Rossiyyadagi fevral demokratik inqilob jadidlarning fikrlash tarzini ancha o‘zgartirdilar.

Bu vaqtga kelib, ular parlamentar monarxiya tuzumi haqida fuqarolarning davlat organlarini shakllantirishda, qonun chiqarish ishida, davlatni idora qilishda qatnashuvi va ishtiroki haqida yozdilar. Fevral inqilobiga kelib, Turkiston jadidlarining bir qismi (mo‘tadil qismi) bir qator keng siyosiy talablarni ilgari surib chiqdilar. Bu talablar: mahalliy tub aholining huquqlarini

kengaytirish, o‘lkani idora etishni tubdan isloh qilish, tub aholi uchun Davlat Dumasidan muayyan miqdorda deputatlikka o‘rin ajratish, asosiy demokratik erkinliklarni ta’min etish va eng muhimi, milliy matbuot erkinligiga erishish, Chor yakka hokimlik tuzumini konstitusiyaviy idora etish tuzumi bilan almashtirish kabilar edi.

Albatta, jadidchilarning bu talablari keng xalq ommasiga ta’sir qilmay, ularning milliy ongini o‘stirmay qolmas edi. Bu paytga kelib jadidlar o‘zlarining milliy siyosiy tashkilot va partiyalarini tuzdilar. Natijada, ularning “SHo‘roi Islomiya” va “Ittifoq” partiyasini va tashkiloti paydo bo‘ldi. Fevral inqilobidan keyin jadidlar mahalliy aholining turli-tuman ijtimoiy qatlamlarni o‘z ortlaridan ergashtirib, ularning ongida, fikrlarida va qarashlarida yaktan, yakdil bo‘lib birlashishlari, jipslashishlari zaruriyati hissini tug‘dirdilar. Biroq oradan ko‘p o‘tmay, jadidlar Turkistonda tuzilgan vaqtli hukumatning oldingi Chor Rossiyasi davridagi mustamlakachilik siyosatidan voz kechmaganligining guvohi bo‘ldilar; ular mustaqillik va muxtoriyat uchun hayot-mamot kurashi vaqt yetib kelganini anglab yetib, mustamlakachilikni va vaqtli hukumatni qattiq tanqid qilib chiqa boshladilar. Endi jadidlar o‘zlarining oldingi konstitusion monarxiya tuzumi g‘oyalaridan voz kechib, Turkistonga Rossiya demokratik federativ respublikasi tarkibida milliy hududiy muxtoriyat berilishini talab qila boshladilar. Ular davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi o‘z g‘oyalarini hayotga tadbiq qilishga, uning amalga oshishini chaqirilajak ta’sis majlisi bilan bog‘ladilar.

Jadidlar ta’sis majlisidan o‘rin olish uchun juda ko‘p urindilar, hatto ular bu jarayonda konservativ qismdan tashkil topgan. “SHo‘roi Ulamo” tashkiloti bilan o‘zaro birlashish yo‘lidan borib, pirovardida “Turk olami markaziyati” partiyasini vujudga keltirdilar. Bularning hammasi xalq ommasining siyosiy ongingin o‘sishiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Biroq oktabr davlat to‘ntarishi – bolsheviklar partiyasining hokimiyat tepasiga kelishi jadidlarning maqsad niyatlarini amalga oshirishiga monelik qiladi. Shunga qaramay, Bolsheviklar hokimiyatining: “Har bir millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilash” haqidagi deklaratsiyasiga asoslanib, jadidlar Qo‘qonda “Turkiston muxtoriyati”ni e’lon qildilar. Atigi uch oy yashagan bu muxtoriyat, nihoyat, Bolsheviklar tomonidan qonga botirilib, tugatildi. Jadidlar esa kuchli ta’qib ostiga olinib, uning ko‘pchilik ilg‘or vakillari 1937-1938 yillarda butunlay qirib tashlandi, qolgan-qutganlari esa 1950 yillarga borib butkul tugatildi.

Umuman olganda, jadidchilikning bizning tariximizdagagi o‘rni va bugungi kun bizning mustaqilligimizni mustahkamlashdagi ahamiyati shundan iboratki, jadidlar birinchi bo‘lib mustaqillik milliy mafkurasiga asos soldilar, ular g‘aflat uyqusida yotgan mazlum va ezilgan xalqni uyg‘otdi, uning ko‘zini ochdi, ozodlik, erk, mustaqillik, milliy g‘urur, iftixon, tuyg‘ularini paydo qildi; ular buyuk tariximiz, falsafiy merosimiz haqida, buyuk ajdodlarimiz, boy madaniyatimiz va ma’naviyatimiz haqida, mustamlaka va istibdod davrida

unitila boshlagan qadriyatlarimizni tiklash haqida jar soldilar. Jadidchilarning buyuk tarixiy xizmatlaridan yana biri – ular yetilib qolgan muammolarni hal qilishda rivojlanishning evolyusion yo‘li – islohotlar yo‘lini ishlab chiqdilar.

3.4. Mustabid sovet tuzumi davrida o‘zbek falsafasi. Totalitar mafkuraning falsafaga ta’siri.

Ma’lumki, o’tgan asrning boshlarida Rossiya imperiyasida hokimiyatni bolsheviklar partiyasi zo‘rlik bilan egallab oldi va o‘z tuzumi, iqtisodiy tizimi, siyosati va mafkurasini o‘rnatdi. Sobiq ittifoqning siyosiy tuzumi yakka partiyaning mutlaq hukmronligi, u asoslanadigan yagona mafkuraning totalitar ustuvorligi asosiga qurilgan edi. Davlat tizimi va jamiyat tuzilishi ham ana shu mafkuraga muvofiq o‘zgartirildi, ilm-fan, ma’naviyat, ta’lim-tarbiya ham unga asoslandi. O‘zbekiston o‘scha davlat tarkibida bo‘lgani uchun bu jarayonlar xalqimiz hayoti, xususan falsafasiga ham o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatgan, asoratlar qoldirgan.

Sobiq ittifoq davrida hayotning barcha sohalari sinfiylik, partiyaviylik, xudosizlik tamoyillari va davlat mulki ustuvorligiga tayangani, so‘z va vijdon erkinligi turli yo‘llar bilan bo‘g‘ib kelingani, bir yoqlama dunyoqarash zo‘rlik bilan singdirilgani tufayli falsafaning quruk safsata va zerikarli aqidaga aylanib qolgani achchiq haqiqatdir. U davrda totalitar tuzum va yakka partiya manfaatlari ustun qo‘yilgani oqibatida falsafa deganda, insonni - inson, xalqni - xalqqa aylantiradigan, uning qadr-qimmati va o‘zligini aks ettiradigan, asrlar davomida bir butun tizim sifatida shakllanib, rivojlanib kelgan hodisa emas, balki sobiq mafkuraning maddohiga aylantirilgan, uning doirasidagi kichik bir soha tushunilar edi, xolos. Ko‘pchilik falsafani alohida va serqirra hodisa emas, balki mavhum va hayotdan yiroq qonunlar va kategoriyalar yig‘indisi sifatida tadkiq va targ‘ib qilishga ko‘nikib, odatlanib qolgan edi.

Bu esa, falsafiy ta’limotlarning zamon bilan hamnafasligi, xalq hayotining in’ikosi va uzviy ifodasi ekanligining unutilishiga sabab bo‘ldi. Natijada ko‘pchilikda falsafa mavhum va keraksiz fan ekanligi, uni o‘rganishga ketgan vaqt bekorga o‘tgani haqidagi alamli tasavvurlar shakllanib qoldi. Falsafa ko‘p yillar mobaynida oddiy va ravon tilda tushuntirilmas, aksincha, turli qonun va qoidalar, xilma-xil ta’limot va g‘oyalar majmuidan iborat mavhum va murakkab fan sifatida talqin etilardi. U yoki bu falsafiy qoida nega kerak, ularni o‘rganishning qanday ahamiyati bor, muayyan faylasuf aynan biror-bir g‘oya yoki ta’limotga ko‘prok ahamiyat bergenining sababi nimada, nima uchun uning qarashlarida aynan ana shu muammo ustuvor bo‘ldi, degan masalalar ko‘p hollarda, nazardan chetda qolar edi. Falsafa tarixiy voqelik bilan bog‘lab

tushuntirilmas, falsafiy ta'limotlar o‘z asoschilarini hayotining uzviy qismi ekani yoddan chiqarilar edi.

Oqibatda nima bo‘lar edi? Falsafa mutaxassisini bo‘lmagan talabalarning nihoyatda oz qismigina bu fanning asl mohiyatini tushunib olardi, xolos. Aksariyat yoshlar esa falsafa olamiga kirib bora olmasdan, go‘yoki katta shahar boshlanadigan joyda qolib ketardi. Kun sayin chuqurlashib, fan sirlarini bor murakkabligicha tushuntirishda davom etayotgan o‘qituvchi sanoqli talabalar bilan birga o‘sha shaharga kirardi, ko‘chalar, mahallalarni - falsafa dunyosini kezishda davom etardi. Lekin qolgan talabalar esa bu xazinadan bebahra bo‘lib, shaharga kirmasdan o‘tadigan aylanma yo‘ldan borishga majbur bo‘lar va shu tariqa falsafaning mohiyatini durustroq tushunmay, diplom olardi hamda amaliyotga ketardi.

Ana shuning oqibatida, haligacha mutaxassisini bo‘lmagan ba’zi kishilar falsafani eng qiyin va nihoyatda mavhum fan deb hisoblaydilar. Bundaylar nazarida falsafa tushunarsiz, keraksiz va ortiqcha ilm sohasi bo‘lib, faqat baho olish uchun yodlangan qonun-qoidalar tez orada unutiladi. Ularda falsafa qonunlarini hayotga tatbiq etib bo‘lmaydi, bu foydasiz bilim sohasi, binobarin uni o‘rganishga ketgan vaqt bekorga o‘tdi, degan alamli qarash shakllanadi.

Sobiq ittifoq davri ilm-fanda, xususan falsafada ham sarob natijalarga olib keladigan yana ko‘plab jarayonlarni shakllantirdi, bu borada salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradigan ayrim tendensiyalarni yanada kuchaytirdi. Ko‘p hollarda aynan ana shunday tendensiyalar o‘sha davr fani va falsafasi sohasidagi faoliyatda ustuvor ahamiyat kasb etdi, olimlar va mutaxassislar, ijod va tadqiqot natijalarining taqdirini belgiladi.

Ma’lumki, fan tarixida qadim zamonlardan boshlangan, taraqqiyot va yangilanishga osonlikcha yo‘l bermaydigan, aslida haqiqiy ilm va ijodkorlikdan mutlaqo farq qiladigan ba’zi salbiy tendensiyalar ham bor. Goho kuchayib, gohida kuchsizlanadigan bunday tendensiyalar ilmning boshka sohalari qatori, falsafiy fanlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Bu ilmiy jarayonlarga shaxsiy manfaatlar nuqtai nazaridan yengil-yelpi yondashish, fanning biron-bir yo‘nalishini o‘ziniki qilib olishga intilish, uni asosan, kun kechirish va foyda ko‘rish, amal yoki darajalarga ega bo‘lish vositasiga aylantirish kabi xattiharakatlarda namoyon bo‘ladi.

Bunday tendensiyalar oxir-oqibatda ilmga bo‘lgan ishonchni so‘ndiradi, ijodkorlik va kashfiyotlarga intilishni yo‘qotadi, quruq nazariyabozlik va ilmiy rutbalarga ega bo‘lish mayllarini kuchaytiradi. Ana shunday sharoitda haqiqiy ilm emas, balki ana shu tendensiyaning gayriilmiy tamoyillari ustun bo‘ladi, ilm ahli uning tartiblariga moslasha boshlaydi. Unga moyil kishilar esa, har xil yo‘llar bilan ko‘zlagan maqsadiga yetishi, bir muddat ilmda muayyan o‘rin egallashi ham mumkin. Alloma bobomiz Alisher Navoiyning «Dehqonki dona sochar, o‘z yo‘lin o‘zi ochar» degan hikmati bu toifadagi kishilar haqida emas.

Ular bir umr ilmiy «dona» sochmaydilar, biror original yangilik yarata olmaydilar, ishlari el-yurtga foyda keltirmaydi va nihoyat ulardan avlodlarga manzur bo‘ladigan asarlar ham qolmaydi.

Asl iqtidirlarni yoqtirmaydigan bu toifa kishilari, ak- sariyat hollarda, o‘z maslaklariga mos shogirdlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratadi va alal-oqibat, atrofiga yaqinlashgan yoshlarni ham o‘zlari o‘rgangan «narsa»larga o‘rgatadi. Hali hayot haqiqatlarini to‘la anglab yetmagan ba’zi yosh tadqiqotchilar uchun bunday yashash osondek tuyuladi. Haqiqiy ilm va ijod yangilikka intilishni takozo etadi, bu esa doimo mehnat. mashaqqat bilan bogliq bo‘lib, muttasil izlanishni, zahmat chekishni talab qiladi. Bunga hamma ham dosh bera olmaydi, natija esa aniq...

Sobiq ittifoq falsafasi bu tendensiyani yo‘qotmadi, balki undan foydalandi, turli usullar bilan rag‘batlantirdi. Uning uchun biron-bir mutaxassisning yoshligidanoq tanlagan sohasiga e’tiqodi qandayligi, amaliyotga nima berayotgani va yangiliklarga intilishining farqi xam, keragi ham yo‘q edi. Natijada falsafa sohasida bevosita o‘qimagan bo‘lsada, dissertatsiya yoqlaganlarning soni, maxsus ta’lim olgan fan nomzodi va doktorlardan besh marta ko‘paydi. Bu arifmetikani bilmasdan oliy matematikadan diplom himoya qilishday gap. Matematiklar buni tasavvur qila olmasligi mumkin, ammo bu falsafada oddiy holga aylanib qoldi.

To‘g‘ri, bunday kishilar orasida ushbu fanni jon-dilidan sevadigan, unga mehr qo‘yan, yangilikka intiluvchan va zukko mutaxassislar borligi, ular falsafani boyitishga harakat qilgani shubhasiz. Shu bilan birga, ba’zi diplomli «mutaxassis»larning falsafiy fanlar, ularning tarixi, tushuncha va tamoyillari, qonun va kategoriyalarining asl mazmunmohiyatini chuqur bilmasligi, hatto bunga e’tibor bermasligi, faqat o‘zi bilib olgan bir qism narsalarnigina «falsafa» deb hisoblashi, bu soha uchun mas’uliyat sezmasligi, yaxshi dars bera olmasligi oqibatida o‘qitishning samarasi va yo‘nalishning obro‘-e’tibori tushib ketgani ma’lum.

Holbuki, ko‘hna dunyoning yana bir haqiqati borki, unga ko‘ra besh kishi bir kishiga qarshi kurashsa yiqitishi, mushtlashsa nogiron qilishi, jo‘r bo‘lib qo‘sinq kuylasa, ovozi balandroq chiqishi, shubhasiz. Biron-bir binoni yiqitish, xazinani yo‘qotish, xirmonni sovurishda ham ana shunday «muvaffaqiyat»ga erishish oson. Shu usulda musiqa chalinsa asbobning nosozligi, qo‘sinq kuylansa ovoz xastaligi, arqon tortilsa kimningdir astoydil yopishmayotgani sezilmasligi mumkin... Falsafada ham shunday...

Xullas, ushbu tendensiya kuchayib borgani sari «Konfusiy va Beruniylar falsafa yo‘nalishida o‘qimagan, lekin bu ularning mashhur faylasuflar bo‘lib yetishishiga xalaqit bermaganini unutmaslik kerak. Qolaversa, shu sohada o‘qiganlarning hammasi ham yetuk mutaxassisiga aylanishi qiyin. Muammolarni

faqat ana shu omil bilan boglab izoh- lash, bagri keng va ochiq tizim bo‘lgan falsafaning «eshigi»ni butunlay yopib qo‘yish ham, unchalik to‘gri bo‘lmasa kerak», degan fikrlar ilmiy mutaxassislar tayyorlash ko‘lami va sohaning taqdirini hal qila boshladi. Ana shunday qarash oqibatida dissertatsiyabozlik avj oldi, haqiqiy ilm-fan va el-yurtga foydali tadqiqot emas, balki ilmiy darajalarni tezroq qo‘lga kiritish ustuvor maqsadga aylandi, falsafani o‘qitishning samarasi va yo‘nalishning obro‘-e’tibori tushib ketdi.

Zamonasozlik va andisha, fikrlar xilma-xilligini hurmat qilish va haqiqiy ilm ahliga xos bag‘rikenglik tufayli bu tendensiyalar haqida kam yozishadi, lekin yozishadi. Masalan, al-Xorazmiy haqiqiy olimning mas’uliyati qanday bo‘lishi lozimligi haqidagi masalaga alohida e’- tibor qaratgani bejiz bo‘limgani kabi, F. Bekon o‘zining eng mashhur asarini bekorga «idol»larga qarshi kurash mavzuiga bagishlamagan. Mumtoz nemis milliy falsafasining mashhur allomasi Gegel yashagan zamonda falsafa davlat mafkurasi darajasiga ko‘tarilgan, bu soha bilan shug‘ullanish «moda»ga aylangan, ko‘plab fanlarning va- killari ham shu yo‘nalishga o‘ta boshlagan edilar. Bunday «ommaviylik»ning falsafaga foyda keltirmasligi, uning asl qiyofasini yo‘qotib qo‘yishidan xavotirga tushgan Gegelning «Faylasuflar osmondan yomg‘irdek quyulmaydi yoki yomg‘irdan keyin qo‘ziqorindek ko‘payib ketmaydi, ularni xalq yaratadi», degan fikri bejiz aytilmagan. Bugun atoqli faylasuf kimlarni nazarda tutganining ahamiyati yo‘q, bundaylarni tarix esga olishni xush ko‘rmaydi. Ammo o‘sha davrda joylar band bo‘lgani uchun, Gegelning o‘zi bor-yo‘g‘i kafedra dotsenti lavozimiga saylanish imkoniyatini o‘n besh yil kutishga majbur bo‘lganini bot-bot eslab turishadi. E. Frommnning ijodkor ma’naviyati va olimning mas’uliyati haqida bundan 60-70 yil ilgari yozilgan asarlarida ham bu borada achchiq haqiqatni anglatadigan fikrlar ko‘p uchraydi. Shuningdek, XX asrning 80-yillari oxirlarida, sobiq ittifoqdagi falsafa va ijtimoiy fanlarning ahvoliga doir maxsus izlanishlar olib borgan amerikalik tadqiqotchi L.Grexem ushbu jamiyatga mazkur sohadagi original yangiliklar, umuminsoniy ahamiyatga molik fan yo‘nalishlari kerak bo‘limgani, bu esa yuqoridagidek muhitni yaratib, bir qator noqisliklarni keltirib chiqargani, olimlik mas’uliyati yo‘qolib borgani va ilmiy doiralarga mansub ma’naviyat tamoyillari sun’iy o‘zgartirilgani haqida afsus bilan qayd qilgan edi.

O‘sha davr poyoniga kelib, ko‘plab ijtimoiy fanlar qatori, falsafada ham ko‘chirmachilik va tarjima qilingan asarlarni o‘ziniki sifatida chop etish hollari ko‘paya boshladi. Bu ayniqsa, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari hamda dissertatsiyalarning matnlarida ko‘zga tashlanadigan bo‘lib qoldi. Soha mutaxassislari orasida bir hududda himoya qilingan mavzularni boshqa joydagи ixtisoslashgan kengashlarda bir oz o‘zgartirilib himoya qilinishi, ba’zi yuqori malakali «olim»larning muayyan qalam haqi evaziga ishlashi, ya’ni boshqalar uchun kitob, dissertatsiyalar tayyorlab berishi mumkinligi haqidagi ovozalar paydo bo‘la boshladi.

Shu bilan birga, aynan o'sha davrdan boshlab asosan, ushbu fanning ustuvor yo'naliishlari bo'lgan ontologiya, gnoseologiya va rivojlanish falsafasining qonun va kategoriyalarini boshqalardan ko'ra ko'proq o'rgangan, aksariyat hollarda nazariy masalalar bilan kifoyalanadigan kishilarnigina haqiqiy mutaxassis, deb tushunish tendensiyasi ham kuchaydi.

Amaliy falsafa masalalariga e'tibor bermaydigan bu tendensianing tarixi uzoq o'tmishdan, antik ellinizm va ilk sofizm shakllangan davrdan boshlangan. Falsafani tor va bir tomonlama tushunishga asoslangan ba'zi qadimiy yondashuvlar qatori, uning ijtimoiy tafakkurga ta'siri sezilib turishi haqida birinchi bobning uchinchi qismida muxtasar ma'lumot bergen edik.

Bundan tashqari, sobiq ittifok hayotining barcha davrlarida bo'lgani kabi, keyingi yillarda ham muayyan shaxsga sig'inish illatlari, haddan ortiq haybarakallachilik ko'zga tashlanar edi. Rasmiy mafkuraning hayotdan va haqiqatdan yiroq, utopik xarakterdagи tushunchalari falsafiy adabiyotlar, darslik va o'quv qo'llanmalari uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'-lib, fanning ta'siri va ahamiyatini kamaytirib yubordi. Bu o'z-o'zidan mutaxassislarni tayyorlash tizimi samarasining kamayishi, sohada xizmat qiladigan kishilar mas'uliyatining pasayib ketishiga olib kelgani, shubhasiz.

Afsuski, fan va falsafa dunyosida tugilgan ana shunga o'xshash ba'zi salbiy tendensiyalar, vayronkor g'oya yoki g'ayriilmiy yondashuvlar o'z-o'zidan, osonlikcha yo'qolmaydi va mutlaqo beiz ketmaydi. Ularni muayyan hudud yoki davr hayotidan tag-tugi bilan sug'urib tashlashga harakat qilish mumkin. lekin bashariyat xotirasidan birdaniga o'chirib yubo-rish qiyin. Maqsadi va ma'nosi qanday bo'lishidan qat'i nazar bunday hodisalarning har biri tafakkur tarixidan ozmi-ko'pmi joy egallab, insoniyat ideosferasida bir muddat saqlanib qolaveradi. Davr o'tadi, odamlar qoladi. Eski davr o'zi bilan barcha eskirgan narsalarni olib ketmaydi, ularning inkori va yangilikning o'sib-unishi uchun vaqt kerak bo'ladi. Zamonlar o'taveradi va har gal ezguliklikka yuz tutgan kishi-lar bunyodkor g'oyalarga intilsa, unga teskari yo'ldan borayot-ganlar vayronkor g'oyalarga qo'l cho'zaveradi. Goh unisi, gohida boshqasining ta'siriga tushganlar ko'payishi, tarafdarlar birlashib, biron-bir yo'naliish yoki fanning taqdirini hal qilishi ham mumkin.

Mamlakatimiz hududidagi falsafiy g'oyalar tarixini kisqa yoritish shundan dalolat beradiki, u hozirgi davrgacha yurtimizda madaniyat, inson tafakkuri va aql-zakovati yuksalishi uchun muhim omillardan biri bo'lgan. Lekin sobiq ittifoq hukm surgan mustabid tuzum davrida ijtimoiyfalsafiy fikr va uning tarixiga bir tomonlama, sinfiy nuqtai nazardan yondashildi, faqat totalitar mafkura talablariga to'g'ri keladigan g'oya va fikrlarga e'tibor berildi.

1917 yildagi Oktabr to'ntarishidan so'ng bizning yurtimizda ham astasekin o'zbekona qadriyatlar, sharqona ma'naviyat va falsafiy fikr o'rmini markscha-

lenincha mafkura va uning tushunchalari egallay boshladi. Oliy o‘quv yurtlari, xalq ommasi orasida dialektik va tarixiy materializm, ilmiy ateizm, ilmiy kommunizm targ‘ib qilindi, ularga to‘g‘ri kelmaydigan ta’limotlar, nazariya va qarashlar qattiq tanqid ostiga olindi, unutishga mahkum etildi. Eng achinarlisi shuki, o‘z xalqi, milliy madaniyati, urfodati va an‘analariga sodiq bo‘lgan, ularni saqlab qolishga intilgan ziyorolar quvg‘inga uchrab, qatag‘on QRSHINDI.

Sirasini aytganda, sobiq ittifoq davri hayotning ko‘plab sohalari qatori o‘zbek falsafasi amaliyotida ham ayanchli oqibatlarini koldirdi. Ammo haligacha bu masalaning chuqur va keng tahlili bo‘yicha adabiyotlar kam, kitob va risolalar yo‘q hisobi. Quyida ushbu mavzuni mustaqillik yillarda chop etilgan O‘zbekiston milliy ensiklopediyasining 12jildidan joy olgan «Falsafa fanlari» maqolasi (467-473 bet-lar) asosida yoritishga harakat kilamiz.

Maqolada ta’kidlanganidek, jadidlardan Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Munavvar Qori, CHo‘pon, Abdulla Qodiriy, Isxoqxon Ibrat, So‘fizoda va boshqalar sharq falsafasi an‘analarini sovetlar davrida ham saqlab qolishga va rivojlantirishga intilishdi, ammo ular kommunistik tuzumning qurbaniga aylanishdi. 1919-1921 yillarda Toshkent shahrida Fitrat rahbarligida «Chig‘atoy gurungi» deb atalgan falsafiy, madaniyma‘rifiy va ilmiy-adabiy to‘garak tashkil etilgan. Unda Ashurali Zohidiy, Elbek, Shorasul Zunnun, Shokirjon Rahimi, Qayum Amazon, G‘ozi Olim Yunusov singari ziyorolar faol qatnashib, yurtimizda maorif va madaniyat yuksalishiga, xalkimizning tarixiy xotirasini tiklashga harakat qilishgan. Ammo, ularning bu intilishlari mavjud siyosatga qarshi harakat deb baholandi, ma‘rifatparvar adiblarning ko‘plari qatag‘on qilindi, ular ichida sovet tuzumini yoqlaganlargina jon saqlab qolishdi.

Biz Behbudiy va Abdulla Qodiriylar avlodidan keyingi davrni o‘rganish jarayonida yana bir holatni kuzatdik. Rasman «Falsafa», «Etika», «Estetika», «Pedagogika» borasida darsliklar bor, ammo ularda sobiq kommunistik partiya mafkurasi, hayotga sinfiy qarash hukmonronlik kilgan. Aslida bu darsliklar xalqimiz orasida keng tarqalmagan, bilim yurtlari doirasidan chetga chiqmagan. To‘g‘riroq‘i xalqimiz ularni qabul qilmagan, qalbi va ongiga chuqur singdirmagan, o‘zining qadriyatiga aylantirmasligi kerakligini tushungan. Garchand ziyorolar, shoir va yozuvchilar asarlaridan sharqona tafakkur va o‘zbek falsafasi mavzusi butunlay chiqib ketmagan bo‘lsa-da, ammo hukmonron mafkura bundan keyingi davrda o‘z ta’sirini qoldirgan, o‘tmish allomalarining umuminsoniy qadriyatlarni sharkona ta’riflash hamda tavsiflash borasidagi ishlari, «navoiyxonlik», «bedilxonlik», «mashrabxonlik» va boshqalar bu borada o‘z vorisligini bir muddatga yo‘qotgan.

O‘tgan asrning 20-yillariga kelib falsafa chuqur mafkura- viy inqirozga uchragan, u kommunistik guzumning xizmatkoriga aylaitirilgai. Shunga qaramasdan Naim Said, S.Ayniy, 3. To‘g‘on, K.Yerzin, Hakim Ne’mat, R. Xolmurodovlarning falsafiy risola va maqolalari chop etilgan. 2-jahon urushi

davrda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi tashkil etilishi urushdan keyingi 50-60-yillarda ijtimoiy fanlar, xususan falsafiy tadqiqotlarni ham birmuncha izga tushishiga bo‘ldi. Bu davrda S.Valiyev, I. Mo‘minov, J.Boboyev, V. Zohidov, H.Rasulov, A.Ayupov, S.Azimovlar falsafa fani sohasida ijod qilganlar. V.Zohidov 1946 yilda Beruniy, Navoiy va Bobur ijodi hamda falsafasiga bag‘ishlangan tadqiqotlari uchun O‘zbekistonda birinchi bo‘lib falsafa fanlari doktori ilmiy darajasiga sazovor bo‘lgan.

Stalin vafotidan keyin, garchand ittifoq falsafasining mazmunmohiyati o‘zgarmagan bo‘lsada, tadqiqotlar ko‘lami kengaydi, uning turli yo‘nalishlari bo‘yicha izlanishlar soni ko‘paya boshladi. O‘tgan asrning 70-80yillariga kelib, falsafa sohalari ixtisoslashgan tadqiqotchilarga ega bo‘ldi, deyish mumkin. Jumladan, M. Xayrullayev, M.Baratov, H.Vohidov, H. Aliqulov, R.Nosirov, S.Yo‘ldoshev, A.Sharipov, M.Usmonovlarning asarlari falsafa tarixi mavzuiga bag‘ishlangan. Ularda jahon falsafasi, uning takomil bosqichlari, O‘zbekiston hududida yashagan ba’zi mutafakkirlarning g‘oya va qarashlari o‘rganilgan.

Tabiatshunoslik falsafasi va bilish nazariyasi masalalari O.Fayzullayev, B.Ismoilov, J.Tulenov, K.Ivanova, V.Nikitchenko, M.Abdullayeva, E.Hoshimova, R.Imomaliyeva, V.Qo‘schoqovlar tomonidan tadqiq qilingan. Ularning asarlari tabiiy fanlar, ayniqsa matematika, fizika, kibernetikaning falsafiy masalalari bilan birga ontologiya va gnoseologiya, falsafa metodlari, jumladan dialektikaning qonun va kategoriyalarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Ijtimoiy falsafa, jamiyat va inson munosabatlari, jamiyatning tarkibi va tuzilishi, turli ijtimoiy sube’ktlar va ular orasidagi o‘zaro aloqalar, mehnat va ishlab chiqarishning ma’naviy jihatlarini o‘rganish falasafiy tadqiqotlarning doimiy mavzusi bo‘lib kelgan. H.Po‘latov, A.Valiyev, E.Yusupov, Q.Xonazarov, T.Sharipov, R. Abdushukurov, S.Tursunmuxamedov, YO.Tirov, A.Choriyevlarning asarlari ana shu mavzuga bag‘ishlangan.

Madaniyat falsafasi, moddiy va ma’naviy madaniyatning o‘zaro aloqasi, inson madaniyatini shakllantirish va takomillashtirish bilan bog‘liq masalalar ham soha mutaxassislari diqqatini tortgan. K.Sodiqov, S. Shermuhamedov, M.Ahmedova, M. Abdullayevlar tomonidan bu mavzuga doir masalalar tadqiq qilingan. Y.Jumaboyev, H.Shayxova, O. Umurzoqova, H. Aliqulovlarning tadqiqotlarida ushbu mavzu bilan birga ma’naviyat va axloqshunoslik masalalari ham yoritilgan.

Ma’lumki, ittifoq davrda din falsafasi va dinshunoslik nuqtai nazaridan tadqiqotlar olib borishga yo‘l qo‘yilmas, faqat ateizm tamoyillariga mos asarlarga yo‘l ochiq edi. Shunga qaramasdan, M.Usmonov, A.Ortikov, A.Abdusamedov, J. Bozorboyevlarning tadqiqotlarida ushbu mavzuning turli jihatlari tadqiq qilingan.

O‘tgan asrning 60-yillarida o‘sha davrdagi ToshdU, bugungi O‘zbekiston milliy universitetida avval falsafa bo‘limi, O‘zFA tarkibida esa Falsafa va huquq instituti tashkil qilingan. Garchand, tazyiqlar muttasil davom etgan bo‘lsa-da, falsafa sohasida tadqiqot va izlanishlar butunlay to‘xtab qolmagan. Garchand umumiy totalitar tamoyillar o‘zgarmagan va unga mos «qolip»lardan chiqilmagan bo‘lsa-da, millatlarning o‘ziga xosligi, ularning haq-hukuqlarini hurmat qilish kabi rad qilish qiyin bo‘lgan omillarga e’- tibor berish zarurligi to‘grisidagi mulohazalarni ro‘kach qilib, ba’zi ishlar amalga oshirilgan. Masalan, 1976 yilda chop etilgan va o‘tgan asr oxirlarigacha qo‘llanilgan «Filosofiya lug‘ati»da markazdagi iashrdai farq qiladigan, mintaqamizda yashagan ba’zi allomalar hayoti va ijodi to‘g‘risidagi qo‘srimcha ma’lumotlar e’lon qilingan. Aslida bu mazkur lug‘atning yo‘nalishi, mazmun-mohiyati va undan kutilgan maqsadmuddaolarni o‘zgartirmagan, qo‘srimcha qilingan maqolalar ham shu ruhni ifodalagan. O‘sha davrda respublikalarda milliy falsafa bo‘yicha kitoblar, lug‘at yoki qomusiy asarlar chop etishga rag‘bat berilmagan va buning sabablari o‘z-o‘zidan ma’lum.

Mavzuni o‘rganish shundan dalolat beradiki, sobik ittifoq davrida (XX asr 60-yillaridan boshlab) falsafiy tadqiqotlar ko‘paygandek, bu sohadagi tashkilot va mutxassislar soni ortgandek bo‘lib tuyuladi. To‘g‘ri, o‘sha davr raqamlari shunday fikr tug‘diradi. Ammo bu ko‘rsatkichlar nimani ifodalaydi, kimga va qanday maqsadlarga xizmat qilgan, degan masala alohida e’tiborni talab qiladi. Bu bo rada ta’kidlash joizki, «Raqamlar aldamaydi» degan fikr aniq fanlar mutaxassislari uchun haqiqat bo‘lishi mumkin. Falsafa ulardan farq qiladi. U raqamlar bilan mutlaqo ish ko‘rmaydi, deyish nojoiz, ammo inson tafakkuri, xalq va jamiyat dunyoqarashining matematik formulasi yo‘q, ularni rakamlar bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Bu sohada raqamlar ostidagi falsafiy ma’no va mazmunning qandayligi, ularning asl falsafa rivojiga, jamiyat dunyoqarashi va xalq tafakkuriga qanday ta’sir ko‘rsatgani bilan bog‘liq masala eng asosiy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu qismni sobiq ittifoq falsafasining ma’no-mazmuni va ijtimoiy qiyofasi, uning qanday salbiy natijalar va oqibatlarga olib kelgani haqidagi muxtasar fikr yuritish bilan boshlagan edik. Uni takrorlashga hojat yo‘q. Raqamlarning soni va miqyosi esa masalaning mohiyatini o‘zgartirmaydi. Fikrimiz nihoyasida mustabid tuzum falsafasiga xos salbiy holatlar va totalitar jihatlar o‘sha davr mutaxassislari ijodiga ta’sir ko‘rsatgani, ularga mansub tadhiqotlar va asarlarning yo‘nalishini belgilaganini qayd etish bilan kifoyalananamiz.

Shu bilan birga, falsafiy nuqtai nazardan masalaga yondashilsa, tajriba har bir davrda ham, qanday mafkura hukmon bo‘lishiga qaramasdan, fanda turlichalar fikrlar, xilma-xil qarashlarning vujudga kelish jarayoni butunlay to‘xtab qolmasligi, biror-bir tarzda davom etishidan dalo- lat beradi. Tafakkur qulligi va

fikr qaramligi falsafa- ning mazmunmohiyatini belgilagan sobiq ittifoq davrida ushu jarayon nihoyatda qiyinchilik bilan amalga oshgan, albatta.

Hayotimizning barcha sohalari kabi, mazkur jabhada ham o‘tmishdan butunlay ko‘z yumish emas, balki undan saboq olishimiz va xulosa chiqarmogimiz, mustakillik davridagi imkoniyatlar darajasida izlanmogimiz va harakat kilmog‘imiz lozim. O‘zbek falsafasini yangi taraqqiyot bosqichiga chiqishi zarurligini davr talabiga aylantirgan bugungi istiqlol davrida bu boradagi mas’uliyatli vazifalarni bajarish soha mutaxassislari, barchamizning ma’naviy burchimizdir.

4-mavzu. O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA FALSAFA FANINING RIVOJLANISHI ISTIQBOLLARI.

Reja:

- 4.1 Milliy g‘oya va mafkuraning ishlab chiqilishining ijtimoiyfalsafiy ahamiyati**
- 4.2 Yangilanayotgan O‘zbekistonda ijtimoiy gumanitar fanlarning rivojlanish istiqbollari**
- 4.3 SH.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati.**

4.4 Mustaqillik yillarida o‘zbek falsafasining zamonaviy yo‘nalishlari

4.1. Milliy g‘oya va mafkuraning ishlab chiqilishining ijtimoiyfalsafiy ahamiyati

Istiklolga erishganimizdai buyon tarixan qisqa vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, mustaqil taraqqiyot mamlakatimizdagi ulkan imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishning muhim omili ekani o‘zining to‘liq isbotini topdi. Zero, faqat mustaqillikkina har bir xalqqa o‘z qadriyatları, jumladan ma’naviyati va falsafiy dunyokarashini ham erkin takomillashtirish imkonini berishini o‘tgan yillar tajribasi yaqqol ko‘rsatdi. Aynan mustaqillik dunyoqarashimizni mustabidlik sirtmoqlaridan xalos etdi.

Bugungi o‘zbek falsafasining mazkur jarayondagi takomili va o‘zgarishlarini tahlil qilishda jaxmiyatimizda ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar va amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni, uning umuminsoniy jihatlari va milliy xususiyatlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Aynan xalqimizning mustaqillikka erishishi o‘zbek falsafasi takomilining yangi bosqichini boshlab berdi, uning zamonaviy xususiyatlari, tushuncha va tamoyillari, ustuvor yo‘nalishlari va dolzarb vazifalarini aniqlash imkonini yaratdi.

Insoniyat tarixi xalq mustakilligi har qanday milliy falsafaning tayanchi, uning takomili va jahon falsafiy jarayoni bilan uyg‘unlashuvining asosiy sharti ekanidan dalolat beradi. Mustaqil bo‘lmagan xalq falsafasida mustamlakachilarining g‘oyalari ustuvor bo‘lishi ham ma’lum. Bunday sharoitda xalq milliyligini, ma’naviyatini, o‘ziga xos qadriyatları, urf-odatlari va dunyoqarashini o‘z falsafa-sida to‘la-to‘kis aks ettira olmaydi. Faqat mustaqillikkina xalk hayotining barcha jabhalarida tub o‘zgarishlarga asos bo‘lishi, jumladan milliy falsafa rivoji uchun ham zamin yaratishi mumkin. Bu esa mustaqillik - falsafa taraqqiyotining asosiy omili, uning tayanchi va suyanchi ekanini yaqqol isbotlaydi.

Shu ma’noda, xalqimizning XX asr so‘ngida mustaqillikka erishishi falsafiy tafakkur rivoji insoniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq jarayon ekanligi, hayotdagи voqeа-hodisalarning barchasi ijtimoiy ongda aks etishini yana bir bor isbotladi. Davr o‘zgarishi bilan muqarrar tarzda yangi ma’naviy, huquqiy, siyosiy va falsafiy mezonlarning shakllanishi o‘zo‘zidan yuz bermasligi,

ayniqsa, inson tafakkurining o‘zgarishi, dunyoqarashning yangicha tamoyillarga ega bo‘lishi uzoq davom etadigan murakkab jarayon ekanligi

to‘g‘risida ham shunday deyish mumkin. Bu hol xalqimiz demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik ja-miyatini barpo etish yo‘lidan sobitqadamlik bilan borayotgan bizning kunlarimizda yangi bosqichga qadam qo‘ygan o‘zbek falsafasi misolida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Bu borada, O'zbekiston Birinchi Prezidentining davrning muhim masalalari har tomonlama tahlil qilingan asarlari milliy tafakkur rivoji uchun tayanch ilmiy metodologiya va nazariy paradigmalarni shakllantirish majmui bo'lib xizmat qildi. Mustaqillik yillarida Davlat rahbari tomonidan ishlab chiqilgan milliy taraqqiyot modelining hayotga tatbiq etilishi va amalga oshirilgan islohotlar tufayli falsafaning yangilanishi uchun zarur asoslar shakllandи.

Bunday omillar orasida moddiy-iqtisodiy asos muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Eski, sobiq ittifoq davridagi iqtisodiyot mustaqil taraqqiyotimizga mos yangi mazmundagi falsafani shakllantirish uchun asos bo'la olmas edi, albatta. Istiqlol yillarida bu sohada nihoyatda katta o'zgarishlar ro'y berdi, mulkchilikning xilma-xil shakllari vujudga keldi. Iqtisodiy ilyuralizm va bozor munosabatlari bunda bosh yo'naliш qilib olingan bo'lsa-da, aholini ijtimoiy himoyalash ustuvor jihat sifatida belgilandi. Ana shular- ning barchasi mamlakatimizda ma'naviy, jumladan falsafiy yangilanish borasida ham tub o'zgarishlarning iqtisod bilan bogliq asoslarini yaratish imkonini berdi.

Falsafaning ijtimoiy-siyosiy asoslari mustahkam bo'lishi zarurligi tarixiy taraqqiyot jarayonida ko'p bor isbotlangan ijtimoiy haqiqatdir. Har qanday jamiyat va mamlakatda davlat xalqning turli qatlamlari, partiyalar, milliy-etnik birliklarning ijtimoiy ongini o'zgartira olmasa, o'zining pirovard maqsadlarini amalga oshirishi qiyin. Bugungi kunda jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosiga aylangan O'zbekistonda yangi mazmun va shakldagi siyosiy tizim hamda tuzilmalar vujudga keldi. Ana shularning barchasi yangi mazmundagi falsafani shakllantirishning ijtimoiy-siyosiy asoslarini yaratish imkoniyatini ochdi.

Ma'naviy asoslар ham falsafaning yangilanishida, nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki yangi mazmundagi falsafaning shakllanishi mamlakatda amalga oshayotgan ma'naviy sohadagi o'zgarishlarning tarkibiy qismidir. Bu borada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, xalq ma'naviyatining tozalanishi, asrlar davomida yaratilgan qadriyatlarni tiklash, asrab-avaylash, kelajakka yetkazish bilan bogliq say-harakatlar katta ahamiyatga ega. Bunda, ayniqsa, tarix falsafasi, xalqimizning xotirasi, o'tmishdagi avlodlar yaratgan boy madaniy merosdan to'la-to'kis foydalanish imkoniyati yaratilganini alohida ta'kidlash lozim. Bu esa qadimiy tariximiz, teran ma'naviyatimiz va milliy mafkuramizga tayanib, boy madaniy qadriyatlarni, ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixini chuqr va har tomonlama o'rganish, falsafani yangilash va zamonaviylashtirish bu boradagi dolzarb vazifaga aylanganidan dalolat beradi.

Istiqlol yillaridagi tajriba dalolat beradiki, falsafiy ongning yangilanish jarayoni nafaqat umumiy ma'naviy muhitning balki har bir jamiyat a'zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarining o'zgarishi hamdir. Bu buyuk alloma bobolarimiz orzu qilgan fozil odamlarning komil fazilatlarini

shakllantiradigan jarayondir. Bizning mamlakatimizda o‘tish davriga to‘gri kelayotgan bu jarayonda ijtimoiy muhitda yangi jihatlar vujudga keldi, odamlarning ruhiyati, karashlarida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu o‘z navbatida, inkor, vorislik va yangilanish jarayoni hamdir. Unda, bir tomonidan, yaqninginada ustuvor bo‘lgan sinfiy-partiyaviy tamoyillar o‘tmishga aylandi, inkor etildi; ikkinchidan, o‘zbek falsafasida azaldan mavjud bo‘lgan, hatto sobiq mustabid tuzum ham yo‘qota olmagan ko‘pgina an’anaviy jihatlarning saqlanib qolishi kuzatildi; uchinchidan esa, falsafiy tafakkurda yangi yo‘nalishlar, zamonaviy tushuncha va tamoyillar o‘z o‘rnini topmokda.

Mavzuning tahlili ushbu jarayon quydagilarni qamrab olganini yaqqol ko‘rsatadi:

- mustabid tuzum mafkurasining ijtimoiy, ma’naviy va falsafiy sohalardagi asoratlarini bartaraf etish; kishilar ongi va qalbiga sobiq tuzumga xos gayriinsoniy tushuncha va gamoyillardan mutlako farq qiladigan ezgu g‘oyalar va ideallarni singdirish;

- jahon va Sharq xalqlari falsafiy merosini puxta va chuqur o‘rganish, bu jarayonda turli g‘oya, mafkuralarning davlatlar hamda xalqlar takdiriga ta’sirini aniq ko‘rsatish va shu asosda istiqlol mafkurasining tamoyillarini kishilar ongiga singdirish; ma’naviy merosimizni qayta tiklash va ijodiy rivojlantirish jarayonida buyuk ajdodlarimiz falsafiy merosini yanada keng va chuqurroq o‘rganish;

- falsafiy adabiyotlar, qo‘llanma va darsliklarimizda milliy g‘oya va istiqlol mafkurasi tamoyillarini to‘la aks ettirish, istiklol talablari asosida ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash zaruratiga mos tadqiqotlar olib borish, ularga tayangan holda ta’lim-tarbiyaning samarali usul va imkoniyatlarini izlab topish va boshqalar.

Xalqimiz milliy istiqlolni qo‘lga kiritgach, falsafa fani oldida yangi vazifalar paydo bo‘ldi. Bu vazifalarga falsafa fanini kommunistik mafkura asoratlaridan tozalash, jamiyat taraqqiyotining yangi davridagi qonuniyatlarini falsafiy tahlil etish, milliy istiqlol g‘oyasining ilmiynazariy asoslarini ishlab chiqish, respublikada shakllanayotgan huqukiy, demokratik, fuqarolik jamiyatining rivojlanish xususiyatlarini ochib berish va boshqalar kiradi.

Bu borada milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etdi. O‘zbekiston Birinchi Prezidentining ziylolar bilan uchrashuvi (2000 yil 6 aprel) chog‘ida milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tamoyillariga alohida e’tibor qaratildi, ishchi guruhini tuzish va bu guruh a’zolariga mazkur vazifani bajarish topshirildi. Shu tarzda «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» kitobchasi dunyoga keldi.

Mamlakatimizga xos bu jarayon falsafaning yangilanishi va g‘oyaviy jarayonlarning bir-biri bilan uzviy bog‘liq hodisalar ekanini yana bir bor ko‘rsatadi. Zero, har qanday falsafa jamiyatsiz paydo bo‘lmaganidek, ijtimoiy-

siyosiy hayotni ham g‘oyasiz, mafkurasiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bugun sobiq mustabid tuzum mafkurasi butunlay o‘tmishga aylandi. Diyorimizda milliy davlatchilik an’analari qayta tiklandi, milliy istiqlol g‘oyasi shakllandi, ma’naviyat, madaniyat va ma’rifat yanada yuksaklikka ko‘tarilmoqda. Shu nuqtai nazardan, jamiyatimizda milliy istiqlol g‘oyasiga, uning Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va Xalq farovonligi tamoyillariga asoslanadigan yangi dunyoqarashni shakllantirish, bu g‘oyalarni qalbi va ongiga chuqur singdirgan ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash asosiy vazifalardan biri bo‘lib qoldi.

Biz mamlakatimizda yashayotgan 130 dan ortiq millat vakillarining birbiri bilan jipslashib, bir-biriga mehrli, oqibatli bo‘lib borayotganligi, kelajakka ishonch bilan qarab, tinch totuv yashayotganligi, mehnat qilayotganligi, vatan, vatandoshlik tuyg‘usi eski mafkuraviy qobiqlaridan xalos bo‘lib, o‘zning asl qiyofasini topayotganligi, tabiiy boyliklarimiz biz uchun ishlayotganligi, endi u boyliklardan tejab-tergab, omilkorlik bilan kelajak uchun foydalanish kerak ekanligini anglab turmush tarzimizga aylantirishmiz kerak, degan falsafa tobora chuqurlashib bordi. Mafkuraviy ishlarimizning bosh vazifalaridan biri – mustaqillik qadrini, o‘zligimizni anglash va bularni kundalik turmush ongimizga turmush tarzimizga aylanishini ta’minlashdan iborat bo‘lib bordi.

Milliy istiqlol falsafasi evolyusiyasida I. A. Karimovning “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” risolasida ko‘rsatilgan, huquqiy-demokratik davlatchilikka asoslangan adolatli jamiyat qurish g‘oyasining yaratilganligi muhim o‘rin egallaydi.

Mustaqil turmushimiz mohiyatidan kelib chiqadigan qonuniy, demokratik davlatchilikka asoslangan adolatli jamiyat ham ijtimoiysiyoziy, ham falsafiy-badiiy ideal-istiqbol bo‘lmog‘i kerak. Mazkur idealning mazmuni, uni tamoyillar, tizimlarining takomili qonuniydemokratik davlatchilikka asoslangan adolatli jamiyatni qaror toptirish jarayonini ifodalamog‘i va unga xizmat qilmog‘i lozim. Mustaqillikni mustahkamlash jarayonida mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy ideali bo‘lgan jamiyatda, davlatchilik shu darajada rivojlanadiki qonunchilik shu qadar mustahkamlanadiki, natijada davlat har bir fuqaroda, har bir fuqaro esa davlatda mavjud bo‘ladi.

Qonunga itoat qilish, uni bajarish, unga bo‘lgan hurmat respublika har bir fuqarosining kundalik hayot tarziga, refleksiga aylanib qoladi. Shuning uchun istiqlol falsafasining birinchi jihatini ijtimoiy hayotda qonunning ustuvorligini ta’minlash tashkil qilmog‘i kerak, degan fikr tashkil etadi.

Ayni vaqtida mamlakatimiz har bir iqtisodiy taraqqiyot bosqichining muammolari va talablarining yechimini umumiyligi ijtimoiysiyoziy maqsadga bo‘ysindirgan holda amalga oshirishga harakat qilindi. Chunki, qonuniy-demokratik davlatchilikka asoslangan jamiyatda hal qiluvchi vazifani davlat va mo‘tadil kooperatsiya xarakteriga ega bo‘lgan xususiy mulkchilikning ustunligi

tashkil qiladi. Mulkchilikning bu ikki sohasida mehnat qilayotganlar ongiga vatan boyligi, qudratini ko‘tarish, uning yeri, suvi va havosi musaffoligini ta’minlash bobidagi javobgarlik hissiyoti, katta harf bilan yozilgan – Vatanparvarlik ona suti bilan kirmog‘i lozim.

Mazkur talablar milliy istiqlol falsafasining yadrosi bo‘lgan milliy istiqlol g‘oyasining o‘zagini – ozod va obod Vatan farovon hayotni barpo etishning tarkibiy qismini tashkil etadi.

Ma’lumki, mafkura – ijtimoiy-tarixiy hodisa. U ma’lum bir ijtimoiy guruh, sinf, millat, davlat, jamiyat manfaatini ifodalovchi va himoya qiluvchi siyosiy, huquqiy, falsafiy, axloqiy, badiiy va diniy g‘oyalar qarashlar tizimidir. O‘zbekistonning milliy istiqlol falsafasi vatanimiz o‘z taraqqiyot yo‘lining besh qoidasiga, vatanparvarlik va insonparvarlik dunyoqarashiga asoslangan, qonuniy-demokratik davlatchilik negizidaadolat jamiyatini qaror toptirishda elni jipslantiruvchi, uyuştiruvchi nazariy vosita va ma’noviy omildir.

Mustaqil O‘zbekistonda birorta sinf, ijtimoiy guruh emas, balki xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai va egasidir. Unda davlat hokimiysi xalq manfaatini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergen idoralar tomonidangina amalga oshiriladi. Jamiyatning biron bir siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O‘zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas, hamda yuqorida aytilgani singari hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatalishi mumkin emas.

Respublika Konstitusiyasining bu qaydlari muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Demak, O‘zbekistonda sotsializmdagidek yagona bir ishchilar sinfi, uning siyosiy aqli bo‘lgan bolsheviklar partiyasi mafkurasi emas, balki millatidan, ijtimoiy guruhga bo‘lgan munosabatidan qat’i nazar, jami fuqarolarni o‘zida mujassamlashtirgan O‘zbekiston xalqining tub manfaatlarini ifodalaydigan mafkura umummillat mafkurasi bo‘lmog‘i lozim.

Demak, mamlakatimiz mafkurasi bittagina sinf, ijtimoiy guruh yoki millatning manfaatiga xizmat qilmaydi. Bizda bir millat, partiya, sinf mafkurasi hukmron mafkura bo‘la olmaydi. Mamlakat mafkurasi umummilliy mafkura bo‘lib qoladi.

Albatta, ijtimoiy-siyosiy hayotning demokratiyalashuvi jarayonida turli ijtimoiy guruh va qatlamlarning manfaatlarini ifodalovchi siyosiy partiyalar, tashkilotlar mavjud bo‘ladi va yana yangilari vujudga kelaveradi.

Ular o‘z siyosiy dasturlarini ishlab chiqadilar. Masala ana shu xilmaxillikka ega bo‘lgan siyosiy partiyalarning mafkuraviy platformalarini yagona milliy falsafa konsensusiga olib kelinishida va O‘zbekistonda qonuniy-demokratik davlatchilikka asoslanganadolat jamiyatini barpo qilishda, undan keng foydalanishdadir.

Yagona davlat mafkurasining assosini Vatan tuyg‘usi tashkil qiladi. Vatan uy, ko‘cha, shahar, qishloq, daryo, tog‘ kabilarning jamidan iborat bo‘lgan geografik yoki matematik tushuncha emas. Balki u ana shu uyni uy qilgan otona, opa-singil, ko‘chani ko‘cha, mahallani mahalla qilgan qadrdon insonlar, ularning shu uysa, ko‘chaga, mahallaga bo‘lgan mehr-oqibati, ularning bir-birlarini qadrlashlaridan boshlanadigan tabiiy-ijtimoiy tushunchadir. Uning mazmuni, mohiyati, qadri, Vatanni bilish jarayonida kengayib, chuqurlashib, ortib boraverdi.

Milliy istiqlol falsafasining yana bir muhim jihatini oddiy insoniy qonunlarni o‘zida mujassamlovchi axloqiy qadriyatlar tashkil etadi. Unda vatanga mehr, milliy iftixorning tub mohiyati o‘z ifodasini topadi. Istiqlol, taraqqiyot axloqi o‘zida bir jihatdan o‘zbek xalqining boy axloqiy xazinasining qaymog‘ini ifodalasa, ikkinchi jihatdan, u XX-XXI asrga xos umuminsoniy axloqiy fikr, qarashlar yig‘indisidan ham iborat bo‘lmog‘i kerak.

Albatta, biz uchun Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Naqshband axloqiy merosi benihoya qadrli. Ammo ularni qanday bo‘lsa shundayligicha hozirgi davr axloqiy munosabatlari ko‘chirib bo‘lmaydi. Chunki xalqimiz yangi muhitda, yangi ijtimoiy munosabatlар sharoitida yangi niyatlar bilan yashamoqda. Biz xalqning shu kunga qadar saqlab, avaylab kelgan, zamonaviy ruhiga moslashib, hayotiylashib kelgan axloqiy norma, qarash va qadriyatlariga istiqlol ruhini berishimiz kerak bo‘ladi.

Xalqimizning o‘zligini tashkil qiladigan milliy axloq ham qotib qolgan axloq emas. Balki u yangi sifatlar bilan boyishi kerak bo‘lgan, ayni vaqtida boshqa millat, xalq axloqiga oziq bo‘ladigan va undan oziq oladigan axloqdir.

Milliy istiqlol, taraqqiyot axloqimizning menimcha bosh kategoriyalari mustaqillikni mustahkamlash, ahillik, vatanga mehr hisoblanadi. Mustaqillikni mustahkamlash – burch sifatida fuqarolarimiz faoliyatining axloqiy tarzi bo‘lmog‘i kerak. Mustaqillikni mustahkamlash uchun sen nima qilding, degan savol tashqaridan emas, balki ichkaridan, har bir kishining yuragidan uning o‘ziga berilmog‘i kerak. U shu fikr bilan yashamog‘i kerak.

Demokratiya to‘g‘risidagi xamjamiyatlik g‘oyasi, jamoatchilik fikrining ustuvorligi zaminida shakllanadi. Bizning mamlakatimizda demokratik jarayonlar xalqimizning qonunni hurmat qilish, qonunga itoat etish kabi fazilatlariga mos rivojlanishi zarur. Axloqiy, ma’naviy qadriyatlarimiz siyosiy munosabatlarda ustuvorlik kasb etmog‘i lozim.

Islom dini - bu ota bobolarimiz dini, u biz uchun ham imon, ham axloq, ham diyonat, ham ma’rifat, ekanligiga ishonchni tarbiyalashning muhimligiga jiddiy ahamiyat berildi.

Sharqona axloq odob va umumbashariy g‘oyalar ruhida jismoniy kamol topgan sog‘lom avlodni tarbiyalash, O‘zbekistonning istiqboli va istiqloli xaqida

qayg‘urishni, o‘zning va o‘z xalqining, vatanning qadr qiymati, ornomusini saqlab, uni himoya qilish yuksak g‘oyalar, fikriy kashfiyotlar, niyatlar og‘ushida mehnat qilib, iste’dodi, bor imkoniyatini, kerak bo‘lsa jonini yurt istiqboli, eliga baxshida etish ongini shakllantirish mustaqillik tafakkurining muhim jihatlari ekanligi belgilab berildi.

Milliy g‘oya nimalarni o‘zida mujassamlashtirishi va qanday talablarga javob berishi kerak degan savolni qo‘yib unga Birinchi Prezidentimiz shunday javob bergen. Birinchidan, milliy falsafa o‘zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg‘ularini, xalqimizning ko‘p asrlar davomida shakllangan ezgu-orzularini, jamiyatimiz oldiga qo‘yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart;

Ikkinchidan, bu jamiyatimizda bugun mavjud bo‘lgan xil fikrlar va g‘oyalar, erkin qarashlardan, xar qanday toifalar va guruhlarning intilishlari va dunyoqarashidan qat’iy nazar, ularning barchasini yagona milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng buyuk maqsadlar sari chorlaydigan yagona g‘oya-mafkura bo‘lishi kerak;

Uchinchidan, milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga o‘xshagan unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlardan mutlaq xoli bo‘lib, qo‘shni davlat va xalqlar, umuman jahon xamjamiyatida, xalkaro maydonda o‘zimizga munosib hurmat va izzat qozonishda poydevor va rahnamo bo‘lishi kerak.

To‘rtinchidan, milliy g‘oya birinchi navbatda yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olajanob ishlarimizda madadkor bo‘lishi zarur.

Beshinchidan, u Vatanimizning shonli o‘tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog‘lab turishga, o‘zimizni ulug‘ ajodolarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo‘l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da’vat qiladigan g‘oya bo‘lishi kerak.

Albatta mafkuraning yuqorida keltirilgan funksiyalari fidokor jamiyatda ogohlik, onglilik, fidoiylik yuqori bo‘lganda ishlaydi. Ana shu ko‘rsatkichlarga ega bo‘lish uchun intilishimiz lozim.

4.2 Yangilanayotgan O‘zbekistonda ijtimoiy gumanitar fanlarning rivojlanish istiqbollari

1992 yil 8 dekabrda O‘zbekiston xalqi Konstitusianing muqaddimasida belgilanganidek, “hozirgi va keljak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatni anglagan holda, o‘zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib”,

ushbu Konstitusiyani qabul qildi. Darhaqiqat, bu sharaf, bu mas’uliyat. Ushbu poydevorning mustahkam asosi sifatida Konstitusianing 42-moddasida normalanadiki, “Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qiladi”. 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi va uni “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq, tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu ma’noda mamlakatimizda ilm-fan sohasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar shunday bosqichga keldiki, endilikda bozor munosabatlari shakllana borib, davlat ilm-fan yutuqlarining iste’molchisi sifatida ushbu munosabat ishtirokchilariga munosib tashkiliy-huquqiy sharoitlarni yaratish borasida o‘ziga xos subyektga aylanmoqda. Qayd etilganidek, qonun hujjatlari ijtimoiy paketi yaratildi. Ana shunday hujjatlardan biri mamlakatimiz Prezidentining “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2020 yil 29 oktabrdagi PF-6097-sonli Farmoni bo‘ldi.

Tan olish kerak, uzoq yillar ilm-fan “davlat byudjetiga qaram” ijtimoiy soha bo‘lib keldi. Global rivojlanish, raqamli iqtisodiyot, mulkiy plyuralizm esa, buning o‘zi yetarli emasligini ko‘rsatmoqda. Farmonda qayd etilganidek, “iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to‘liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsadi”da ushbu huquqiy hujjat dunyoga keldi. Va u bilan “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”; Konsepsiyaning maqsadli ko‘rsatkichlari va indikatorlari; Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2020 – 2022 yillarda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”; Ilm-fan sohasi va ilmiy-tadqiqot ishlarini 2021 – 2023 yillarda moliyalashtirish hajmini kengaytirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalashning maqsadli parametrlari; Ilm-fan sohasi va ilmiy-tadqiqot ishlarini 2021 – 2023 yillarda moliyalashtirish hajmini kengaytirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalashning maqsadli parametrlariga erishish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

Farmonga muvofiq, ilm-fan sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish borasida: ilmiy tashkilotlarning ilmiy-innovatsion faoliyati samaradorligini baholashga yo‘naltirilgan **milliy reyting tizimi joriy etiladigan bo‘ldi**; ilm-fanda o‘zini o‘zi boshqarish tizimini rivojlantirish orqali **davlat va ilmiy**

tashkilotlar o‘rtasida ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish hamda uning doirasida loyihalar amalga oshiriladigan bo‘ldi.

Sohani moliyalashtirish tizimini takomillashtirish hamda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash borasida: ilm-fanga ajratilgan mablag‘larning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi amaldagi 0,2 foizdan – 2030 yilda 2 foizga; 2025 yilga qadar ilm-fanni umumiy moliyalashtirish hajmida ilmiytadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlariga xususiy sektor tomonidan ajratiladigan mablag‘lar ulushini amaldagi 8 foizdan – 20 foizga, 2030 yilgacha esa – 30 foizga yetkazish nazarda tutildi.

Yana bir yo‘nalish – yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlar tayyorlash hamda ularni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish borasida: ilmiy tashkilotlar tadqiqotchilarining o‘rtacha yoshini 2025 yilga qadar 45 ga, 2030 yilgacha esa 39 ga yetkazish; ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini yaratish borasida: 2021 yilda “Yashnobod” innovatsion texnoparkining rezidentlari sonini 60 taga yetkazish va shu asosda innovatsion mahsulotlar turi va hajmini oshirish, shuningdek 720 dan ortiq yangi ish o‘rinlarini yaratish belgilandi.

Ilm-fan taraqqiyotiga ko‘maklashuvchi zamonaviy axborot muhitini shakllantirish borasida: milliy ilmiy portalni yaratish; olimlar, tashkilotlar, ilmiy-texnik axborot manbalari reytinglarini joriy etish belgilandi.

Yana bir yangilik. 2021 yil 1 yanvardan boshlab har bir ilmiy tashkilotda uning boshqaruv xodimlarining cheklangan umumiy soni doirasida ilm-fan va ilmiy faoliyat bo‘yicha maslahatchi lavozimi kiritiladi, bu lavozimga taniqli ilm-fan namoyandalari va nufuzli olimlardan biri tayinlanadi hamda maslahatchi tashkilotning Ilmiy kengashini boshqaradi. Ilmiy yo‘nalishlarni shakllantirish va ularning samarali faoliyat yuritishini ta’minalash hamda ilmiy maktablar (shuni aytishim kerakki, hozirning o‘zida ilmiy maktablar mavjud, xususan, TDYUUda o‘nlab ilmiy maktab yaratildi), fan namoyandalari va yetakchi olimlarning sohadagi mas’uliyatini oshirish maqsadida har bir fan yo‘nalishlari bo‘yicha fan jamiyatlari tashkil qilinadi.

Hududlarda ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ilm-fanga keng jalb qilish, nufuzli ilmiy maktablarni shakllantirish, ularning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida 2021 yil 1 yanvardan boshlab “Akademik harakatchanlik” dasturi joriy qilinadi. “Yangi O‘zbekiston – yangicha dunyoqarash” g‘oyasi ostida joylarda boshlangan aholining keng qatlami bilan bo‘lgan uchrashuvlarda ma’lum bo‘ldiki, o‘sib kelayotgan avlodimiz ilmga, fanga chanqoq. O‘zaro suhbatlarda, hattoki, nega, nima uchun O‘zbekistonda shoир, qo‘sishchi, qiziqchi, raqqos mashhuru, olimlari mashhur emas? qabilidagi savollar ham berilganidan markazdagi, xususan, Toshkentdagi professurani hududlarga jalb qilish kerak, degan o‘y-fikr keldi. Darhaqiqat, markazdagi ilmiy tashkilotlar va OTMlarda

faoliyat ko'rsatayotgan olimlar, ustozlarni joylarga – eng quyi hududlarga yuborish amaliyotidan samarali foydalanish lozim.

2021 yil 1 yanvardan boshlab Ilmiy darajali kadrlar tayyorlashni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimi joriy qilinmoqda. Unda stajyortadqiqotchi, izlanuvchi, ilmiy rahbar va konsultantlarga doir ma'lumotlar banki shakllantiriladi. Shunday tartib o'rnatilmoqdaki, oliy ta'limdan keyingi ta'limning bir pog'onali tizimi joriy qilingan xorijiy davlatlarning ro'yxati har yili Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining qo'shma qarori bilan tasdiqlanadigan xalqaro reytinglarda birinchi 300 ta o'rindan birini egallagan oliy ta'lim tashkilotlarida olingan falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darjasini to'g'risidagi hujjatlari O'zbekiston Respublikasida fan doktori (DSc) sifatida to'g'ridan-to'g'ri tan olinadi va nostrifikatsiya qilinadi (ekvivalentligi qayd etiladi). Xalqaro reytinglarda birinchi 300 ta o'rindan birini egallagan oliy ta'lim tashkilotlarida olingan professor, dotsent, katta ilmiy xodim va ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy unvonlar to'g'risidagi hujjatlar oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar kengashlarining tavsiyasiga asosan O'zbekiston Respublikasida qo'shimcha ekspertiza o'tkazmasdan va boshqa sinovlarsiz to'g'ridan-to'g'ri tan olinadi.

Yana bir muhim yangilik. Jahon banki tomonidan ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish asosida respublikamizda innovatsion tizimni rivojlantirish, innovatsion faoliyat sohasidagi indikatorlarni yaxshilashga ko'maklashuvchi "O'zbekiston milliy innovatsion tizimini modernizatsiya qilish" loyihasini moliyalashtirish maqsadida 50 million AQSH dollari miqdoridagi imtiyozli kredit mablag'lari ajratiladigan bo'ldi. Hukumatimiz tomonidan 2021 yilda "O'zbekiston ilmiy salohiyatini oshirish" loyihasini amalga oshirish uchun Jahon banking qo'shimcha 50 million AQSH dollari miqdoridagi imtiyozli kredit mablag'larini jalb etish bo'yicha taklif kiritishi belgilandi.

Xursand qiladigan yana bir jihat – byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar soni, bir million aholi soniga to'g'ri keladigan ilmiy tadqiqotchilar va olimlar soni, tijoratlashtirilgan ilmiy ishlanmalar soni va hajmi indikatorlari yuritiladigan bo'ldi.

Farmon bilan "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" tasdiqlandi. Konsepsiyaning **strategik maqsadi** milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning innovatsion va yuqori texnologik formatiga o'tish, mamlakatimizning raqobatdosh ustunliklarini ishga solish va to'g'ri safarbar etish, innovatsion mahsulotlar hajmini kengaytirish, jadal iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan yo'nalishlarga investitsiyalarni yo'naltirish, aholi turmush darajasini bir necha bor yaxshilash, ijtimoiy sohadagi dolzarb masalalarning

innovatsion yondashuvga hamda ilmiy tadqiqotlar va erishilgan natijalarga asoslangan ilmiy yechimini topish, xalqaro miqyosda ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi va “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi qonunlar ijrosini ta’minlashdir.

Konsepsiya nima uchun ilm-fan kerak? – degan savolga javob beradi. Undan shuni anglash mumkinki:

- jahon iqtisodiyotining globallashuvi va uning yangi texnologik rivojlanishga o‘tish jarayoni; – raqamli texnologiyalar;
- raqobatning tobora kuchayishi;
- to‘rtinchi sanoat inqilobi;
- ekonomikami, ekologiyami yoki inson omilimi? – degan savol va faktlar bugungi raqobat sharoitida ilm-fan zimmasiga yirik ijtimoiy yuk – ilmiy tadqiqotlar hamda innovatsion ishlanmalarni amalga oshiruvchi ekotizimni shakllantirishni asosiy vazifa qilib qo‘ydi.

Konsepsiyada qayd etilganidek, rivojlanayotgan mamlakatlar raqobatbardoshlikni oshirish va mustahkamlash bo‘yicha yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni va global marketingni faol o‘zlashtirish, ustuvor yo‘nalishlarda o‘z ilmiy mакtablarini tashkil etish, tajribali va malakali mutaxassislarini jalb etish, innovatsion salohiyatga ega istiqbolli startaplarni qo‘llab-quvvatlash, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning moliyaviy va institusional asoslarini yaratish uchun davlat imtiyozlaridan maqsadli foydalanish kabi choralarini ko‘rmoqda. Xo‘s, bizda ahvol qanday? Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 3 dekabr kuni ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish borasida oliy ta’lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar, tarmoq va hududlar oldidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ham bu boradagi haqiqiy ahvol qayd etildi. Soha uchun ham moddiy, ham tashkiliy jihatdan barcha sharoit yaratilmoqda. Lekin 100 dan ziyod ilmiy tashkilotlar faoliyatida, ular tomonidan olib borilayotgan izlanishlarda hali sezilarli o‘zgarish bo‘lgani yo‘q.

Bugun mamlakatimizning ilm-fan sektori 100 dan ortiq akademik va tarmoq ilmiy muassasalaridan iborat bo‘lib, hozirgi kunda 65 ta ilmiytadqiqot instituti, 31 ta ilmiy markaz (shundan 14 ta ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markaz) va 8 ta boshqa turdagи ilmiy tashkilot faoliyat ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, oliy ta’lim muassasalari va ularning filiallarida ham ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Shu ma’noda O‘zbekistonni 2030 yilga qadar global innovatsion indeks reytingida dunyoning 50 ta yetakchi davlatlari qatoriga kiritish bo‘yicha ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik reja e’lon qilindi.

Eng muhimi, **ilm-fan sohasining jamiyatdagи mavqeи oshirildи, yoshlarning sohaga bo‘lgan fikri-munosabati ijobiy tomonga o‘zgardi.** Ammo, tan olish kerak, hanuz almisoqdan qolgan mavzularda ilmiy ishlanmalar mavjud. Ayrim sohalardagi tadqiqotlar (xususan, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, nanotexnologiyalar, gen injeneriyasi, kriminalistika) jiddiy ortda qolgan. Iqtisodiyotning ilm-fanga e’tibori yuqori emasligi, uchrashuvda qayd etilganidek, olimlarga buyurtmalarning mavjud emasligi; texnoparklar, startaplar yaratilayotgan ilmiy tashkilotlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamkorlikning sustligi; barcha sohalarda bo‘lgani kabi sohada prognozlashning yetarli emasligi; ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirishning sustligini nazarda tutsak – menejerlik ilmining yetarli emasligi; ilmiy salohiyatni rivojlantirishga xususiy sektorning faol emasligi; ilm-fan va ilmiy faoliyatga moliyaviy resurlarning yetarli darajada yo‘naltirilmayotganligi; ilm-fan yutuqlarining reklama qilinmasligi keng ko‘lamli islohotlar fonida bizlarni ortga tortmoqda.

Hozirda WEB of Science, SCOPUS kabi ma’lumotlar bazasida indeksatsiya qilinadigan xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar orasida O‘zbekistonning yalpi ulushi 0,1 foizga yaqin. O‘z ichiga 5 mingdan ortiq nashriyotlarning 22 ming nomdagи ilmiy jurnallarini olgan Scopus ma’lumotlar bazasi asosida SJR (ScimagoJournal&CountryRank) resursining tahlillariga ko‘ra, O‘zbekiston bitta maqolaga havolalar ko‘rsatkichi bo‘yicha jahoning 239 davlati o‘rtasida 220-o‘rinni egallab (6,52), mamlakatimizning H-index ko‘rsatkichi 86 ni tashkil etmoqda.

Quvontiradigan narsa: yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlar tayyorlash borasida fan doktorlari (DSc) va falsafa doktorlari (PhD)ni tayyorlash doirasida ustuvor ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy kadrlarni maqsadli tayyorlashga o‘tilishi. Zero, tan olish kerak, muhandislik sohasida birmuncha ortda qoldik.

Xullas, konsepsiyanı amalga oshirishdan quyidagi natijalar kutilmoqda: ilmiy tadqiqot dasturlari muvofiqlashtirish; ilm-fanning davlat va xususiy sektor tomonidan muvozanatli moliyalashtirishga erishish; Good Scientific Practice (GSP) va Good Laboratory Practice (GLP) standartlarini joriy etish, GLP va Good Manufacturing Practice (GMP) standartlari bo‘yicha xalqaro mezonlarga mos keladigan milliy ilmiy laboratoriylar faoliyatini tashkil qilish; plagiat va ilmiy g‘oyalarni o‘zlashtirish holatlarini bartaraf etish; ilm-fan sohasi xodimlarini moddiy rag‘batlantirish. Bir so‘z bilan aytganda, ilm-fan yutug‘ini tijoriy qiymatga ega bo‘ldirish.

4.3. SH.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati.

Davlatchilik rivoji va uning taraqqiyot mezonlari millatning ma’naviy darajasi bilan belgilanadi. Zero, faqat o‘zligini anglagan, mushtarak maqsadlarda yakdil, muddaolari uyg‘un, or-no’muslari ustun, yagona maslakdag‘i madaniyatga ega xalqlarning rivojlanish tarixi barqaror va istiqbolli bo‘lishi kishilik jamiyatni tajribalarida o‘zining isbotini topgan. Inchinun, bugungi kunda mamlakatning strategik siyosati milliy davlatchiligidan siyosiy-ijtimoiy, ma’naviy-madaniy merosini yangicha tafakkur asosida anglash va uni bevosita jamiyat boshqaruviga tatbiq qilish bilan jahon hamjamiyati integratsiyasiga kirishish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Tarixiy rivojlanish qonuniyatlarini aniq va to‘g‘ri muljalli strategiya jamiyat orzularini real hayotiy natijalarga aylantirish mumkin ekanligini isbotladi. Bugun O‘zbekiston ham o‘z tarixining ana shunday mas’uliyatli chorrahasida turibdi. Prezident SH Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan harakatlar strategiyasi istiqbolimiz taqdirini hal etuvchi muhim va yangi davr bosqichini ifodalovchi milliy g‘oyaga aylanmoqda. Shu ma’noda, xalqlar va milliy davlatchilik tarixining murakkab evrilishlar asosida kechgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarini o‘rganish bugungi kun istiqbol maqsadlarimizni oydinlashtirish, asoslash, yangi marralar va vazifalarni belgilash kabi imkoniyatlarni yaratadi.

“Strategiya” tushunchasi grekcha so‘zdan olingan bo‘lib aslida “jang san’ati” ma’nosini bildiradi. Bugungi kunga kelib “strategiya” keng tushuncha bo‘lib, turli siyosiy-ijtimoiy sohalarda qo‘llanilmoqda. Jumladan, “Davlat strategiyasi” siyosiy terminologiya sifatida bugungi kunda fan nazariyasi va amaliyoti darajasida o‘zining alohida tushuncha va kategoriyalariga ega bo‘lib:

- 1.) Uzoqqa muljallangan rejalashtirish san’ati.
- 2.) Boshqaruv va rahbarlik mahorat san’ati.
- 3.) Siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni idora qilish san’ati.
- 4.) Aholini ma’lum maqsadlar sari safarbar etish san’ati.
- 5.) Mavjud resurslardan oqilona foydalanish san’ati.
- 6.) Taqsimlash va samaradorlikni ta’minlash san’ati kabi tushunchalarni qamrab oladi.⁵

Strategiya – bu ta’limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo‘lib, u izchillik bilan va to‘liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvoffaqiyatni ta’minlaydi. Strategiya bu – strategik fikrlash, chuqr bilim va intuitsiya asosida

⁵ Буланова Е.А. Политика и стратегия в механизме государственного регулирования социальноэкономических процессов. Вестник Чувашского университета. 2006 г. №3, С 148 ⁸Квант В. Стратегиялаш назарияси ва амалиёти. Т.; “TASVIR”. 2018й. 18 б.

muhitni, kelgusi shartlarning mavjud prognozlarini tizimli tahlil qilish natijasidir. Ushbu tahlilning yakuniy mahsuli – bu o‘zidan avvalgi prognoz, vazifa, nuqtai nazar, ustuvorliklar va uzoq muddatli maqsadli vazifalarni rejalashtirish orqali bajarilishini talab qiladi. Strategiya bu – kelajak va no’malumlik parokandaligi orqali sinovdan o‘tgan ustuvorliklar va maqsadlar sari yo‘naltiruvchi g‘oyalar majmuasi. Bu resurs cheklanganligini baholash orqali harakatlarning to‘g‘ri tanlangan yo‘nalishi bilan boyitilgan donishmandlik⁶.

XXI asrga kelib strategiya tushunchasi ancha kengaydi. Strategiya deb, dunyo miqyosida va davlat ichki hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda boshqa sohalarda vujudga kelgan inqiroziy vaziyatlarni prognozlashtirish va bartarf etishga qaratilgan boshqaruvni tashkil etish masalalariga doir tushunchalarni qamrab oladi⁶. Shundan kelib chiqib, davlat strategiyasi bir biri bilan o‘zaro bog‘liq, lekin alohida xususiyat kasb etuvchi ko‘plab tushunchalarda ifodalanadi. YA’ni, “siyosat”, “doktrina”, “milliy manfaatlar”, “milliy xavfsizlik”, “modernizatsiya”, “innovatsiya”lar davlat strategiyasining mohiyatini belgilaydi. Shunday qilib, davlatning strategiyasi aniq maqsadlarni belgilash imkoniyatini yaratuvchi vositalarni tanlash asosida samarali boshqaruv ta’minalash orqali jamiyatning ijtimoiy asoslarini rivojlantirishga, mamlakat suvereniteti hamda xavfsizligini ta’minalashga qaratilgan kompleks harakatlar majmui bo‘lib hisoblanadi.

Strategianing mohiyati taktik vazifalarni belgilashdan iborat. Siyosat, strategiya va taktika – strategik rahbarlik va boshqaruv jihatlari bilan bog‘liq uchta mustaqil kategoriadir. Ularning farqi shundan iborat: strategiya tasdiqlangan va amalga oshirish uchun qubul qilingan bo‘lsa, uning joriy qilinishi strategiyalashtirilayotgan obyektning yo‘l ko‘rsatuvchisiga, mayog‘iga aylanadi. Taktika esa strategik vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha kundalik, oylik va yillik (joriy) rejalarini va ularning yechimi bo‘yicha tadbirlarni taqozo etadi. Siyosat – bu strategiya va taktikani yagona samarali amal qiluvchi tizimga agregatsiya va integratsiya qilinishidir.

Boshqacha aytganda: **Strategiya + Taktika= Siyosatga teng**⁷.

Davlatning strategik boshqaruvi boshqa davlat va xalqlarning tarixiy tajribasidan o‘zlashtirib yoxud nusha olib bo‘lmaydi. Zero, har bir xalqning o‘ziga xos tarixi, siyosiy-ijtimoiy, demografik, iqtisodiy, madaniy vaziyatilari mavjud. Aynan shu ijtimoiy omillar ma’lum ijtimoiy sharoitlarni vujudga keltiradi. Shunga ko‘ra, davlat strategiyasining universal formulasini shakllantiradigan muassasalar mavjud emas. Barcha davlatlar uchun xos bo‘lgan

⁶ Юрина А. О стратегии государственного управления. www.odn2ru.

⁷ Квант В. Стратегиялаш назарияси ва амалиёти. Т.; “TASVIR”. 2018й.44 6.

umumiylar tajribalar ham yo‘q. Ular uchun maxsus strategik komandalar, komissiyalar, tezkor guruhlari tuziladi. Strategiya siyosiy partiyalarning dasturiy g‘oyalarida yoki davlat apparati tomonidan shakllantiriladi. Strategiya jamiyat tafakkur mahsuli sifatida ochiq va ommaviy yoki qattiq nazorat ostiga olingan tartiblarda amalga oshirilishi mumkin. Barcha uchun muvoffaqiyatli tartibot jamiyatda turli qarashlarning shakllanishiga imkoniyat va tanqid qilishga sharoit yaratgan muhitning mavjud bo‘lishi bilan belgilanadi. Ma’lumki, har qanday davlat mazkur vazifalarni hal etishning strukturaviy mexanizmlariga muhtoj bo‘ladi. Davlat strategiyasi – bu davlat idoralari o‘z vakolatlari doirasida ijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lgan maqsadlarga erishish yo‘lida mavjud resurlardan tizimli ravishda foydalanishi demakdir.

Davlat strategiyasi o‘z mazmuniga ko‘ra, nazariy va metodologik asoslari ega, rivojlanib kelayotganlar fanlardan. Bugungi kunda davlat strategiyasini amalga oshirishning tamoyillari, strukturaviy funksional asoslari rivojlangan mamlakatlar ta’limotida nazariy jihatdan muqim shakllanganligiga guvohmiz. Mazkur nazariy metodologik asoslar islohotlarning izchil yo‘nalishlarini kafolatlashga xizmat qiladi.

Strategik maqsadlar qanday omillar orqali erishiladi? Bu vazifa umumiylar xususiy, birlamchi va ikkinlamchi omillarni o‘zaro bog‘liq harakat qonuniyatlarini idrok etish va uyg‘un faoliyatiini ta’minlashga erishishdan boshlanadi. Hukumatlar aksariyat hollarda milliy strategik muvoffaqiyatlarni YAIMning o‘sishida, fuqarolarining farovonlik darajasining yuksalishida deb qaraydi. Yaqin o‘tmishda davlatning birlamchi vazifalari hududlarini kengaytirish, hosildorlikni o‘stirish, oltinneftni ko‘paytirish, armiyani mustahkamlash bilan izohlangan. Bugun milliy qadriyatlar bilan qurollangan davlatning strategik maqsadi fuqarlarning g‘oyaviy e’tiqodi, bilim-salohiyati, jamiyatdagi mukammal qonunlar va barqaror ijtimoiy institutlarning mavjudligi birlamchi omil sifatida qaraladi. G‘oyaviy iroda jamiyatni harakatga keltiradi. Harakatsiz harajat nolga teng. Bu nomoddiy resurlarning kengayishi bilan moddiy imkoniyatlarning rivojiga xizmat qiladi. YA’ni, ilm yangi bilimlarni vujudga keltiradi. Barqaror institutlar iqtisodning rivojiga, jamiyat institutlarining takomillashuviga, provard natijada ijtimoiy farovonlikka olib keladi. Strategik xatoga yo‘l qo‘ygan davlatlar islohotlarni iqtisodiy omillardan boshlaydi.

Davlat strategik rejali aniq va o‘zgarmas tamoyillarga bo‘ysindirilishi muhim. Ular islohotlarning bir ma’romda, izchil yo‘nalishini ta’minlashga xizmat qiladi. Jumladan:

1. Ilmiylik.
2. Maqsadlilik.
3. O‘zgaruvchanlik.
4. Birlik.

5. Sharoit yaratish.

Ilmiylik. Rahbar o‘z vazifalarini amalga oshirishida turli ilmiy sohalardagi ma’lumotlar va xulosalar bilan qurollanmog‘i, bundan tashqari improvizatsiya qilmog‘i, quylgan vazifalar yechimini topishda individual va kreativ yondashuvlarni tashkil etishi.

Maqsadlilik. Strategiyani shakllantirish va strategiyaviy tahlillar maqsadli bo‘lishi lozim. YA’ni davlatning ustuvor maqsadlarini bajarishga yo‘naltirilishi lozim.

O‘zgaruvchanlik. Mazkur tamoyil oldin qabul qilingan qarorni o‘zgartirish ehtimoli yoki o‘zgaruvchan vaziyatdan kelib chiqib xohlagan damda qayta ko‘rib chiqishi demakdir.

Birlik. Strategik dastur va rejaning uyg‘unligi. Turli darajada qarolarning mustahkam bog‘liqligi va xamjihatliliqi muvoffaqiyatning shartli kafolatidir. Mazkur birlik davlat organlarning strukturaviy bug‘inlarida strategik harakatlarni birlashtirish, barcha funksional bo‘lim rejalarining kelishuvi bilan ta’milanadi.

Sharoit yaratish. Strategiyani amalga oshirish imkoniyatini to‘g‘diradi. Strategik rejaning mavjudligi hali muvoffaqiyatli amalga oshishini kafolatlamaydi. Strategik boshqaruv jarayonida dastur va rejani amalga oshirish uchun tashkiliy sharoit yaratilishi lozim. Ular mustahkam tashkiliy struktura, rag‘batlantirish tizimi va boshqaruv tizim samaradorligini oshirishga qaratiladi.⁸

Mazkur tamoyillar hokimiyat organlari faoliyatidagi ijro intizomining past so‘ratlariga, shaxsiy mas’uliyatsizligiga barham beradi, kadrlar layoqati darajdasini oshirishni talab qiladi, murakkab va chigal ish tartiblarini sodda hamda tezkor yondashuvlar bilan ta’minalashga xizmat qiladi. Eng muhimmi strategik yo‘nalishlarni belgilashning mavhum va noma’lum jihatlarini oydinlashtirish orqali tartiblashtirishga xizmat qiladi. Bu masalalar quyidagi tamoyillar bilan aniqlashtiriladi:

Har bir davr o‘ziga xos siyosiy vaziyati bilan ijtimoiy hayot rivojiga ta’sir ko‘rsatadi. Har bir davrning o‘z ta’limoti va yondashuv tamoyillari yuzaga keladi. Ushbu vaziyatni anglash, shunga mos yo‘l-yo‘riq tanlash strategik tamoyillarning talablaridan hisoblanadi. Rivojlanishning o‘z qonuniyatları mavjud bo‘lgani kabi, favqulotda ijtimoiy o‘zgarishlar ham rivojlanishning mohiyatiga zid keladi. Boshqacha qilib aytganda, inqilobiya ta’sirni jamiyatning o‘zi inkor qiladi. Tadrijiy ta’limot ijtimoiy qonuniyatlarning jamiyat imkoniyatlariga muvofiqlashtirilgani, uyg‘un siyosiy islohotlar belgilangani bilan samarali natijalar beradi. Iqtisodiy islohotlarning bozor munosabatlariga

⁸ Государственное стратегическое управление. Общ.ред. проф. Ю Кузнецова. Питер, 2014. С134

yo‘naltirilishi, infratuzulmalarining joriy etilishi, ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil etish, mulkdorlar qatlamining o‘sib borishi bilan jamiyatda inson manfaatlari, qonun ustuvorligi, ijtimoiy himoya kabi demokratik qadriyatlar ta’minlanadi. Shu tariqa yangi jamiyat asoslariga daxldor ijtimoiy omillar biri ikkinchisini to‘ldirishga xizmat qiladi.

Ko‘rib turganimizdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar strategik ta’limotlarga to‘liq mos keladi. Ular respublikamizning bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyunkturasi keskin o‘zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davrida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishda namoyon bo‘lmoqda. Inchinun, olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakat taraqqiyotining kompleks dasturini ilgari surdi. Bu hujjat «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi»⁹ deb nomlandi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 26 yillik tantanalariga bag‘ishlangan ma’ruzalarida muhtaram Prezident –“ Asosiy qomusimiz negizida yaratilgan Harakatlar strategiyasi bugungi kunda jonajon Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarishda, innovatsion va industrial rivojlanish sari odimlashda beqiyos o‘rin egallamoqda¹³ deb, ulkan o‘zgarishlarga dahildor yangi g‘oyalarni ilgari suradi.

Mazkur dastur nafaqat ichki va tashqi siyosatdagi islohotlar sari tashlangan qadamda, balki, eng avvalo, davlatning xalqqa bo‘lgan munosabatini o‘zgarganligida namoyon bo‘lmoqda. Davlatimiz rahbarining 2018 yil 28 dekabr kuni Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida ham mavjud o‘tkir muammolarga e’tibor qaratilib, ularni hal etishning aniq yo‘llari ko‘rsatib berildi. 2017 yil «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» deb e’lon qilinishi, 2018 yil “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash” yillarida amalga oshirilgan islohotlar asosida «Inson manfaatlari hamma narsadan ustun» degan insonparvar g‘oya izchillik bilan hayotga tatbiq etishning dasturiy choratadbirlari belgilandi. Bu borada davlat organlari hamda fuqarolarning o‘zaro munosabatiga bo‘lgan yondashuvni tubdan qayta ko‘rib chiqishni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qayd

⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги Фармони. «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Харакатлар стратегияси

etildi. Mazkur erishilgan natijalar zaminida 2019 yil “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” sifatida davlatning strategik yo‘nalishlari yanada samarali, mustahkam va izchil qarorlar bilan boyitildi.

Ushbu vazifalar avvalo demokratik islohotlarni chuqurlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda parlament va siyosiy partiyalarning rolini yanada oshirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining ma’muriy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, “Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmalarini amalda tadbiq etish, fuqarolik jamiyatni institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini oshirishga yo‘naltirilgan davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishga qaratiladi. Bu yo‘nalishlar qo‘yidagi strategik tamoyillarda o‘z ifodasini topdi:

O‘ZBEKISTON HARAKATLAR STRATEGIYASI

I. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari;

1. 1.Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish:

1.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish:

1.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish:

II. Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari

to‘g‘risida”// Veb-sayt O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.

¹³ Xalq so‘zi. 2018 yil 8 dekabr.

2.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish:

2.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minlash:

2.3. Ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiliginini takomillashtirish:

2.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish:

2.5. Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash:

2.6. Yuridik yordam va xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish:

III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari

3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish:

3.2. Tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:

3.3. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:

3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirdorlik rivojini rag‘batlantirishgaqaratilgan institusional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:

3.5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:

IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari 4.1. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish:

4.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish:

4.3. Arzon uy-joylar barpo etish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta‘minlovchi yo‘ltransport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish:

4.4. Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish:

4.5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.

V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik ta’minalash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar:

5.1. Xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minalash sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar:

O‘zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish; axborot xavfsizligini ta’minalash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o‘z vaqtida va munosib qarshilik ko‘rsatish; fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash; davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish.

5.2. Chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar:

davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatidagi o‘rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘schnichilik muhitini shakllantirish;

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to‘g‘risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot yetkazish;

O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish; davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish.

Davlat va jamiat qurilishi shunday bir murakkab tuzilmaki, uning tarkibidagi bir-biriga bog‘liq bo‘lgan va bir-birini to‘ldiradigan soha va jabhalarni bir vaqtning o‘zida jadal rivojlantirishni talab qiladi. Ularning har biri ikkinchisiga zamin yaratadi. Qaysidir asosiy soha avval rivojlanib, boshqa soha va tarmoqlar uchun lokamativ vazifasini ham bajarishi mumkin. Albatta, bu jarayonda har bir sohaning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, obyektiv tahlil qilish, o‘z vaqtida tegishli chora-tadbirlar qabul qilish, ularni rivojlantirishning huquqiy asoslarini yaratish, samarali ishlash mexanizmlarni yangi texnologiyalar asosida tashkil etib berish kabi vazifalarni hal qilish talab etiladi.

Harakatlar strategiyasining yetaklovchi lokomativ kuch - bu davlat va uning organlari. Undan chiqdi, islohotlarning garovi va kafolati layoqatli hokimiyatning faoliyati bilan bog‘liq hodisa. Shunday ekan, davlat va jamiat boshqaruvi tizimlarini takomillashtirmsandan turib mamlakat hayotini modernizatsiya qilib bo‘lmaydi. Modernizatsiya o‘z umrini poyoniga yetkazgan boshqaruv usullarini yangi sifat va talablar darajasiga ko‘tarish bilan mamlakatni rivojlantirishga olib keladi. Bu jarayonlar bevosita mahalliy hokimiyatlarning hududlarni rivojlantirishga oid masalalarni hal etishda mustaqil qarorlar qabul qilishning huquqiy asoslarini shakllantirishni taqoza qiladi. Shu nuqtai-nazardan Prezident SH.Mirziyoyev “Murojaat”ida parlamentning muhim qarorlar qabul qilish va qonunlar ijrosini nazorat etish faoliyatini kuchaytirish, ijro hokimiyati tizimini optimallashtirish, ma’muriy islohotlarni davom ettirish va davlat boshqaruvida zamonaviy menejment usullarini keng qo‘llash, davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish maqsadida davlat xizmatiga malakali mutaxassislarni jalb etishga qaratilgan yagona kadrlar siyosatini shakllantirish, mahalliy hokimiyat organlarining vakolat va mas’uliyatini qayta ko‘rib chiqishimiz, ularning mustaqilligini yanada oshirish vazifalari belgilanadi.¹⁰

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг Олий мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2018й, 29 декабрь.

Boshqaruvda adolatli davlat boshqaruvi tizimlari shakllanmas ekan, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari – ikkinchi uzviy bog'lanuvchi muhim tamoyil ta'minlanmaydi. Ular sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunday tizimning samarali faoliyati fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlashning real imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Oliy sud – oliy hakam sifatida jamiyatning yaxshi - yomoni, foyda – ziyonini belgilab beruvchi ma'naviy barometrga aylanadiki, bunday ijtimoiy muhitda jinoyat qilishdan kura bunyodkorlik qilish avfzalligi ustuvorlik kasb qiladi. Shu ma'noda Prezident SH.Mirziyoyev sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash maqsadida sudyalikka nomzodlarni tanlash va tayinlash tizimini yanada takomillashtirish lozimligiga ahamiyat berishi strategik maqsadlarning mushtarakligini ta'minlashga qaratiladi.¹¹

Jamiyatda adolatli boshqaruvning vujudga kelishi shubhasiz iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. Ular makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlash, tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, uning raqobatbardoshligini oshirish, ayniqsa, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning yangi innovatsion texnologiyalarining tadbiq etilishi imkoniyatlarini yaratadi. YA'ni rivojlanishning ichki qonuniyatlariga ko'ra, yangi sifat bosqichga ko'tarilishning murakkab, ammo takomillashgan shakllari paydo bo'ladi. Bu o'z navbatida iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishgaqaratilgan institusional va tarkibiy islohotlarni tadbiq etishni talab qiladi. Natijada mavjud salohiyatidan samarali foydalanish orqali joylarda mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o'sish sur'atlari vujudga keladi.

Jamiyatda ijtimoiy ongning o'zgarishi bilan ijtimoiy munosabatlar ham rivojlanib boradi. Jamiyat va uning holati aslida inson ongingin in'ikosi. Fuqaro qanday ezgu amallar ma'rifati bilan qurollangan (tarbiyalangan) bo'lsa, ana shu ruhiy qudrat istaklarining hosilasini oladi. Bu jarayon ulkan to'lqin sifatida millatning mushtarak maqsadlarida namoyon bo'ladi. Bu o'z navbatida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida yangi tarmoqlarning, ishchi o'rirlarning paydo

¹¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг Олий мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2018й, 29 декабрь.

bo‘lishiga xizmat qiladiki, tabiiy ravishda aholining real daromati va shunga muvoffiq ijtimoiy himoyasi, turmush darajasi ham oshib boradi.

Harakatlar strategiyasining samarali natijasi bevosita mamlakatda xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat samaradorligi bilan bog‘liq hodisa. Bunday deyishimizga sabab, tashqi siyosat ichki siyosatga, ichki siyosat tashqi siyosatning natijalariga bog‘liq bo‘ladi. Inchinun, millat ulug‘ maqsadlari yo‘lida sobitqadam va mushtarak bo‘lsalar, faoliyat amallari yuksak bo‘lsa, bunday xalq jahon xamjamiyatning munosib a’zosiga aylanib borishi bilan o‘z qudratini ham mustahkamlab boradi.

Dasturlarda belgilangan harakatlar strategiyasi barcha yo‘nalishlari tahlili bir-biriga bog‘liq uzviy qonuniyatlar bilan bog‘langanligini ko‘rsatib turibdi. Ular davlat boshqaruvi tizimlarining murakkablashuvi asnossida fuqarolarning ijtimoiy hayotga ishtirokini soddallashtirilishida, talab va ehtiyojlarga mos ishlab chiqarish vositalarining takomillashuvida, son ko‘rsatgichlarning o‘sishida, jamiyatning strukturaviy o‘zgarishlarida, ijtimoiy sohalarning rivojlanishida namoyon bo‘lmoqda. Albatta, startegiyaning muvoffaqiyatli joriy etilishi faqatgina undagi iqtisodiy va texnologik omillar bilan belgilanmaydi, bunda yetakchilar va qaror qabul qiluvchi rahbarlarning obro‘sisi, insoniy fazilatlari, strategiyaga doir shijoati ham muhim rol o‘ynaydi.¹² Eng katta va hal etuvchi kuch – bu xalqning irodasi bo‘lib qoladi.

4.4. Mustaqillik yillarda o‘zbek falsafasining zamonaviy yo‘nalishlari.

Milliy falsafaning bugungi takomili, mohiyat-e’tibori bilan, mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatimizning xalqaro nufuzi va aloqalarining o‘sib borishi, uning jahondagi eng taraqqiy etgan davlatlar qatoridan o‘rin egallashi, tinchlik, osoyishtalik, bag‘rikenglik va hamjihatlikka xizmat qiluvchi ezgu maqsad va g‘oyalarga tayanadi. Uning hayotiyligi xalq irodasi va ruhiyatiga, tushuncha va tuyg‘ulari, orzu va intilishlariga mosligi bilan belgilanadi, yurtimizda kechayotgan islohotlar jarayoni, davlatimizning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy hayotidagi ijobiy o‘zgarishlar to‘g‘risida xalqimizda to‘g‘ri tasavvur va tushunchalarni hosil qilib borish lozimligini ko‘rsatadi.

Bu esa, o‘z navbatida xalq dunyoqarashi va tafakkurini shakllantirish va takomillashtirishga yordam beradigan turli sohalariing hamkorligi va rivojlanishini taqozo qiladi. Shu bilan birga, aynan ana shu keng qamrovli

¹² Квант В. Стратегиялаш назарияси ва амалиёти. Т.; “TASVIR”. 2018й.41 б.

murakkab masalalar ularni o‘rganish va izohlashga aloqador mavzularning ko‘lami va mazmun-mohiyatini belgilaydi. Hayotning o‘ziga xos in’ikosi bo‘lgan falsafada ham bu jarayon muayyan tarzda aks etmoqda va uning yo‘nalishlarlariga ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi ushbu sohada istiqlol talablariga mos, yangi tafakkur va zamonaviy dunyoqarashga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlash tizimi shakllanishi uchun ham keng imkoniyat yaratdi. Bugungi kunda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Falsafa fakulteti, uning qoshida tashkil etilgan Falsafiy tadqiqotlar o‘quv-ilmiy majmuasi hamda O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati bilan birga, mamlakat oliv o‘quv yurtlarining 60 dan ortiq kafedralari ham falsafiy tadqiqot va ta’lim bilan muttasil shug‘ullanmokda. Har yili bu yo‘nalishda ko‘plab bakalavr va magistrler tayyorlanmokda, mustaqillik yillarida himoya qilingan dissertatsiyalar miqdori sobiq ittifoq davri - 70 yil davomidagi dissertatsiyalar sonidan oshib ketdi. Holbuki, o‘sha davrda yurtimizda bor-yo‘g‘i bitta falsafa bo‘limi mavjud bo‘lib, unda har ikki yilda bir marta 30 ga yaqin milliy mutaxassislar tayyorlanar, ularning tadqiqotlariga esa yetarlicha e’tibor va rag‘bat yo‘q edi. Istiqlol bu borada ham keskin burilishga sabab bo‘ldi. Masalan, mustaqillika erishilganidan keyingi 15 yil, ya’ni 1992 yildan 2006 yilgacha falsafa fanlari bo‘yicha 67 ta doktorlik va 100 dan ortiq nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. 1991 yildan 2013 yilgacha birgina O‘zMU falsafa fakulteti talabalari orasidan 40 dan ortiq fan doktorlari tayyorlandi. 2017 yildan hozirgi vaqtgacha ilmiy darajalar olish bo‘yicha yangi tizim asosida o‘nlab fan doktorlari (DSc) va yuzlab falsafa doktorlari (PhD) dissertatsiyalari himoya qilindi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, O‘zFA Falsafa va huquq institutida har yili «Mustaqil O‘zbekiston: falsafa va huquq fanlarining dolzarb muammolari» mavzuida ilmiy-nazariy anjuman o‘tkazilib kelindi. Unda falsafa va huquq fanlari sohasidagi tadqiqotlarning natijalari muhokama etilib borildi. 1999 yil 10 iyunda O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati tashkil topdi. Bu jamiyatning asosiy vazifasi mamlakatda xalqimizning milliy o‘zligini anglashning, milliy istiqlol mafkurasining ilmiy-naza-riy va falsafiy asoslarini yaratishda, nazariy va amaliy tadqiqotlarni olib borishda hamda mazkur tadqiqotlarning natijalarini keng ommalashtirishda, respublikada shakllanayotgan huquqiy, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatida milliy istiqlol g‘oyasining hayotiy ehtiyojga aylanishida barcha ziyorilarning birdamlik ruhidagi ishtirokini ta’minlashdan iborat, deb belgilangan. Jamiyat bugungi kunda bir qancha falsafiy kitob va risololarni nashr etdi, jahon faylasuflarining mumtoz asarlarini tarjima qilishga kirishdi, turli ilmiy anjumanlar tashkil etildi. Jamiyat respublikada falsafa fani sohasidagi tadqiqotlarni muvofiqlashtirish,

jadallashtirish, jamiyat manfaatlari yo‘nalishiga burish borasida ham muayyan tashkiliy ishlarni amalga oshirdi.

Mustaqillik yillarida bevosita falsafa yo‘nalishida xizmat qilayotgan mutaxassislarning kitob va risolalari, qator mualliflarning «Falsafa» nomli qo‘llanmalari bir necha bor nashr qilindi. Shu bilan birga, «Jahon falsafasi tarixidan lavhalar». - T.: Faylasuflar milliy jamiyati, 2004; «G‘arb falsafasi». - T.: Faylasuflar milliy jamiyati, 2005; «Huquq falsafasi». - T.: Universitet, 2005; «Bilish falsafasi». - T.: «Universitet», 2005; «Falsafa». - Nukus, 2008; «Falsafa asoslari» (albom sxema) - T.: 2009; «Falsafa va fan metodologiyasi» (2008); «Qadriyatlar falsafasi» (2011); «Gnoseologiya va bilish nazariyasi» (2011); «Falsafa» o‘quv-uslubiy majmuasi (2012), «G‘oyalar falsafasi» (2012); «Falsafa asoslari» (2012) kabi darslik va o‘quv qo‘llanmalari bilan birga «Falsafa: qomusiy lug‘at» (2004); «Falsafa: qisqa izohli lug‘at» (2005); «Ma’naviyat: asosiy atamalar lug‘ati» (2010) nashr etildi.

Istiqlol davriniig mevasi bo‘lgan «Tafakkur». «Ijtimoiy fikr», «Falsafa va huquq» hamda o‘z an’analariga ega bo‘lgan «O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar» jurnallari barcha gumanitar fanlar qatori, falsafiy bilimlarni targ‘ib va tashviq qilishning muhim vositasiga aylandi.

Istiqlol yillarida O‘zbekistonlik falsafa mutaxassislarning jahon hamjamiyati faylasuflari bilan samarali hamkorlik qilishi uchun sharoit vujudga keldi. Mamlakatimiz vakillari so‘nggi yillarda Turkiya (2009 yil), Janubiy Koreya (2011 yil) va 2013 yilda Gretsiya poytaxti Afina shahrida bo‘lib o‘tgan Faylasuflar butun jahon kongresslarida ishtirok etdilar. Bu boradagi xalqaro hamkorlik aloqalari kengayib bormoqda.

Bu misollar hozirgi davrda bu borada ham ijod va yangilanish, samarali izlanishlar va tadqiqotlar olib borish, yuksak malakali va iqtidorli kadrlar tayyorlash uchun shart-sharoitlar yaratilgani va eng asosiysi, jamiyatda bunga to‘la-to‘kis imkoniyat mavjudligini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Ma’naviy-axloqiy, ruhiy-jismoniy yetuk va faol shaxsgina jamiyat taraqqiyoti mazmunini, davlatning istiqbol yo‘lini, shaxs - jamiyat - davlat manfaatlarining uyg‘unligini to‘g‘ri tushunadi, shu yo‘lda hormaytolmay mehnat qiladi. Hozirgi davrdagi tub o‘zgarishlar jarayonining tahlili asosida ham bu jarayonning ijobiy xususiyatlarini anglash mumkin. Mamlakatimizda qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bunga asos bo‘ldi.

Bu borada kelajagi buyuk davlat, fuqarolik jamiyati haqida, unga bosqichma-bosqich o‘tish jarayoni, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning qaror topa borishi, komil insonni voyaga yetkazish davr talabi ekani kabi dasturiy vazifalarning hayotiyligi to‘g‘risidagi g‘oyalarni yoshlar qalbi va ongiga muttasil singdirib borish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda ushbu yo‘nalishda ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, falsafiy fanlar rivojini zamon talablari darajasiga yetkazish borasida g‘oyat mas’uliyatli vazifalar turibdi. Bugungi kunda siyosiy, mafkuraviy va ma’naviy sohalardagi taraqqiyot vazifalari o‘zaro uyg‘unlashib bormoqda, ta’sir doirasi kengaymoqda. Ayniqsa, milliy ma’naviyat borasidagi nazariy faoliyat va ilmiy tadqiqotlar doirasini kengaytirish, targ‘ibot va tashviqotni har tomonlama kuchaytirishga alohida ahamiyat berish zaruratga aylanib bormoqda. Ushbu vazifalarni samarali ado etish esa, bu boradagi imkoniyatlarni amaliy ishga aylantirishda har birimiz o‘z mas’ulligimizni qay darajada sezishimiz va qanday faoliyat yuritishimizga ko‘p jihatdan bog‘liq albatta.

Istiqlol tufayli yakka mafkura sirtmog‘idan qutilgan va eng yuqori darajada e’tibor berilayotgan bugungi o‘zbek falsafasida «Falsafa tarixi», «Ontologiya» va «Gnoseologiya», «Ijtimoiy falsafa», «Mantiq», «Etika», «Estetika», «Madaniyatshunoslik» kabi an’naviy yo‘nalishlar bilan birga, «Ma’naviyat falsafasi», «Inson falsafasi», «Qadriyatlar falsafasi», «Fan falsafasi», «G‘oyalar falsafasi», «Siyosat falsafasi», «Huquq falsafasi», «Din va hurfikrlilik falsafasi» singari sohalarda ham ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Keyingi yillarda ular katoriga «Iqtisod falsafasi», «Islohotlar falsafasi», «Axborot falsafasi» kabi zamonaviy yo‘nalishlar ham qo‘shilmokda.

Mazkur yo‘nalishlarning har biri maxsus mavzulari, muammolarning dolzarbliji, ularning o‘zaro bog‘liqligi, tavsifi va tahlilining o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, mazkur yo‘nalishlarga doir kitob va risolalar, o‘quv va yordamchi adabiyotlar, tadqiqot va izlanishlar bir butun o‘zbek falsafasining hozirgi qiyofasini ifodalaydi. Har bir yo‘nalish bo‘yicha bu boradagi dolzarb masalalar va vazifalarni aniqlash imkonini beradi.

Falsafa, hamma zamonlarda bo‘lgani kabi, bugungi kunda ham ijtimoiy tafakkur, jamiyat dunyokarashi va ma’naviy taraqqiyot mahsulidir. U kishilarning olamni bilish, o‘zlashtirish, farovon hayot kechirish va o‘z insoniy salohiyatlarini namoyon etish ehtiyojlari singari ko‘plab omillar bilan uзвиy bog‘liq. Falsafiy ta’limotlar barcha davrlarda insoniyatning ilg‘or tajribalarini o‘zida mujassamlashtirgan va jamiyag madaniyatini yanada kjsakroq bosqichga ko‘tarishga xizmat qilgan. Har bir falsafiy g‘oya va mafkura, nazariya va bilimlar tizimi asosan o‘z davri xususiyatlarini aks ettirgan. Ular zamon ruhi va ma’naviyatini o‘zida mujassamlashtirgan davr muammolarini hal etishda qo‘l kelgan.

Bu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar orasida *falsafa tarixi* masalalari alohida o‘rin egallaydi. Zero, haqqoni yoritilgan tarix milliy falsafani shakllantirishdagi asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Tarixni bilmay turib, falsafaning tayanch negizlarini anglab bo‘lmaydi. Chunki falsafiy asoslar o‘z davrida tarixiy haqiqat tufayli tug‘ilgan. Tarix va falsafa mantiqiy ravishda bir-

birini taqozo etadigan, to‘ldiradigan, taraqqiyot jarayonlari haqida yaxlit tasavvur beradigan, oqqorani farqlashda asos bo‘ladigan fanlardir. Afsuski, ko‘pgina qo‘llanmalarda u yoki bu faylasufning ta’limotiga alohida e’tibor beriladi, u haqda fikr yuritiladi. Ammo o‘sha davr qanday edi, nima sababdan muayyan olim aynan shu g‘oyani ilgari surgan, nega umrini birorbir ta’limotni targ‘ib etish bilan o‘tkazgan, degan masalalarga kam e’tibor beriladi. Aslida, davr har qanday faylasuf kamolotida muhim o‘rin tutadi, uning g‘oyalari tug‘ilishi uchun iqtisodiy-siyosiy asos va bu g‘oyalari qo‘llanadigan ijtimoiy amaliyat bo‘lib hisoblanadi. Agar masala bu tarzda ko‘yilmasa, falsafiy ta’limotlarning o‘z davrini aks ettiradigan mohiyatmazmuniga putur yetadi, ayniqsa o‘sha davr muammolarini ijtimoiy makon va tarixiy zamondan ajratib tahlil qilish natijasida falsafaning milliylik ruhi, xususiyatlari xiralashadi.

Istiqlol davrida falsafa tarixi, uning takomil bosqichlari, alloma bobolarimizning falsafiy merosi bilan bog‘liq bunday muhim masalalarg‘a O.Fayzullayev, M.Xayrullayev, H.Aliqulov, U.Uvatov, B.Turayev, R.Nosirov, M.Qodirov, A.Sharipov, A.Zohidov, G.Navro‘zova, SH.Madayevalarning asarlari va tadqikotlari bagishlangan. Bu mavzuda uzoq yillar davomida O‘zFA Falsafa va huquq instituti «Falsafa tarixi» bo‘limi va O‘zMUning shu yo‘nalishdagi kafedrasi mutaxassislari tadqikotlar olib borganlar. Illy bilan birga «Ma’naviyat yulduzları» (2001), «Jahon falsafasi tarixidan lavhalar» kitoblari, Imam Buxoriy xalqaro markazi tomonidan chop etilayotgan «O‘zbekiston buyuk allomalar yurti» to‘plami va «Mutafakkirlar» nomli ilmiy-ommabop kitobchalar (Tahrir hay’ati: U.Uvatov, A.Hasanov. B.Turayev, Q.Nazarov, A.Ochildiyev, M.Qarshiboyev, O.Yusupov, N.Jabborov, A.Muxtorov) turkumi bu yo‘nalishdagi sayharakatlar natijasidir.

Falsafiy g‘oyalari va ta’limotlarning insoniyat tarakqiyotida tutgan o‘rni, jamiyat va shaxs hayotidagi ahamiyati nimadan iborat, degan masalalar hamma davrlarda bo‘lgani kabi, hozir ham dolzarbligini saqlab qolmokda. Ayniqsa, tarixiy taraqkiyotning tub burilish davrlarida, xususan istiqlol tufayli xalqimiz hayotida ro‘y berayotgan bugungi tub o‘zgarishlar jarayonida falsafa tarixining asl mazmun-mohiyatini va ahamiyatini chuqr bilish, uning usul va g‘oyalari kuchidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Falsafaning ko‘plab sohalari va turli yo‘nalishlari orasida **«Ontologiya»** va **«Gnoseologiya»** muhim o‘rin egallaydi. O‘z o‘rni va ahamiyatiga ko‘ra asl falsafani o‘rganish aynan ontologiya va gnoseologiyadan boshlanadi. Shuning uchun ham o‘tmishda yashagan faylasuf va mutafakkirlar ijodida borliq va mavjudlik, koinot va olam, botiniylik va zohiriylilik, ong, tafakkur, bilish, haqiqat, materiya va harakat, makon va zamon, cheklilik va cheksizlik, inson va jamiyat borlig‘i bilan bog‘lik masalalarga alohida ahamiyat berilgan. Falsafa tarixida ushbu soxaga doir turli okimlar va yo‘nalishlar shakllangan. Borliq va bilish

bilan bog‘liq serqirra muammolar barcha davrlarda falsafaning asosiy mavzularidan biri bo‘lib kelgan turli falsafiy maktablar, oqimlar va yo‘nalishlar vakillari tafakkuriga ta’sir ko‘rsatgan.

Bu mavzu olamning dastlabki umumiylasini anglab yetmokchi bo‘lgan yoki yuz berayotgan voke-a-hodisalarining xususiy jihatlari va rangbarangligini tushunishga harakat qilgan barcha faylasuflar uchun bir xil qiziqish uyg‘otadi. Borliq va bilishning mohiyatini, xususan uning cheksizligi va inson hayotining unga bog‘liqligini o‘rganish hozirgi davrda ham falsafaning asl mazmun-mohiyatini ifodalovchi masalalardan biridir. Falsafaning an’anaviy

yo‘nalishlari bo‘lgan ontologiya va gnoseologiya, fan falsafasi va metodologiyasi bilan bog‘lik bu masalalar M.Abdullayeva, B. To‘rayev,

B.Karimov, R.Imomaliyeva, J.Ramatov, Z.Davronov, SH.Qo‘sboqov, I.To‘xtarov, Z.Qodirova, K.Tulenova, N.Shermuhamedova, X.Salomova, G.Tulenovalar tomonidan tadqik qilinmoqda. Ularning chop etilgan asarlari va amalga oshirilayotgan izlanishlarida ana shu yo‘nalishning dolzarb masalalariga e’tibor qaratilgan.

Bu sohadagi muammolar ko‘lami va ahamiyati jihatidan umuminsoniy va har bir shaxs uchun o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy ma’noda bashariyat va borliqning umumiylasini eng global masalalariga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Dunyoda umumbashariy muammolar ko‘payib, ekologik tanglik tobora kuchayib borayotgan hozirgi davrda borliq bilan bog‘liq masalalar ko‘p jihatdan muammoli bo‘lib qoldi. Yerda hayot saqlanib qoladimi, bironbir olamshumul falokat ro‘y berib, Yerding o‘zi sayyora sifatida yo‘kolib ketmaydimi, insoniyatning kelajagi qanday bo‘ladi, degan savollar butun dunyoda yashayotgan kishilarni tashvishga solmoqda. Haligacha bu borada barcha savollarga to‘liq javob beradigan, hamma tomonidan to‘la-to‘kis va mutlaq haqiqat tarzida e’tirof etilgan umumiylasini nazariya yoki ta’limot yo‘q. Yashash va o‘lim, insonning borligi, hayotning mazmuni, umrning intihosi bilan bog‘liq qarashlar to‘grisida ham shunday deyish mum-kin. Bu yorug‘ olamda yakka va yolg‘izmizmi yoki boshqa dunyolar va boshqacharoq hayot ham bormi, degan savollarga ham to‘la-to‘kis javoblar yo‘q. Insoniyat qanchalik ko‘p bilimlarga ega bo‘lmashin, bu sohada savollar kamayib borayapti, odam zoti ularga berilayotgan javoblardan to‘la-to‘kis qoniqayapti, deyish uchun ham asoslar yetarli emas. Shunday bo‘lsada, har bir avlod ana shu masalalarga javob qidiradi, ularga o‘zicha yondashadi, qandaydir xulosalarga keladi, ular asosida hayoti va faoliyatini tashkil etishga, o‘z bilimlari doirasini yanada kengaytirishga harakat qiladi.

Shu ma’noda, bugungi kunda mazkur yo‘nalishda borlik va uning shakllari, rivojlanish falsafasining nazariy va amaliy masalalari, O‘zbekiston taraqqiyotining asosiy tamoyillari va ular bilan bogliq falsafiy masalalar, bilish falsafasining an’anaviy va zamonaviy muammolari, istiklol yillarda jamiyat

hayoti, ma’naviyati, fukarolar ongi va tafakkurida ro‘y bergan o‘zgarish va yangilanishlar, fan falsafasi va metodologiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi davrda «*Ijtimoiy falsafa*» yo‘nalishiga doir falsafiy masalalar tahlili ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada ijtimoiy falsafiy fikrlar rivojiga doir qarashlar tarixining asl durdonalari nafaqat

G‘arb, balki Sharkda yaratilgani, yurtimiz sivilizatsiyasining ulkan hissasi jaxon madaniyatini eng buyuk yutuqlari sifatida muqarrar sur’atda e’tirof etilishi bugungi davrning asosiy haqiqatlaridan biridir. Ijtimoiy falsafa masalalari o‘tmishda ham, hozir ham u yoki bu olim yoki mutaxassis yashagan davr, uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit jarayonlari va voqealari bilan aloqadorlikda uzviy bog‘liqlikda izohlaiadi. O‘tmishning buyuk aql egalari u yoki bu mavzuga ko‘proq e’tibor bergenliklari tasodifiy emas, balki zaruriyatdir. Ular «davr tarozisi» tamal toshlarini qo‘yan, zamona zayllariga ta’sir ko‘rsatadigan, kishilar uchun yuksak ijtimoiyma’naviy mezonlar mavqeiga ega bo‘lgan tushuncha va kategoriyalarni sharhlaganlar, tahlil qilganlar yoki ularni amalga oshirish yo‘llarini izohlab bergenlar. Xalqimiz o‘tmishiga xos ijtimoiy falsafiy fikrlar rivoji masalasi esa bir necha alohida tadqiqotlar uchun mavzu bo‘lishga arziyi.

Bugungi kunda xalqimiz tanlab olgan taraqqiyot modelining mohiyati, mustaqillikning sermashaqqat yo‘li, uni bosqichma-bosqich mustahkamlash, bu jarayonga xos qonuniyatlar va xususiyatlarni chuqur o‘rganish ijtimoiy falsafa sohasidagi ustuvor mavzuni tashkil qiladi. Bu esa yurtimizda istiqlol yillarda ijtimoiy falsafiy mavzularni ilmiy tadqiqotlar va ma’rifiy jarayonlarning maxsus yo‘nalishiga aylanishi uchun ehtiyoj paydo bo‘lganidan dalolat beradi.

Mustaqillik boshqa sohalar kabi mazkur mavzuni ijtimoiy falsafa doirasida chuqur o‘rganish uchun ham keng imkoniyatlar yaratdi. Bu yo‘nalishda istiqlol yillarda O‘zMUning «Ijtimoiy falsafa» kafedrasi, O‘zFA Falsafa va huquq instituti «Ijtimoiy falsafa» bo‘limi va O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati mutaxassislari tadqiqotlar olib bordilar. A.Valiyev, T.Sharipov, YO.Tirov, M.Abdullayev, A.Choriyev, A.Jalolov, I. Soifnazarov, B.To‘ychiyev, S.Mamashokirov, O‘Abilov, M. Xolmatova, D.Norqulov, Q.Nazarov, A.Ochidiyev, SH. Mamadaliyev, F.Musayev,

F.Turg‘unboyev va boshqalarning izlanishlari ushbu mavzularga bag‘ishlangan.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda shakllanayotgan ijtimoiy-falsafiy tushuncha va to moyillar tizimining istiqboldagi manzarasi va unda umuminsoniy, milliy, demokratik qonuniyatlarning uyg‘unlashuvi mavzui ham nihoyatda dolzarblashmokda. Mamlakatimizniig xalqaro andozalar va milliy an’analarga tayanadigan demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish yo‘lidan borayotganligi bu jarayonning ijtimoiy-falsafiy masalalarini chuqur o‘rganishni

talab qilmoqda. Bu esa, aholining turli qatlamlari, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongiga istiqlol g‘oyalarini, jamiyatimizda ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar va islohotlarning mohiyatini, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini singdirish masalalari nihoyatda dolzarb vazifaga aylanayotganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda «*Ma’naviyat falsafasi*» yangi yo‘nalish sifatida shakllanib bormoqda, zamonaviy o‘zbek falsafasining tarkibiy qismi va ilmiy izlanishlarning tadqiqot obyektiga aylanmoqda. Bu borada ta’kidlash joizki, ko‘pchilik mutaxassislar aksariyat fanlarning nomlari chetdan kirib kelishiga o‘rganib qolgan. Ammo «*Ma’naviyat falsafasi*» bilan bog‘liq O‘zbekistonndagi amaliyot bundan keskin farq qiladi. Bu borada bizning mamlakatimizda mustaqil fanning shakllanishi uchun barcha nazariy va metodologik asoslar yaratilgan. Birinchi Prezidentimizning asarlari, ayniqsa «*Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch*» kitobi shu sohadagi asosiy manba hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishdagi fanlarni ta’lim tizimiga joriy etish bo‘yicha muayyan tajriba ham to‘plandi.

Zero o‘tgan asrning 90 yillaridan boshlab «Odobnoma», «Vatan tuyg‘usi», «*Ma’naviyat asoslari*» kabi fanlar ta’lim tizimiga joriy etildi, «Milliy istiqlol g‘oyasi» fani yaratildi. Bu sohada bakalavrlar va magistrler tayyorlanmoqda, qator oliy o‘quv yurtlarida kafedralar tashkil qilingan, o‘quv dasturlari va majmualar tayyorlangan. 2019-2020 o‘quv yilidan boshlab ushbu fanlar umumlashtirilib, “Tarbiya” fani joriy etildi. «*Ma’naviyat va yangilanayotgan jamiyat*» ruknida risolalar turkumi, hajmi 63 bosma taboqdan iborat «*Ma’naviyat: asosiy atamalar lug‘ati*» chop etildi, «*Ma’naviyatshunoslik bo‘yicha IZOHLI ko‘rgazmali vositalar*», «*Ma’naviyat asoslari*» amaliy mashg‘ulotlar to‘plami, «*Ma’naviy jasorat sohiblari*» ruknida kitob va risolalar tayyorlash bo‘yicha ishlar olib borilmoqsa. X.Shayxova, A.Begmatov, S.Otamurodov, M. Imomnazarov, M. Abdurahmonov, Q.Nazarov, V.Alimasov, A.Muxtorov, T.Alimardonov, F.Ravshanov, V.Qo‘chqorov, SH.To‘rayevlarning tadqiqot va izlanishlari falsafaning ana shu yo‘nalishiga doir mavzularga bag‘ishlangan.

O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasining qayd etilgan maqolasida ta’kidlangani kabi, mustaqillik tufayli «*Sotsiologiya*» fanini rivojlantirish imkoniyati tug‘ildi. U hozir jadal sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Ilk marta Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti)ning falsafa-iqtisod fakulteti huzurida 1989 yilda sotsiologiya bo‘limi tashkil etildi va 25 ta talaba qabul qilindi. Birinchi sotsiologiya fakulteti esa 1990 yil Farg‘ona pedagogika instituti (hozirgi Farg‘ona universiteti)da tashkil etilib, asosan amaliy yo‘nalishlarga ixtisoslashgan mutaxassislar tayyorlana boshlandi. Keyinchalik Samarqand universiteti, Nukus universiteti va Buxoro universitetlarida sotsiologiya bo‘limlari ochildi. 2000 yilga kelib barcha oliy o‘quv yurtlarining 3-bosqich talabalariga sotsiologiya fani o‘qitiladigan bo‘ldi. Shuningdek, ayrim oliy o‘quv yurtlarida ixtisoslik asosida sotsiologiyaning

tarmoq yo‘nalishlari ham o‘quv dasturlaridan o‘rin oldi. Jamoatchilik fikrini o‘rganishning bugungi axborotlar dunyosida katta ahamiyat kasb etishini inobatga olib, 1997 yili «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi tashkil etildi. Markazda har yili o‘ndan ortiq mavzuda sotsiologik tadqiqotlar olib boriladi. Ularni o‘tkazishga respublikaning tajribali amaliyotchi mutaxassislar - O.Otamirzayev, M.Hojimuhamedov, O‘.Qayumov, I.A’zamxo‘jayevlar jalg qilingan. Bugungi kunda ko‘plab talaba, tinglovchi va aspirantlar ham markaz tomonidan o‘tkaziladigan amaliy tadqiqotlarda ishtirok etmoqda.

Mustaqillik yillarda sotsiologiya sohasida malakali mutaxassislar yetishmoqda, bir necha tadqiqotchilar dissertatsiyalar himoya qildi.

Mamlakatda bu fanning metodolik muammolarini izchil yoritib borayotgan «Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari» jurnali o‘zbek, rus va ingliz tillarida nashr etilmoqda. O‘zbekistonda bir necha ilmiy muassasalar (O‘zMU, O‘zbekiston FA, viloyatlardagi universitetlar) da nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ijtimoiy jarayonlarni modellashtirish (N.Aliqoriyev), jamoatchilik fikrini o‘rganish (R.Ubaydullayeva), demografik jarayonlarni tadkiq etish (O.Otamirzayev) yo‘nalishlarida ilmiy ishlar qilingan, milliy mentalitet (M.Bekmurodov), tafakkur tarzi (B.Farfiyev), mahalla fenomeni (K. Kalonov) o‘rganilmoqda. Mutaxassislar sotsiologiyaning turli yo‘nalishlari (nazariy sotsiologiya - R.T. Ubaydullayeva; mehnat sotsiologiyasi - Q.Abdurahmonov; ekologik sotsiologiya - A.Qahhorov; din sotsiologiyasi - M. G‘aniyeva; siyosiy sotsiologiya - A.Xolbekov) bo‘yicha muayyan ishlar qildilar. O‘zbek hamda rus tillarida sotsiologiyaga oid bir qancha qo‘llanma va dasturlar chop etildi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng milliy axloqiy kadriyatlar, urfodatlar, an'analar jamiyatda o‘z o‘rnini egallagach, «*Etika*» fani ham taraqqiyot yo‘liga kirdi, etika tarixi va nazariyasiga doir tadqiqotlar e’lon qilindi (Y.Jumaboyev, «O‘zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan»; E. Yusupov hammualliflikda «Odamiylik saboqlari», X.Shayxova «Ma’naviyat - komillik mezoni»), oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun «Axloqshunoslik» (A.Sherov) darsligi yaratildi. Bugungi kunda O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlari etika sohasida 5 ta fan doktori va 15 dan ortik fan nomzodi ish olib bormoqda. O‘zbekiston Milliy universitetida «Etika va estetika kafedrasи» faoliyat ko‘rsatmoqda. Unda etika yo‘nalishi bo‘yicha magistratura va doktorantura mavjud. Barcha oliy o‘quv yurtlarida etika fani «Axloqshunoslik» nomi ostida o‘qtiladi. X.Shayxova, H.Alikulov, O‘.Abilov, N.Hakimov, D.Norqulov, A.Sherov, O‘.Jalolova, SH.Sodiqovalarning izlanishlari shu yo‘nalish bilan bog‘liq masalalarga bag‘ishlangan. Axloqiy tafakkurning rivojlanish tarixi va nazariyası, etikaning umuminsoniy tamoyillari va milliy xususiyatlari, insoniyat ma’naviy kamolotiga katta ta’sir ko‘rsatgan allomalar va mutafakkirlarining

axloqiy qarashlari, xalkimizning axloqiy qadriyatlar, ularning ma’naviy tarakqiyotimizdagi o’rni va ahamiyati, adolat va odillik haqidagi g‘oyalarning ma’naviy-axlokiy asoslari; aholining turli katlamlari, ayniqsa yosh avlodning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari bu boradagi asarlar va izlanishlarning asosiy mavzusiga aylangan.

Mustaqillik davrida «*Estetika*» yo‘nalishidagi falsafiy tadqiqotlarga ham e’tibor kuchaydi. Estetik madaniyat (M.Abdullayev), estetik qadriyatlar (T.Mahmudov), estetika tarixi (A.Qurbanmamedov) borasida ilmiy ishlar e’lon qilindi. Bu yo‘nalishga doir mavzular muammolari T. Mahmudov, M.Nurmatov, E.Umarov, A.Qurbanmamedov, M.Nurmatova, A.Sherov, B.Husanov, L.Muhamadiyeva va boshqalarning asarlari hamda tadqiqotlarining mazmun-mohiyatini belgilaydi. Estetika tarixi va nazariyasi, estetikaning umuminsoniy qonuniyatları va xalqimizga xos milliy xususiyatlari, inson umri va hayotining estetik mazmuni; jamiyat sohalari va ijtimoiy faoliyat yo‘nalishlariga xos estetik qadriyatlar, me’morchilik va dizayn san’atida umumiylit va xususiylik dialektikasi, sotsiomadaniy jarayonlar estetikasining zamonaviy jihatlari, san’at, teatr va badiiy ijod shakllarining estetik tamoyillari, aholi, ayniqsa yoshlarda estetik madaniyatni shakllantirish va estetik tarbiyaning dolzarb masalalari ushbu yo‘nalishdagi izlanishlarning asosiy mavzusidir.

Mamlakat oliy o‘quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlarida bu yo‘nalishda 2013 yilda 6 ta fan doktori, 25 dan ortiq fan nomzodi faoliyat ko‘rsatdi. Estetika fani respublikaning barcha oliy o‘quv yurtlari, akademik litseylari va kollejlaridagi o‘quv rejalaridan qat’iy belgilangan soatlar hajmida o‘rin olgan. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti “Ijtimoiy fanlar” fakultetida estetika yo‘nalishi bo‘yicha magistratura va doktorantura faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Mamlakatda fuqarolarning estetik tarbiyasini yuksaltirishga, ularning estetik didi va estetik ehtiyojini shakllantirish hamda taraqqiy ettirishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy ipyar, turli tadbirlar muntazam o‘tkazilib borilmoqda.

O‘zbekistonda «*Mantiq*» ilmi bilan boglik mavzular tarixi olis o‘tmishdan boshlanadi. Istiqlol yillarda M.Xayrullayev, M.Haqberdiyev, I.Rahimov, M.Sharipov, D.Fayzixo‘jayeva, M.Qodirov, S.Mutalibov, A.Imomxo‘jayeva, M.Boltayevlar mantiq fani, uning tarixi, nazariyasi va amaliyotiga oid ilmiy ishlar kilishgan. So‘nggi yillarda bu sohani o‘rganishga katta e’tibor berilmoqda. M.Xayrullayev va M.Haqberdiyevlarning «*Mantiq*» kitobi, I.Rahimovning «*Mantiq*» darsligi, M.Sharipov va D. Fayzixo‘jayevalarning «*Mantiq*» o‘quv qo‘llanmasi nashr etildi. Respublikada mantiqshunos mutaxassislar O‘zMUNING “Ijtimoiy fanlar” fakultetida tayyorlanadi. Shu fakultetdagi «Falsafa tarixi va mantiq kafedrası» respublikada mantiqshunos mutaxassislarni tayyorlovchi tayanch kafedra hisoblanadi.

Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi va uni mustahkamlash bilan boglik tub islohotlar boshka sohalar qatori madaniyatiing mazmunmohiyati, jamiyat

hayoti va taraqqiyotidagi o‘rni va rolini chuqur o‘rganish, uning ijti-moiy funksiyalari va amaliy ahamiyatini yanada ravshanroq aniqlashni davr talabiga aylantirdi. Aynan ana shu zarurat «*Madaniyat falsafasi*» doirasidagi mavzularni yanada dolzarblashtirdi va ushbu yo‘nalishdagi izlanishlar ko‘lамини kengaytirdi. Bu masalalar Q.Xonazarov,

S.Shermuhamedov, M.Bekmurodov, M.Jakbarov, A.Ochilidiyev, SH.Samatov, S.Choriyev, G.Shermatova, A.Yo‘ldoshev, S.A’zamxo‘jayevalarning asarlari va tadqiqotlarida alohida ahamiyat kasb etgan. Ular tomonidan madaniyat nazariyasi va amaliyotining falsafiy masalalari, inson, jamiyat va madaniyatning o‘zaro nisbati, ularning o‘zaro bog‘liqlik va hamkorlik qonunlari, tamoyillari va mo‘ljallari, madaniyatning tarbiyaviy vazifasi va yuksak madaniyatli avlodni kamolga yetkazish haqidagi mavzular yoritilgan. Bu boradagi yondashuvlar, metodlar, muammo va masalalar, ustuvor yo‘nalish va dolzarb vazifalarga e’tibor qaratilgan.

Bugungi kunda davlat qurilishi va boshkaruvi sohasidagi islohotlar, jamiyatni rivojlantirish ehtiyojlari, mamlakat oldida turgan dolzarb vazifalar va maqsadlarni amaliy ro‘yobga chiqarish, shuningdek ko‘plab muammolarni nazariy jihatdan hal etish zaruratidan yuzaga kelgan «*Siyosat falsafasi*» yo‘nalishi ham o‘z o‘rniga ega. T.Jo‘rayev, A.Begmatov, A.Qodirov, I.Ergashev, S.Otamurodov, N.Hakimov, A.Mo‘minov, N.Jo‘rayev, R.Jumayev, V.Yo‘ldoshev, J.Yaxshilikov va boshqalarning tadqiqotlarida ana shu yo‘nalishga doir masalarga e’tibor berilgan. Ular tomonidan mamlakatimiz mustaqilligi va milliy taraqkiyot modeli, islohotlar siyosati; demokratiya va shaxs; jamiyatni demokratlashtirishning nazariy va amaliy muammolari; shaxsning siyosiy qiyofasi va ijtimoiy adolat, bozor sharoitlarida siyosat nazariyasi va amaliyoti muammolari, millaglar va milliy muiosabatlar, kadrlar siyosati, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish bilan bog‘liq ko‘plab mavzular tadqiq qilinmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda «*Huquq falsafasi*» yo‘nalishiga doir masalalar M.Rahmonqulov, H.Boboyev, S.Abduxoliqov, H.Odilqoriyev, SH.Mamadaliyev, F.Musayev, X.Haydarov, M.Qahhorov A.Qahhorov, M.Qirg‘izboyev, R.Ro‘ziyev kabi falsafa, huquq va boshqa sohalar mutaxassislarning izlanishlarida o‘z aksini topgan. Bu borada huquqshunoslik nazariyasi va amaliyotining falsafiy masala-lari, inson qadri, huquqi va erkinliklari; O‘zbekiston konstitusiyasining mazmunmohiyati va falsafiy ahamiyati; islohotlarning huquqiy asoslari, huquqda milliy va umumbashariy tamoyillar, falsafa va huquq o‘rtasidagi munosabatlar, huqukiy qadriyatlar va ularning amaliyoti kabi mavzularga e’tibor qaratilmoqda.

Mustaqillik yillarida yurtimizda qonun ustuvorligi ta’minlanadigan huquqiy demokratik davlat va dunyoviy jamiyat qurilishi eng ustuvor vazifaga aylandi,

dinga nisba- tan siyosat «Alloh qalbimizda, yuragimizda», «Dunyoviylik dahriylik emas» kabi Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan tamoyillar asosida amalga oshirilmoqda. Bu davrda dinga yangicha qarash va munosabat bildirish imkoniyati tug‘ildi. Natijada biz uchun yangi bo‘lgan «*Dinshunoslik*» fani qirralari ochila boshladi. Bu fan ilgarigi ateizmdan farqli o‘laroq dinni tanqid qilish, uni jamiyatdan yo‘qotish maqsadida emas, balki unga milliy ma’naviyatning bir bo‘lagi sifatida yondashib, uni xolisona o‘rganishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi. Ushbu fanni o‘qitishdan maqsad milliy va diniy qadriyatlarning tarixan mushtarakligi, ularning umuminsoniy qadriyatlar ila uyg‘unligi, bu qadriyatlarning hozirgi mustaqil O‘zbekiston sharoitidagi ahamiyatini yanada aniqroq yoritib berib, talabalarda dinga nisbatan to‘g‘ri yondashuvni shakllantirish va jamiyat uchun yuksak ma’naviyatli kadrlarni tarbiyalashdan iborat. Ma’naviyat va din masalalariga munosabat tubdan o‘zgargan hozirgi davrda bu jarayon bilan bog‘liq mavzular A.Ortiqov, A.Abdusamedov, N.Komilov, I.Jabborov, I.Xo‘jamurodov, T.Oqmurodov, Ibrohim Karimov, M.Nuritdinov, M. Rajabova, T.Toshlanov, I.Xudoyberdiyevlarning dissertatsiya, kitob va qo‘llanmalari hamda tadqiqotlarida o‘z aksini topmoqda. Bu borada dinlar tarixi va nazariyasi, dinshunoslik va hurfikrlilik asoslari; ijtimoiy taraqqiyot va din fenomenining ontologik, gnoseologik, psixologik va sotsiologik xususiyatlarining falsafiy tahlili, hozirgi sharoitda o‘zbek xalqining turmush tarzida diniy bag‘rikenglik va ijtimoiy hamkorlik tuyg‘ularining shakllanish xususiyatlari; islom dini va falsafasi, tasavvuf va komil inson; diniy aqidaparastlik va terrorchilikka qarshi kurash masalalarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo‘nalishda turli kitob, risola, ma’lumotnomalar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari chop etilmoqda.

«Ekologyaning falsafiy muammolari» yo‘nalishi mavzulariga S.Mamashokirov, E.Hoshimova, Y.Shodimetov, S.Sanginov, A.Berdimurotova kabi olimlarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan. Ularning tadqiqotlarida ekologiya tarixi va nazariyasining falsafiy xmasalalari, inson va tabiat, jamiyat va biosfera, ijtimoiy ekologiya, ekologik bo‘ronning falsafiy-metodologik tahlili va ekologik xavfsizlik muammolari, ekologik muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlik, ilmiytexnik taraqqiyot va ekologik ta’lim masalalarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi zamon falsafa va fan taraqqiyoti zamonaviy bilimlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi yangi paradigma va metodlarga katta ehtiyoj sezmoqda. Bu borada sinergetikaning tabiiy-falsafiy va g‘oyaviy asoslarini tahlil kilish. muqarrar ravishda, uning shakllanishi hamda namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rganishni taqozo ztadi. Sinergetika nafaqat tafakkurga yangi ma’no-mazmun olib kirdi, balki, ontologizm, gnostitsizm, pozitivizm, reduksionizm, relyativizm, postmodernizm g‘oyalari takomiliga ham ijobjiy

ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek undan tabiat, jamiyat, inson, ma'naviy-estetik muhit, informatsion va texnogen faoliyatni yangicha tasvirlash, tahlil qilish, ularni guruhlarga ajratish. kuzatish, talkin qilishga doir integrativ tadqiqot metodlarini qo'llashda samarali foydalanish mumkin.

Bugungi kunda ilmiy jamoatchilik fanlararo tadqiqot sohasi sifatida vujudga kelgan ushbu yangi ilmiy yo'nalish va undagi izlanishlar bilan bogliq masalalarini qizgin va keng muhokaxma qilmoqda. Bu muhokamalarda maxsus fanlar - matematika, fizika, kimyo, biologiya, iqtisodiyot va boshqa fan vakillari bilan bir qatorda faylasuflar ham qatnashmokda. I.Raximov, M.Usmonov. SH.Qahhorova, D.Bozorov, M.Niyazimbetovlarning izlanishlari «*Sinergetika*» faniga doir turli mavzularga bagishlangan. Bu yo'nalishda hozirgi kungacha olib borilgan ilmiy izlanishlarga asoslanib ta'kidlash joizki, sinergetika zamonaviy tadqiqot sohasi, falsafa va fanning shu kungacha shakllangan ko'pgina muammolarini qaytadan tahlil qilish imkonini beradigan yangi metodlardan biriga aylandi.

Zamonaviy o'zbek falsafasi oldida nihoyatda mas'uliyatli va dolzarb vazifalar turibdi. Avvalo, ajdodlarimiz yaratgan boy va o'lmas falsafiy merosning bosqinchi va istilochilar tomonidan unutilishga yoki yo'qotishga harakat qilingan jihatlarini tiklash, kelajak avlodlarga omon-eson yetkazish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, barchamizning zimmamizga tariximiz kabi qadim, ma'naviyatimiz kabi teran qadriyat bo'lgan o'zbek falsafasini yanada mukammallashtirish, uni davr talablariga mos, zamonaviy fan yo'nalishiga aylantirish borasida faol va omilkor bo'lish mas'uliyatini yuklaydi.

Falsafiy tafakkur yangilanishi taqozo etadigan eng muhim jarayonlardan yana biri inson huquqlari va manfaatlari bilan bog'liq bo'lib, bu - Asosiy qonunimizda mu jassam etilgan qoidalar, maqsad va g'oyalarni amalga oshirish yo'lida xizmat qilishdir. Shu o'rinda qabul qilinayotgan qonun va hujjatlarning asl mohiyatini, ularda bayon qilingan g'oya, xulosalar, takliflarni keng xalk ommasi ongiga yetkazish benihoya muhim va dolzarb ekanini ta'kidlash joiz. Chunki huquqiy jamiyat, falsafiy tafakkur va barkamol inson tushunchalari o'zaro bog'liq. Madaniy bozorni ham, ma'naviy sog'lom jamiyatni ham ana shunday kishilar yarata oladi. Ularni voyaga yetkazmay turib, jamiyatdagi yangilanishning asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish to'g'risida fikr yuri-tish qiyin. Shu bois, o'z xalqi tarixini, milliy davlatchilik va boshqaruv madaniyatini an'analarini yaxshi biladigan, milliy g'ururi yuksak avlodni tarbiyalash muhim vazifamizga aylandi.

Dunyo globallashib borayotgan hozirgi zamonda ezgu g'oyalar va ular negizidagi tamoyillar asosida yashash va ishslash, o'qish va o'rganish lozimligi davr talabi bo'lib qoldi. Bu yo'nalishda vayronkor g'oyalar, kosmopolitizm va fundamentalizm, «ommaviy madaniyat» va sivilizatsiyalar kurashi kabi

buzg‘unchi mafkuralar ta’siriga tushmaydigan barkamol shaxsni tarbiyalash ham falsafaning eng dolzARB masalalari sirasiga kiradi.

Shu bilan birga, falsafiy fanlar yo‘nalishlari bo‘yicha adabiyotlar tayyorlash, tarbiya texnologiyalarini qo‘llashda o‘ziga xos xususiyatlarni nazarda tutish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy-amaliy va o‘quv-uslubiy ishlanmalar bilan birga, aholi orasidagi ma’rifiy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishga yordam beradigan maxsus adabiyotlarni ko‘paytirish, tashviqotning zamonaviy texnologiyalari samarasini oshirish bilan bog‘liq dolzARB vazifalar davr talabiga aylandi.

Xullas, mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat barpo etilayotgan hozirgi sharoitda hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarida omilkor bo‘lish ushbu jabhadagi faoliyatimizning asosiy mezonidir. Shu bois, bugungi kunda mustaqillikning qadri va ahamiyatini yaxshi angraydigan, tafakkuri teran, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash zamonaviy o‘zbek falsafasining eng muhim va mas’uliyatli vazifasiga, barchamiz uchun davr talabiga aylandi.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-MAVZU: MARKAZIY OSIYODA FALSAFIY FANLAR VA MADANIYAT RIVOJLANISHINING TARIXIY ILDIZLARI.

Amaliy mashg‘ulotni olib borishda qo‘llaniladigan metod: “Klaster” metodi

Darsning ta’limiy maqsadi: Markaziy Osiyo tarixi, xususan O‘zbek falsafasi tarixidagi birlamchi muhim davr bo‘lgan Zardushtiylik ta’limotining kelib chiqish omillarini yoritib berish. “Avesto” ta’limoti falsafasi, shuningdek, Moniy va Mazdak ta’limotining o‘z davrigacha bo‘lgan barcha falsafiy ta’limot va oqimlarning eng progressiv va gumanistik tamoyillarini qamrab olgan kognitiv asosini, Islom ta’limotining yuzaga kelishi va Movarounnahrga kirib kelishi o‘rganish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: tarixiy falsafiy muammolarni bugungi kundagi ahamiyatini xis qilgan xolda yosh kadrlar ongida tizimli, konstruktiv tafakkur shakllanishiga erishish. Jamiyatda insonlarni falsafiy tafakkur, diniy va milliy qadriyatlarga hurmat va ulardan real hayotda tafakkur jarayonlarida foydalana olish ko‘nikmasini shakllantirish, milliy g‘urur, sha’n va qadr – qimmatini saqlashni o‘rganishdan iborat.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Tinglovchilarning ongida falsafiy gnoseologik tafakkur qonuniyatları tamoyillarini shakllantirish, falsafaning tarixiy va global muammolarni qamrab olish usullarini anglay olish va uni yetkazib berish metodikasi bilan tanishtirish.

“KLASTER” METODI

Falsafa tarixi, Sharq falsafasi, O‘zbek falsafasi, Markaziy Osiyoda ilk falsafiy ta’limotlar yuzaga kelishi, Zardusht faoliyati va merosi, “Avesto”, Zardushtiylikning diniy-falsafiy o‘ziga xosliklari, Ilk O‘rta asr Sharq falsafasi, Ilohiyot falsafasi, Kalom falsafasi, Samarcand sunniylik ilohiyoti - klaster usulda joylashish va biri ikkinchisiga mantiqiy bog‘lanishining konstruksiyasi hosil qilinadi.

“KLASTER” metodini amalga oshirish bosqichlari

- Metodningo‘tkazish tartibi, maqsadiga vazifa tushuntiriladi; □ Kichik guruqlar shakllantiriladi;

- Kichik muammo ajratib olish va o‘rganish (individual va kichik guruhlarda)
- Kichik muammolar mavjudligini tasdiqlovchi dalillar **Darsda foydalaniladigan texnologiya: “Klaster” Darsning borishi:**

1. Tashkiliy qism.

2. Tinglovchilarni amaliy mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.

Darsni o‘qituvchi kirish so‘zi bilan ochadi. U kirish so‘zida amaliy mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan tinglovchilarni tanishtirib, bugungi kunda ilohiyot falsafasining mohiyati, taraqqiyoti hamda axloqiy tarbiya, inson ma’naviy dunyoqarashga taxdid solayotgan ommaviy madaniyatdan asrovchi xususiyatlari borasida suhbat olib boriladi, tahlil qilinadi.

“Klaster” metodining o‘tkazilishi

Bu metoddan maqsad bir qancha muammolarni hududiy joylashtirish, mantiqiy strukturalarni aniqlash, muammoni qo‘yish vamuamolardan kelib chiqadigan muammolarni aniqlashga qaratilgan.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar.

Kichik guruhlarga birlashadilar, taqqoslaydilar,
o‘zlarining klasterlarini to‘ldiradilar. Umumiy klasterga keltiradilar.

Ish natijalarining taqdimoti. Yozuvlar qisqa, mazmun va dalillarni ifodalovchi kalit so‘zlar va iboralardan iborat bo‘lishi kerak. Dalillar mavhum fikrlash to‘g‘risida emas, balki aniq mexanizm to‘g‘risida gapirishga imkon beradi. Ish (izlanish) yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o‘tkazilishi mumkin. Muammolarning o‘zaro aloqasi, ularning umumiyligini xususiyatini namoyon etuvchi to‘ldirilgan sxemaning taqdimoti muhim bosqich hisoblanadi.

Amaliy mashg‘ulotni olib borishda qo‘llaniladigan metod: “Baliq skeleti”metodi

Darsning ta’limiy maqsadi: Falsafa tarixi, xususan Markaziy Osiyo xalqlari falsafasi tarixidagi muhim davrdardan biri bo‘lgan Qadimgi davrda Zardushtiylik ta’limotining kelib chiqish omillarini yoritib berish. Moniylik va mazdakiylik ta’limotlarining falsafa va madaniyatga ta’sirini va o‘z davrigacha bo‘lgan barcha falsafiy ta’limot va oqimlarning eng progressiv va gumanistik tamoyillarini qamrab olgan kognitiv asosini o‘rganish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: tarixiy falsafiy muammolarni bugungi kundagi ahamiyatini xis qilgan xolda yosh kadrlar ongida tizimli, konstruktiv

tafakkur shakllanishiga erishish. Jamiyatda insonlarni falsafiy tafakkur, madaniy, ilmiy va milliy qadriyatlarga hurmat va ulardan real hayotda tafakkur jarayonlarida foydalana olish ko‘nikmasini shakllantirish, milliy g‘urur, sha’n va qadr – qimmatini saqlashni o‘rganishdan iborat.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Tinglovchilarning ongida falsafiy gnoseologik tafakkur qonuniyatlari tamoyillarini shakllantirish, falsafaning tarixiy va global muammolarni qamrab olish usullarini anglay olish va uni yetkazib berish metodikasi bilan tanishtirish.

“BALIQ SKELETI” METODI

Falsafa tarixi, Sharq falsafasi, O‘zbek falsafasi, Markaziy Osiyoda ilk falsafiy ta’limotlar yuzaga kelishi, Zardusht faoliyati va merosi, “Avesto”, Zardushtiylikning diniy-falsafiy o‘ziga xosliklari, Ilk O‘rta asr Sharq falsafasi, Ilohiyot falsafasi, Kalom falsafasi, Samarqand sunniylik ilohiyoti qarashlari, o‘zaro aloqador ta’limot va ilmiy fikrlar uyg‘unligi dialektikasi mantiqiy bog‘lanishining konstruksiyasi hosil qilinadi.

“BALIQ SKELETI” metodini amalga oshirish bosqichlari

- Metodningo‘tkazish tartibi, maqsadiva vazifa tushuntiriladi;
- Kichik guruuhlar shakllantiriladi;
- Kichik muammo ajratib olish va o‘rganish (individual va kichik guruhlarda)
- Kichik muammolar mavjudligini tasdiqlovchi dalillar

2-MAVZU. IX-XII ASRLARDA UYG'ONISH DAVRI FALSAFASI.

Amaliy mashg'ulotni olib borishda qo'llaniladigan metod: "Keys stadi" metodi

Darsning ta'limiyl maqsadi: Falsafa tarixi, xususan O'zbek falsafasi tarixidagi eng muhim davr bo'lgan IX – XII asrlar Sharq Uyg'onish davri kelib chiqish omillarini yoritib berish. Uyg'onish davri mutafakkirlari ilmiy merosining O'zbek falsafasi rivojlanishida tutgan o'rnini har tomonlama tahlil etish. Tasavvuf va ilohiyotshunoslikning falsafa va madaniyatga ta'sirini o'rganish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: tarixiy falsafiy muammolarni bugungi kundagi ahamiyatini xis qilgan xolda yosh kadrlar ongida tizimli, konstruktiv tafakkur shakllanishiga erishish. Jamiyatda insonlarni falsafiy tafakkur, madaniy, ilmiy va milliy qadriyatlarga hurmat va ulardan real hayotda tafakkur jarayonlarida foydalana olish ko'nikmasini shakllantirish, milliy g'urur, sha'n va qadr – qimmatini saqlashni o'rganishdan iborat.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Tinglovchilarning ongida falsafiy gnoseologik tafakkur qonuniyatlarini tamoyillarini shakllantirish, falsafaning tarixiy va global muammolarni qamrab olish usullarini anglay olish va uni yetkazib berish metodikasi bilan tanishtirish.

"KEYS-STADI" METODI

«**Keys-stadi**» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruva fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/Qanaqa (How), Nimanatija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Darsda foydalananligantexnologiya: “Keys stadi” Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.

2. Tinglovchilarni amaliy mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.

Darsni o‘qituvchi kirish so‘zi bilan ochadi. U kirish so‘zida amaliy mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan tinglovchilarni tanishtirib, bugungi kunda tasavvuf falsafasining mohiyati, taraqqiyoti hamda axloqiy tarbiya, inson ma’naviy dunyoqarashga taxdid solayotgan ommaviy madaniyatdan asrovchi xususiyatlari borasida suhbat olib boriladi, tahlil qilinadi.

“KEYS STADI” metodining o‘tkazilishi

Bu metoddan maqsad bir qancha muammolarni hududiy joylashtirish, keys holatini aniqlash, muammoni qo‘yish vamuamolardan kelib chiqadigan muammolarni aniqlashga qaratilgan.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar.

Kichik guruhlarga birlashadilar, taqqoslaydilar, o‘zlarining keys muammolarini tuzadilar. Umumiy keysiga keltiradilar.

Ish natijalarining taqdimoti. Yozuvlar qisqa, mazmun va dalillarni ifodalovchi kalit so‘zlar va iboralardan iborat bo‘lishi kerak. Dalillar mavhum fikrlash to‘g‘risida emas, balki aniq mexanizm to‘g‘risida gapirishga imkon beradi. Ish (izlanish) yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o‘tkazilishi mumkin. Muammolarning o‘zaro aloqasi, ularning umumiy xususiyatini namoyon etuvchi to‘ldirilgan sxemaning taqdimoti muhim bosqich hisoblanadi.

3-MAVZU. XX ASR O‘ZBEK FALSAFASI VA UNING RIVOJLANISH STRATEGIYASI.

Amaliy mashg‘ulotni olib borishda qo‘llaniladigan metod: “Baliq skeleti” metodi

Darsning ta’limiy maqsadi: O‘zbek falsafasi tarixida murakkab, sinovli davr bo‘lgan XX asr milliy falsafasi: asr boshidagi jadidchilik falsafiy qarashlari va sovet davri falsafiy qarashlarini yoritib berish. Jadidchilar falsafiy qarashlarining milliy falsafa taraqqiyotidagi o‘rnini ko‘rsatib berish. Sovet davrida totalitar mafkuraning falsafaga ko‘rsatgan g‘ayriilmiy salbiy ta’siri mohiyatini ochib berish. Sobiq sovet tuzumi davrida milliy faylasuflar qatlaming O‘zbekistonda falsafa fani rivojiga qo‘shtan xizmatlarini o‘rganish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: tarixiy falsafiy muammolarni bugungi kundagi ahamiyatini xis qilgan xolda yosh kadrlar ongida tizimli, konstruktiv

tafakkur shakllanishiga erishish. Jamiyatda insonlarni falsafiy tafakkur, madaniy, ilmiy va milliy qadriyatlarga hurmat va ulardan real hayotda tafakkur jarayonlarida foydalana olish ko‘nikmasini shakllantirish, milliy g‘urur, sha’n va qadr – qimmatini saqlashni o‘rganishdan iborat.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Tinglovchilarning ongida falsafiy gnoseologik tafakkur qonuniyatlari tamoyillarini shakllantirish, falsafaning tarixiy va global muammolarni qamrab olish usullarini anglay olish va uni yetkazib berish metodikasi bilan tanishtirish.

“BALIQ SKELETI” METODI

Falsafa tarixi, O‘zbek falsafasi, Jadidchilik harakati, ma’rifatparvarlik, Ismoil G‘aspiralibey, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Abdulla Avloniy falsafiy-siyosiy qarashlari, o‘zaro aloqador ta’lim va ilmiy fikrlar uyg‘unligi dialektikasi mantiqiy bog‘lanishining konstruksiyasi hosil qilinadi.

“BALIQ SKELETI” metodini amalga oshirish bosqichlari

- Metodning o‘tkazish tartibi, maqsadi va vazifa tushuntiriladi;
- Kichik guruuhlar shakllantiriladi;
- Kichik muammo ajratib olish va o‘rganish (individual va kichik guruhlarda)
- Kichik muammolar mavjudligini tasdiqlovchi dalillar

Darsda foydalaniladigan texnologiya: “BALIQ SKELETI”

Darsning borishi:

1. *Tashkiliy qism.*
2. *Tinglovchilarni amaliy mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.*

Darsni o‘qituvchi kirish so‘zi bilan ochadi. U kirish so‘zida amaliy mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan tinglovchilarni tanishtirib, bugungi kunda peripatetizm falsafasining mohiyati, taraqqiyoti hamda axloqiy tarbiya, inson ma’naviy dunyoqarashga taxdid solayotgan ommaviy madaniyatdan asrovchi xususiyatlari borasida suhbat olib boriladi, tahlil qilinadi.

“BALIQ SKELETI” metodining o‘tkazilishi

Bu metoddan maqsad bir qancha muammolarni hududiy joylashtirish, mantiqiy strukturalarni aniqlash, muammoni qo‘yish vamuamolardan kelib chiqadigan muammolarni aniqlashga qaratilgan.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar.

Kichik guruhlarga birlashadilar, taqqoslaydilar,
o‘zlarining klasterlarini to‘ldiradilar. Umumiy klasterga keltiradilar.

Ish natijalarining taqdimoti. Yozuvlar qisqa, mazmun va dalillarni ifodalovchi kalit so‘zlar va iboralardan iborat bo‘lishi kerak. Dalillar mavhum fikrlash to‘g‘risida emas, balki aniq mexanizm to‘g‘risida gapirishga imkon beradi. Ish (izlanish) yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o‘tkazilishi mumkin. Muammolarning o‘zaro aloqasi, ularning umumiy xususiyatini namoyon etuvchi to‘ldirilgan sxemaning taqdimoti muhim bosqich hisoblanadi.

Amaliy mashg‘ulotni olib borishda qo‘llaniladigan metod: “Klaster” metodi

“KLASTER” METODI

Falsafa tarixi, O‘zbek falsafasi, Sovet davri falsafa fanida totalitarizm mafkurasining o‘rni, SHO‘ro tuzumi davrida O‘zbekistonda milliy faylasuflar faoliyati, Ibrohim Mo‘minov, Erkin Yusupov va b. ilmiy merosi - klaster usulda joylashish va biri ikkinchisiga mantiqiy bog‘lanishining konstruksiyasi hosil qilinadi.

“KLASTER” metodini amalga oshirish bosqichlari

- Metodningo‘tkazish tartibi, maqsadiva vazifa tushuntiriladi;
- Kichik guruhlar shakllantiriladi;
- Kichik muammo ajratib olish va o‘rganish (individual va kichik guruhlarda)
- Kichik muammolar mavjudligini tasdiqlovchi dalillar

Darsda foydalilaniladigan texnologiya: “Klaster” Darsning borishi:

1. *Tashkiliy qism.*
2. *Tinglovchilarni amaliy mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.*

“Klaster” metodining o‘tkazilishi

Bu metoddan maqsad bir qancha muammolarni hududiy joylashtirish, mantiqiy strukturalarni aniqlash, muammoni qo‘yish vamuamolardan kelib chiqadigan muammolarni aniqlashga qaratilgan.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar.

Kichik guruhlarga birlashadilar, taqqoslaydilar,
o‘zlarining klasterlarini to‘ldiradilar. Umumiy klasterga keltiradilar.

Ish natijalarining taqdimoti. Yozuvlar qisqa, mazmun va dalillarni ifodalovchi kalit so‘zlar va iboralardan iborat bo‘lishi kerak. Dalillar mavhum fikrlash to‘g‘risida emas, balki aniq mexanizm to‘g‘risida gapirishga imkon beradi. Ish (izlanish) yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o‘tkazilishi mumkin. Muammolarning o‘zaro aloqasi, ularning umumiy xususiyatini namoyon etuvchi to‘ldirilgan sxemaning taqdimoti muhim bosqich hisoblanadi.

4-MAVZU. O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA FALSAFA FANINING RIVOJLANISHI ISTIQBOLLARI.

**Amaliy mashg‘ulotni olib borishda qo‘llaniladigan metod:
“FSMU” metodi**

Darsning ta’limiy maqsadi: Falsafa tarixi, xususan O‘zbek falsafasi tarixida mutlaqo yangi taraqqiyot davri bo‘lgan mustaqillik yillarda O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivoji, yangicha ta’limotlarning kelib chiqish omillarini yoritib berish. Ushbu davr falsafasining o‘z davrigacha bo‘lgan barcha falsafiy ta’limot va oqimlarning eng progressiv va gumanistik tamoyillarini qamrab olgan kognitiv asosini o‘rganish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: tarixiy falsafiy muammolarni bugungi kundagi ahamiyatini xis qilgan xolda yosh kadrlar ongida tizimli, konstruktiv tafakkur shakllanishiga erishish. Jamiyatda insonlarni falsafiy tafakkur, diniy va milliy qadriyatlarga hurmat va ulardan real hayotda tafakkur jarayonlarida foydalana olish ko‘nikmasini shakllantirish, milliy g‘urur, sha’n va qadr – qimmatini saqlashni o‘rganishdan iborat.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Tinglovchilarning ongida falsafiy gnoseologik tafakkur qonuniyatlarini tamoyillarini shakllantirish, falsafaning tarixiy va global muammolarni qamrab olish usullarini anglay olish va uni yetkazib berish metodikasi bilan tanishtirish.

“FSMU” METODI

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiyligi fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:



- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Darsda foydalilanadigan texnologiya: “FSMU” Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.

2. Tinglovchilarni amaliy mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.

“FSMU” metodining o‘tkazilishi

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatlari o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi Eshituvchilar kichik guruhlarga birlashadilar, taqqoslaydilar, o‘zlarining FSMU modellarini tuzadilar. Umumiy modelga keltiradilar.

Ish natijalarining taqdimoti. Yozuvlar qisqa, mazmun va dalillarni ifodalovchi kalit so‘zlar va iboralardan iborat bo‘lishi kerak. Dalillar mavhum fikrlash to‘g‘risida emas, balki aniq mexanizm to‘g‘risida gapirishga imkon beradi. Ish (izlanish) yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o‘tkazilishi mumkin. Muammolarning o‘zaro aloqasi, ularning umumiy xususiyatini namoyon etuvchi to‘ldirilgan sxemaning taqdimoti muhim bosqich hisoblanadi.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalilanildi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

Nazorat savollari:

1. Qadimgi Markaziy Osiyoda qanday diniy-falsafiy ta’limotlar vujudga kelgan?
2. Qadimgi va antik davrda Sharq va G‘arb falsafasining o‘zaro ta’siri.
3. Qadimgi Sharq falsafasini qadimgi yunon jamiyatiga ta’siri.
4. “Renesans”ning sharqcha va g‘arbcha talqini.
5. Tasavvuf atamasining ma’nosi nima?
6. Tasavvuf ta’limoti qachon va qayerda paydo bo‘lgan?
7. Tasavvuf falsafasining mohiyati nimadan iborat?
8. Tasavvuf taraqqiyotining qanday bosqichlari mavjud?

9. Markaziy Osiyoda qanday tasavvuf tariqatlari paydo bo‘lgan?
10. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarini ijtimoiy-falsafiy tafakkurini qanday omillar jadal rivojlantirdi?
11. IX-XII asrlar Markaziy Osiyoda tabiiy-ilmiy bilimlar qaysi qomusiy olimlar tomonidan rivojlantirildi?
12. Al—Xorazmiy va Ahmad Farg‘oniylarning tabiy—ilmiy ta’limotlarning bugungi kun fanining rivojidagi o‘rni.
13. Abu Nasr Al-Forobiyning falsafiy qarashlari haqida nimalarni bilasiz?
14. Farobiy falsafasining g‘oyaviy ildizlari.
15. Farobiyning ontologik va gnoseologik ta’limotlari.
16. Abu Rayxon Beruniyning tabiiy—ilmiy merosi.
17. Beruniy tajribaviy metodi xaqida.
18. Beruniyning naturfalsafiy ta’limoti
19. Ibn Sinoning tabiiy ilmiy qarashlarining ahamiyati.
20. Ibn Sinoning ontologik va gnoseologik ta’limotning o‘ziga xos xususiyatlari.
21. Turkistonda ma’rifatparvarlik harakati sabablari nimalardan iborat?
22. Turkistonda jadidchilik harakati qachon yuzaga keldi?
23. Jadidchilik harakati oqimi vakillari qanday ilg‘or g‘oyalarni ko‘tarib chiqishdi?
24. Jadidchilik oqimi vakillarining milliy istiqlol g‘oyasini va milliy istiqlol mafkurasini ishlab chiqishidagi o‘rni nimalardan iborat?
25. Jadidchilik oqimi vakillari xalqning milliy ongini uyg‘otish uchun qanday faoliyatlar olib borishdi?
26. Sobiq sovet tuzumi davrida falsafa faniga totalitar mafkura ta’siri ayniqsa qaysi g‘oyalarning sohaga majburiy ravishda keng tarqaganini ko‘rish mumkin?
27. SHO‘ro davrida o‘zbek falsafasiga qaysi yo‘nalishlar kirib keldi?
28. Totalitar mafkura keng avj olgan davrda ham o‘zbek falsafasi tarixini atroficha o‘rganib, uni ilmiy ravishda jamoatchilikka taqdim etgan olimlar kimlar edi?
29. Mustaqillik borlig‘i nima?
30. Milliy falsafa va milliy istiqlol falsafasining mohiyati nima?

V. KEYSLAR BANKI

FALSAFIY DEBATDA KEYS-STADI METODINI QO‘LLASH. TASDIQ VA INKOR KEYSLARI

Reja:

1. Keys-stadi haqida tushuncha. Keys turlari va strukturasi.
2. Tasdiq keysi va strategiyasi. (Tasdiq riyozati va taqdimoti).
3. Inkor pozitsiyasi va uni tayyorlash jarayoni.
4. Inkor darajalari (1,2, 3,4 darajalar talqini).

Debat o‘tkazishda “keys-stadi” innovatsion metodini qo‘llash mumkin. “Keys” tushunchasi biron bir fikrni tasdiqlovchi (isbotlovchi) yoki inkor etuvchi qisqacha mazmun ifodasini (syujetini yoki mundarijasini) bildiradi. Raqobatdagи komandalarning spikerlari (oratorlari, notiqlari) mavzuning aspektlari va baxs argumentlari aks ettirilgan keysdan munozara vaqtida foydalanadilar.

Keys asosan ikki shaklda – tasdiqlovchi (isbotlovchi, ma’qullovlavchi) va inkor etuvchi shaklda bo‘ladi. Debat olib boriladigan guruh ham shunga ko‘ra ikkiga ajratiladi. Debatda mazkur keys shakllaridan biri (tasdiqlovchi keys) oldin (birinchi bosqichda), ikkinchisi (inkor keysi) keyin (ikkinchi bosqichda), ya’ni navbat bilan qo‘llangani uchun “stadi” (bosqich) tushunchasi qo‘shib qo‘yilgan.

Keysning strukturasi, masalan, quyidagicha bo‘ladi.

Mavzu sharhi:

Mavzu dolzarbligini asoslash:

Asosiy tushunchalarning ta’riflari:

1 aspekt		2 aspekt		3 aspekt	
Argument	Argument	Argument	Argument	Argument	Argument
Isbot	Isbot	Isbot	Isbot	Isbot	Isbot

Bu yerda “Argument” tushunchasi ishonchli dalilni, “Isbot” esa dalilni qo‘llashga xizmat qiladigan fikrlarni ifodalaydi.

Keysda butun komanda nuqtai nazari adekvat (hech kimning fikri o'zgartirilmasdan) tarzda o'z ifodasini topishi kerak. Komanda birinchi spikerlarining nutqlarida mavzuni va komanda pozitsiyasini asoslovchi barcha imkoniy strategiyalar bo'lishi kerak.

Keys strukturasi mavzu sharhidan (interpretatsiyasidan, talqinidan) boshlanadi. Mavzuning umumiy sharxlari ko'p bo'lishi mumkin. Lekin debat tashkil etilganida har ikki komanda mavzuning muhim jixatlarini yana bir bora aniqlab olgan bo'lishi kerak. Bu komandalardan biri tog'dan gapirganda, ikkinchisi bog'dan gapiradigan bo'lmasligi uchun zarur. Masalan, komandalardan biri ekologik muammolarning fan-texnika taraqqiyoti samaralaridan bemeyor va noratsional foydalaniishi munosabati bilin kelib chiqqani haqida gapirib turgan paytda ikkinchi komanda unga javoban fan va texnika erishgan buyuk yutuqlar haqida gapirishi to'g'ri emas. Shuning uchun ham mavzu, uning muhokama etiladigan mavzu va uning asosiy tushunchalari har ikki komanda spikerlari tomondan aniq talqin etilishi va keysda bu talqin yoritilgan bo'lishi kerak.

2. Tasdiq keysi va strategiyasi. (Tasdiq riyozati va taqdimoti).

Odatda tasdiqlovchi komanda debatni boshlab beradi, ya'ni birinchi bo'lib gapiradi. Shuning uchun mavzu va asosiy tushunchalar talqinlari va ta'riflarini birinchi bo'lib beradi. Talqin va ta'riflarning xajmi asossiz kengaytirib yoki toraytirib yuborilmasligi kerak. Agar shunday bo'lsa, ikkinchi (inkor etuvchi) komanda bu holni tanqid qilishi mumkin. Talqin va ta'riflar to'g'ri chiqishi uchun lug'atlar, darsliklar, asosiy manba'lardan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki ular umumiy qabul qilingan "madaniy norma" hisoblanadi. Inkor etuvchi tomon tasdiqlovchi tomon bera olmagan talqin va ta'riflarni ham berishi mumkin.

Keltirilgan talqin va ta'riflar komandalar keysi shakliga muvofiq bo'lishining ahamiyati katta. Chunki, tasdiqlovchi komanda ta'rish berishni boshlar ekan, ishning boshlanishidayoq o'z komandasining mavzuga nisbatan pozitsiyasini yoritishga erishadi. Shu ma'noda asosiy tushunchalarning ta'riflarni mavzuning talqinidan keyinoq berilishi to'g'ri bo'ladi. Ta'riflashni boshlashdan oldin tasdiqlovchi komanda spikeri "biz o'z nuqtai nazarimizni (pozitsiyamizni)" to'g'ri tushuntirish uchun avval mavzuga oid terminlarning ta'rifi keltiramiz", deb eslatilishi maqsadga muvofiq.

Tasdiqlovchi tomon o'z talqin va ta'riflarini berib bo'lganidan keyin inkor komandasini bu talqin va talqinlarni ma'qullashi, yoki, agar ular to'liq yoki to'g'ri bo'lmasa, shuni ko'rsatib, to'g'ri talqinlarni berishi kerak.

Tasdiqlovchi komanda o‘z keysining argumentlash qismini tuzish uchun debatga tayyorgarlik davrida o‘z pozitsiyasini puxta va aniq asoslash maqsadida o‘z oldiga quyidagi savollarni qo‘yishi kerak:

- Biz nima uchun bu mavzuni (g‘oyani) tasliqlaymiz?
- Biz bu mavzuni (g‘oyani) tasdiqlash uchun qaysi kuchli dalillarni keltira olamiz?
- Mavzu (g‘oya) qanday asosiy masalalarni oldinga surgan va yana qanday masalalarni oldinga surishi mumkin?
- Inkor etuvchi tomon qanday qarshi argumentlarni keltirishi mumkin?

Shu savollarga javoban ishlar ekan, tasdiqlovchi tomon o‘zining anik va puxta ishlangan strategiyasini va uni aks ettirgan o‘z keysini yaratadi. Buni biz koneret misollarda ko‘ramiz.

Har qanday debatning eng muhim qismi uning boshlanishida, auditoriya diqqat-e’tiborini qozona olishdadir. Auditoriya diqqatini esa odatda yorqin sitata, kutilmagan statistik material, shuningdek, qiziqarli misol yoki analogiya jalb etishi mumkin.

Masalan, agar mavzu iqtisodiy yoki ekologik muammolarga muammolarga bag‘ishlangan bo‘lsa, tasdiqlovchi komanda spikeri mavzuning talqinida yoki asosiy tushunchalar ta’rifidan oldin gapni SH.Qahhorova “hozirgi kunda ekoliya muammolari iqtisodiy muammolarga nisbatan ham dolzarbroq o‘ringa chiqdi”, degan fikrni oldinga surdi, degan fikr bilan boshlashi mumkin.

Tasdiq keysining mazmuni, masalan, quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Mavzu sharxi : G‘oyalari ham gnoseologik, ham ontologik reallikdir.

Mavzu dolzarbligini asoslash: O‘tmish mafkurasi hukmronligi vaqtida bizning falsafiy tafakkurimiz g‘oyalari relligini cheklangan materialistik konsepsiya nuqtai nazaridan talqin etib keogan edi. O‘z mustaqilligimizni qo‘lga kiritigan bugungi kunda biz bu cheklangan qarashlar doirasidan chiqish imkoniga ega bo‘ldik. Endi bu masalani xolisona tahlil etish vaqtি keldi. Aks holda hamon totalitar sotsializm g‘oyalari hukmronligidan chiqib keta olmaymiz, tafakkurimizdagi mustaqillikka erisha olmaganimizcha qolaveramiz.

Asosiy tushunchalarning ta’ifi: ontologiya, gnoseologiya, xususiy va umumiy metafizika, substansiya, shakl, materiya va b. tushunchalarning Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Arabiy, Nasafiy va b. talqinida berish mumkin.

Tasdiqlovchi fikrning aspektlari:

1 aspekt: G‘oyaning gnoseologik aspekti.

2 aspekt: G‘oyaning ontologik aspekti.

3 aspekt: G‘oyaning har ikki aspektining uzviyligi.

Shundan keyin har uchala aspektni tasdiqlovchi argumentlarni keltirish va ularni tasdiqlovchi dalillarni (isbotlarni) kelirish kerak. Isbot, dalillar qatoriga hozirgi davr kvantlar mexanikasi kashfiyotlarini, EPR paradoksini, golografiya, genetika va fanning boshqa soxalaridagi kashfiyotlar kiradi.

Yuqoridagilarning hammasi tasdiq keysi mazmunida yozilgan bo‘lishi kerak. Debatda spikerlar o‘z nutqlarini shu mazmundan chiqarib oladilar. Bu keysning taqdimoti sifatida amalga oshadi.

Tasdiq keysining xulosa qismida tasdiqda ishtirok etgan fikrlarni umumlashtirish va mavzuga qaytish kerak. Xulosa eng oxirgi, yakunlovchi fikr bo‘lgani uchun u qisqa, lo‘nda va aniq bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Masalan, yuqoridagi mavzuning xulosasi quyidagicha bo‘lishi mumkin: G‘oya nimaligi masalasini chuqurroq tahlil etish shuni ko‘rsatadiki, uning ontologik reallik ekani gnoseologik reallik ekanini inkor etmaydi, balki bu har ikki aspekt g‘oyaning reallik sifatidagi to‘liq ma’nosini ochib beradi.

3. Inkor pozitsiyasi va uni tayyorlash jarayoni.

Inkor komandasining pozitsiyasi tasdiq komandaning keysini va uning vositasida uning pozitsiyasi asossiz ekanini ko‘rsatishdan iboratdir. Buning uchun inkor komandasi tasdiq keysining barcha kuchsiz tomonlarini aniqlashi, buni ko‘rsatishda tayanish mumkin bo‘lgan argumentlarni (ishonchli dalillarni) topishi va shu argumentlardan foydalangan holda ularning kuchsizligini isbotlay olishi kerak.

Inkor komandasasi, avvalgi mavzuda aytilganidek, dastavval tasdiq komandasining mavzu sharxiga e’tibor beradi va uni ma’qullashi yoki ma’qullamasligini bidiradi hamda tasdiqlovchi komandaning mavzu va asosiy tushunchalar talqini va ta’rifidagi to‘g‘ri va noto‘g‘ri jixatlarni ko‘rsatadi va tegishli argumentlar kelirib, o‘z fikrlarini isbotlaydi. Bu yo‘lda u avvalroq o‘zi tayyorlagan keysdan foydalanadi. Bu keys tasdiqlovchi komandaning mavzu xususidagi nuqtai nazari to‘g‘ri emasligiga tegishli aspekt, argument va isbotlarning tartiblangan tizimidan tashkil topadi.

Inkor vazifasini o‘z zimmasiga olgan komanda quyidagilarga e’tibor berishi zarur:

- Inkor nutqida tasdiq nutqining barcha komponentalariga (ikirchikirlariga ham) e’tibor bilan qarash kerak. Debat xarakteridan kelib chiqib, inkor komanda tomonidan keltirilgan ta’riflarga, talqinlarga yoki amaliy faoliyat rejalariga reaksiya tarzida amalga oshishi mumkin.

- Eng oldin tasdiq nutqining strukturasiga munosabat bildirish kerak. Masalan, “tasdiq guruhi ekologiya masalalarining dolzabligiga e’tibor berarkan....., degan fikrni bildirishdi. Biz bunga o‘z munosabatimizni bildirib,” tarzida nutq so‘zlanadi.

- Keyingi bosqichda tasdiq keysidagi mantiqiy izchillikka e'tibor qaratiladi. Inkorda aniq-ravshanlik bo'lishi uchun keysning boshidan oxiriga (yuqori satrlardan pastga) qarab punktma-punkt tushib borish kerak.

- Tasdiq keysining har bitta argumentiga, agar uni inkor etib bo'lmasa hamki, javob qaytarilishi shart. Masalan, "tasdiq guruhi.... masalani oldinga surganida...argumentlarni keltirdi. Biz bu borada bulardan muhimroq argumentlar ham borligini aytishimiz mumkin..."

- Keysning aspektlariga nisbatan ham shu starategiyani qo'llash mumkin.

- Inkor keysi tasliq keysini qanday inkor etishini qiyoslar yordamida ko'rsatish maqsadga muvofiq. Bu inkorning debatlar uchun qanchalik muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

4. Inkor darajalari (1,2, 3,4 darajalar talqini).

Inkor pozitsiyasi yoki inkor komandasining tasdiq komandasiga "xujumlari" birqancha darajalarda amalga oshadi.

1 darajadagi "xujum". Ushbu daraja mavzuning to'g'ri yoki noto'g'riliгини aniqlashga xizmat qiladi, ya'ni "tematik" xarakterga ega bo'ladi. Lekin xujumning bu darajasida inkor etuvchi tomonga unchalik qat'iy talab qo'yilmaydi, ya'ni "xujum" ixtiyoriy bo'ladi. Boshqacha aytganda, inkor komandasi o'z ishini tasdiq komandasi rezolyusiyasi (tasdiq sifatida e'lon qilgan g'oyasi)ning sharhini "savalashdan" ish boshlashi shart emas. Faqat bu sharhlarning noto'g'ri ekaniga qat'iy ishonch bo'lgan holdagina "xujum" qilish mumkin.

Bu bosqichda asosan tasdiqlovchi tomon mavzuni sharhlaydi, asosiy tushunchalar ta'rifini beradi. Shu bilan u debat chegaralarini belgilaydi. Bunda inkor komandasi asosan ta'riflar to'g'ri berilganiga ishonch hosil qilishga harakat qila oladi. Lekin ta'rif noto'g'ri yoki noto'liq bo'lishi ham mumkin. Noto'g'ri yoki noto'liq ta'rifning xillari ko'p. Shunga ko'ra tematik inkor xillari ham turlicha bo'ladi:

- Tasdiq keysidagi ta'rif noto'g'ri deb hisoblangani sababli inkor etish.

- Alternativ ta'rifni oldinga suruvchi inkor.

- Inkor keysidagi ta'rif to'liqroq deb hisoblangani sababli inkor etish.

Inkor keysi ta'riflariga oid dalillar ishonchlilagini isbotlash usullari quyidagicha:

- Soxa mutaxassislari bergen ta'rif.

- Mavzu kontekstiga muvofiq keluvchi ta'rif.

- Tushuncha mazmunini noo‘rin toraytirib yoki kengaytirib yubormagan ta’rif.

To‘g‘ri tuzilgan va ifodalangan tematik argumentlar komanda g‘alabasini ta’minalaydi. Lekin, agar tasdiqlovchi komanda ta’rifi noto‘g‘riligi shubxali bo‘lsa, bu xolda “xujumdan” tiyilgan ma’kul, albatta.

2 darajadagi “xujum”.

Inkor etuvchi tomonda raqib tomon tasdiqlayotgan fikr aspektlarini tanlash imkoniyati bo‘ladi. Bunda u, birinchidan, aspektning o‘zini qabul qilishi, lekin argumentlarning unga mos kelishi yo kelmasligi xususida baxslashishi, inkoriy munosabatda bo‘lishi mumkin. Ikkinchidan, aspektni ma’kullamasligi va o‘zining aspektini taklif etishi mumkin. Masalan, “Jamiyatda iqtisodiy o‘sishga nisbatan demokratik institutlarning rivojlanishi muhimroq” degan mavzuni olaylik. Tasdiqlovchi tomon mavzuning aspekti sifatida “Millat uzoq muddat barqaror hayot kechirishi” aspektini lishi tasdiqlanayotga fikr taqdim etgan bo‘lsin. Inkor etuvchi tomonda tanlaydi: u yo bu aspektni qabul qilishi va ayni paytda millay barqarorlikka iqtisodiy o‘sish orqali erishish mumkin, degan arnumentni oldinga surishi mumkin.

Inkor etuvchi tomonda mavzuning tasdiqlovchi tomon taqdim etgan aspektini albatta inkor etishi shart emas. U bu aspektning keysi mazmunini tanqid qilishi va undan o‘z keysini tuzishda foydalanishi mumkin.

Lekin tasdiqlovchi tomon aspektining keysi o‘z nuqtai nazari afzalligini ta’minalash maqsadida ifodalangan bo‘ladi. Shuning uchun ko‘p hollarda uni rad etish kerak bo‘ladi. Buning uchun aspektning zaif tomonlarini aniqlash kerak. Ular quyidagicha bo‘lishi mumkin: Tasdiqlovchi tomon keysida taqdim etilgan aspekt

- mavzuni ochishga yaramasligi;
- aniq ta’riflanmagan bo‘lishi mumkin;
- asosiy g‘oya oldinga surilmagan bo‘lishi mumkin; - optimal maqsad ko‘zlanmagan bo‘lishi mumkin.

Masalan, debat “BMT faoliyatining samaradorligi” mavzusi bo‘lsin. Tasdiqlovchi tomon mavzuning aspekti sifatida “Milliy nizolarni oldini olish maqsadi” oldinga surilgan, deb faraz qilaylik. Inkor etuvchi tomon “xalqaro nizolarning bartaraf etilishi erishilishi kerak bo‘lgan optimal maqsad emas”, degan fikrga asoslanib, o‘z aspekti sifatida “o‘zaro hamkorlik aoqalarini yaxshilash kerak”, degan o‘z aspektini taklif etishi mumkin.

Inkor etuvchi tomon tasdiqlovchi tomon oldinga surgan aspektini inkor etar va o‘z aspektini oldinga surarkan, buni asoslashi ham kerak bo‘ladi.

3 darajadagi “xujum”. Inkor etuvchi tomon tasdiqlovchi tomon argumentlariga ular qay tartibda qo‘yilgan bo‘lsa, shu tartibda munosabat bildirishi, javob berishi kerak. Shuni ham nazarda tutish joizki, inkor etuvchi

tomonning maqsadi argumentlarni “qo‘porib tashlash”, “yo‘q qilish”dan iborat emas, balki bu argumentlarning tasdiqlovchi tomon nuqtai nazarini isbotlay olmasligini ko‘rsatishdan iboratdir. Buning birqancha strategiyasi bor:

- Argument tomon tasdiqlovchi tomon oldinga surgan mavzuga yoki uning aspektiga mos kelmasligini ko‘rsatish mumkin.

- Inkor etuvchi tomon tasdiqlovchi tomonargumentlaridan ham kuchliroq argumentlarni taqdim etishi mumkin. Masalan, agar tasdiqlovchi tomon BMTning tinchlikni qaror toptirish maqsadida safarbar etayotgan kuchlari juda qimmatga tushishi argumentini oldinga surib, uning faoliyatini tanqid qilsa, inkor etuvchi tomon bu kuchlar ko‘plab insonlar hayotini saqlab qolayotgani argumentini oldinga surib, e’tiroz bildirishi mumkin. Vaholanki, insonlar hayotini saqlab qolish ishining salmog‘i (argumenti) balandroq. Inkor etuvchi tomon ko‘p hollarda o‘z keysida shu kabi argumentlardan foydalana oladi.

- Tasdiqlovchi tomon oldinga surgan argument noizchil, ziddiyatli bo‘lishi mumkin. Masalan, u “Atrof muhitni himoya qilish iqtisodiy o‘sishdan ham muhimroq” degan mavzuni himoya qilayotganida, argument sifatida yuqori texnologiyalar taraqqiyotining salbiy oqibatlarini olgan bo‘lishi va ayni paytda boshqa argument doirasida quyosh quvvatidan foydalanadigan texnologiyalarni rag‘batlantirish foydali, degan fikrni oldinga surishi mumkin. Inkor etuvchi tomon bu noizchillikni ko‘rsatishi kerak.

